

TOSHKENT DAVLAT AGRAR UNIVERSITETI

“*GUMANITAR FANLAR*” kafedrasi

**"FALSAFA ASOSLARI"**  
**MA'RUZALAR**  
**MATNI**

(institut barcha fakultetlari talabalari uchun)

*Institut O'quv - uslubiy Kengashi  
tomonidan ko'rib chiqilgan va  
tasdiqlangan. Bayonnomma № , "*  
\_\_\_\_ 200\_\_ yil

Toshkent davlat agrar universiteti Ilmiy Kengashida ko‘rib chiqilgan va nashrga tavsiya etilgan. Bayonnomma № \_\_\_\_\_, “\_\_\_” \_\_\_\_\_ 200\_\_\_ yil

“Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasi mudiri, O.Nosirov ning umumiy tahriri ostida

**Tuzuvchi:** Dots. Suyunov S.X. -

**Taqrizchi:** ToshDAU dotsenti P H.Haydarov

“Ijtimoiy va gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti  
M.B.Bo‘riyev

«Ijtimoiy va gumanitar fanlar» kafedrasi majlisida muhokama etildi va  
tasdiqlash uchun 200\_\_\_ yil “\_\_\_” \_\_\_\_\_ “Bayonnomma № \_\_\_ sonli bayonnomma  
bilan tavsiya etildi.

## K I R I S H

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, boy o‘tmish qadriyatlarimizga, shu jumladan, falsafa fanining ham muammolariga munosabat o‘zgardi. Yarim asrdan ko‘proq davom etgan Sovet tuzimi sharoitida muhim, murakkab falsafiy muammolar ustida erkin fikrlashga, minglab yillar davomida shakllangan dunyoni lol qoldirgan falsafiy meros va qadriyatlarni xolisona o‘rganishga yo‘l qo‘yilmadi. Mustaqil ilmiy ijodiy tadqiqotlar o‘rnini aqidaparastlik, totalitar tuzim siyostini, avtoritar g‘oyalarni targ‘ib qilish egalladi. Natijada asrlar davomida inson aqli va tafakkuri salohiyatining yuksak cho‘qqisi sifatida qarab kelingan falsafaning jamiyat taraqqiyoti, inson bilimlari, ma’naviyati yuksalishidagi o‘rni, ahamiyati torayib va chegaralanib qoldi.

Mamlakatimizning mustaqil taraqqiyoti yaratgan sharoit va imkoniyatlar falsafaga umuminsoniy qadriyat sifatida yondashish, jamiyat tarixida shakllangan barcha falsafiy ta’limotlarni bir - bir bilan uzviy bog‘lagan ma’naviy jarayon sifatida qarash, Sharq falsafasi, jumladan, Osiyo halqlari ijtimoyi - falsafiy fikr tarixi va an‘analarini chuqur yoritish, halqimizning hozirgi kundagi mustaqil taraqqiyoti, istiqboli bilan bog‘liq bo‘lgan nazariy - amaliy muammolarini xolisona o‘rganish va umumlashtirish zaruriyatini vujudga keltirdi.

Inson ma’naviy kamol topib, jamiyat, fan va texnikaning rivojlanib borgani sari falsafiy dunyoqarashga bo‘lgan ehtiyoj ham kengayadi, chuqurlashadi. Bu esa falsafaga yangicha, ijodiy yondashish zaruriyatini keltirib chiqaradi.

Mustaqil mamlakatimizning yangi falsafasi insoniyat tarixi taraqqiyoti davomida yaratilgan ma’naviy madaniyatning uzviy tarkibiy qismi, insoniyatning o‘ziga va borlikka bo‘lgan munosabati haqidagi qarashlarining bir butun tizimi bo‘lmog‘i, insoniyat kamolotiga va butun jamiyatning ijtimoiy, ma’naviy yuksalishiga xizmat qilmog‘i lozim.

Falsafiy qadriyatlar halqlar, millatlar o‘rtasidagi o‘zaro do‘slik, hamkorlik, birlik va totuvlikni ta’minlashga, komil inson shaxsini tarbiyalashga, yoshlarimizni yangicha, erkin, ijodiy tafakkur salohiyatini shakllantirishga, fan va madaniyat taraqqiyotiga ilmiy metodologik zamin bo‘lmog‘i kerak. Bu vazifalarni hayot sinovlaridan muvaffaqiyatli o‘tib sayqallangan umuminsoniy falsafiy qadriyatlarga tayanib bajarilishi lozim.

Falsafani yuqorida bayon qilingan mohiyati va ahamiyatidan kelib chiqqan holda ushbu qisqacha falsafadan ma’ruzalar matni Oliy o‘quv yurtlarining talabalari uchun yozildi.

Ushbu “Falsafa asoslari” fanidan yozilgan ma’ruzalar matni yoshlarning yangi

dunyoqarashi shakllanishida ilmiy, ijodiy tafakkur salohiyati rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi. Bu esa jamiyat taraqqiyoti ma’naviy omillari mustahkamlanishining asosiy shartlaridandir.

### **Mavzu №1. Falsafaning predmeti va asosiy mavzulari.**

#### **Falsafiy dunyoqarash.**

##### **Mavzuning maqsadi:**

Ushbu mavzuning asosiy maqsadi falsafa atamasining mohiyati va mazmunini ochib berish hamda falsafaning bahs mavzusi, ularning xilma-xilligi, falsafada milliylik va umuminsoniylik, Islom Karimov - istiqlol falsafasining asoschisi ekanligi, kabi yo‘nalishlarni nazariy jihatdan asoslash. Shuning bilan birga falsafada dunyoqarash tushunchasi, dunyoqarashning tarixiy shakllari, mifologik, diniy va falsafiy dunyoqarashlarning mohiyatini har tomonlama nazariy va amaliy dalillar asosida ochib berishdan iborat.

##### **Mavzuning rejasi:**

1. Falsafa atamasining mohiyati. Falsafaning bahs mavzusi va ularning mohiyati.
2. Falsafada milliylik va umuminsoniylik.
3. Dunyoqarash tushunchasi: mifologik, diniy va falsafiy dunyoqarashlar, ularni o‘rganishning ahamiyati.

**Birinchi savol:** Falsafa atamasining mohiyati hamda falsafaning bahs mavzusini yoritish?

“Falsafa” atamasi asli Qadimgi yunon tilidan olingan bo‘lib, “filio” (sevmoq) va “safos” (donishmandlik) so‘zlarining birikuvidan iborat bo‘lib, uning lug‘aviy ma’nosи “donishmandlikni sevish” demakdir.

“Filosofiya” atamasi va u ifoda etadigan bilimlar majmui Qadimgi Yunoniston va Rimda eramizdan avvalgi VII - III asrlarda yuz bergan buyuk yuksalish natijasi sifatida yuzaga kelganligi, o‘sha davrda endigina shakllanib kelayotgan nazariy fikrning ifodasi falsafiy tafakkur olamni yaxlit va bir butun holda tushunish mujassamiga aylanganligiga Yunonistonda “filosofiya” atamasini dastlab matematika fani orqali buyuk alloma Pifagor ishlatgan. Yevropa madaniyatiga esa u buyuk yunon faylasufi Aflatun asarlari orqali kirib kelgan. Shu tariqa u avvalo Qadimgi Yunonistonda alohida bilim sohasiga,

to‘g‘rirog‘i “fanlarning otasi”, ya’ni asosiy fanga aylangan.

Sharqda ikkinchi Arastu, “Ikkinchi muallim” deya e’tirof etilgan buyuk mutafakkir Abu Nasr Farobiy (873 - 950) filosofiya so‘zini “hikmatni qadrlash” deb talqin qilgan.

Falsafa avvalo, muayyan ilmiy bilimlar tizimidir. U bir tomondan insonning voqelikni aql vositasida idrok etishi, ikkinchi tomondan ongning afsona va rivoyatlar asosidagi shakllaridan uzil - kesil ajratgan jarayon natijasidir.

Falsafaning oldiga qo‘ygan vazifalar va uning hayotdagi o‘rniga qarab, ijtimoiy taraqqiyotning turli davrlarida unga bo‘lgan munosabat ham o‘zgarib borgan. Falsafa ijtimoiy tafakkur rivoji, yutug‘i insonning ma’naviy taraqqiyoti mahsulidir.

Shunday qilib falsafa insoniyat ma’naviy madaniyatining mustaqil bir sohasi sifatida shakllanib, o‘zining tarkib topishi uzoq davom etgan.

Birinchi bo‘lib falsafani nazariy bilishning alohida bir sohasi sifatida qaragan faylasuflar Aflatun va Arastudir. Ular falsafa deganda nimani tushunamiz va u nimani o‘rganadi degan savolga: “Falsafa - bu insonning dunyo va o‘zi to‘g‘risidagi hamma bilimlarini o‘z ichiga oluvchi fandir” - deb javob berishadi. Buyuk mutafakkir keyingi davrlarda ham falsafa jamiyatning ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy, ma’naviy hayoti bilan bog‘liq holda rivojlanib bordi.

**Ikkinchi savol:** Falsafada milliylik va umuminsoniylik masalasini yoritish.

Falsafa umuminsoniy fan sifatida bashariyatga doir umumiylar muammolarni qamrab oladi. Ma’munni olam va odam munosabatlari, jamiyat va tabiatni asrash, umrni mazmunli o‘tkazish, yaxshilik va yomonlik kabi qadriyat-lar bilan bog‘liq masalalarning barchasi uchun umumiy. Ammo falsafada muayyan milliy xususiyat, maqsad va intilishlar ham o‘z ifodsini topadi. Aslida yuqorida zikr etilgan umuminsoniy mavzu, masala va muammolarning barchasi avvalboshda xususiy, milliy, mintaqaviy ahamiyatga molik masalalar tarzida namoyon bo‘ladi.

O‘z yurti, millati, ota-onasi va yoru birodarlarini sevgan vatanparvar inson, avvalo ona shularning kamoli uchun qayg‘uradi, ularni o‘ylaydi, ularga xizmat qilishni oliy himmat deb tushunadi. Bunday shaxs dunyoqarashida ana shu jihat va xususiyatlar

albatta aks etadi. Bu esa o‘z navbatida, umuminsoniy fan bo‘lgan falsafada milliylikni aks etishiga asos bo‘ladi.

Bizning nazarimizda milliy falsafa millat mintalitetini belgilay-digan muhim omildir. Umumbashariy sivilizatsiyasiga uzviy qo‘shilish jarayo-ni milliy falsafani yaratish orqali sodir bo‘ladi. Eng muhimi falsafadagi milliylik, umuminsoniylikni rad qilish evaziga emas, balki uni ijodiy boyitish orqali rivojlanib boradi.

Falsafa tarixiga nazar tashlasak, ayrim milliy falsafalarning umuminsoniy ma’naviyat xazinasiga munosib hissa bo‘lib qo‘shilganligini ko‘ramiz. Masalan, Rim imperiyasi zavolga yuz tutgandan keyin o‘z milliy davlatchiligiga ega bo‘lgan Yevropa mamlakatlarida o‘rta asrlarga kelib, milliy falsafa yaratish imkoniyati tug‘ildi. To‘g‘ri, ular umumevropa hududida Qadimgi Yunoniston va Rim madaniyati negizida shakllandi. Ularda Yevropa halqlariga xos umumiyligi jihat va xususiyatlar, umumetnik mintaliteti aks etgan edi. Bu jarayon avvalo Italiya va Angliyada, so‘ngra Fransiyada yuz berdi. Bu falsafiy maktablarning F. Bekon, R. Dekart, B. Spenoza va J. J. Russo kabi atoqli namoyondalari nafaqat o‘z mamlakatlari, balki Yevropa va jahon falsafasi tarixida o‘chmas nom qoldirdi.

Xuddi shunday milliy va umuminsoniy falsafa Germaniya va boshqa mamlakat falsafasida ham mana shunday milliy va umuminsoniylik falsafasi shakllanganligi ma’lum.

**Uchinchi savol** ni yaratishda dunyoqarashning o‘ziga xos xususiyati:

Dunyoqarash - bu avvalo inson o‘rni va dunyoni zaruriy ravishda anglashi, tushunishi, bilishi, baholashi natijasida yuzaga kelgan xulosalari, bilimlari asosida shakllangan umumlashmalar tizimidir. Bu jihatdan dunyoqarash dunyoning inson ongidagi o‘ziga xos in’ikosi bo‘lib, inson o‘z - o‘zini va dunyoni anglashning alohida shaklidir.

Dunyoqarash ijtimoiy - tarixiy harakterga ega. Bu jihatdan har bir davrning, har bir avlodning dunyoqarashi mavjud. Shunga ko‘ra dunyoqarash o‘ziga xos alohida maxsus va umumiyligi xususiyatlarga ega bo‘ladi.

Dunyoqarashning o‘ziga xos maxsus xususiyati shuki, unda mifologiya, din,

filosofiya, fan, siyosat, huquq, san'at, ahloq va shu kabi ijtimoiy - ma'naviy hodisalar mujassamlashgan holda in'ikos etgan bo'ladi.

Dunyoqarashning umumiy xususiyati shuki, u insonni, dunyoni va o'zini anglashi, tushunishi, bilishi va baholash usuli bo'lishi jihatdan uning har qanday moddiy va ma'naviy faoliyatlarida o'z ifodasini topadi.

Dunyoqarash tarkibiga borliqning oddiy hissiy va aqliy in'ikosi sifatida hosil bo'lgan sezgi, idrok va tasavvurlardan tortib, nazariy tafakkurda mantiqiy jihatdan qayta ishlanib hosil bo'lgan mifologik, diniy, falsafiy, siyosiy, huquqiy, ahloqiy, estetik, badiiy va ilmiy bilimlar, nuqtai - nazarlar, ishonch va e'tiqodlarning barchasi kiradi.

Dunyoqarash shu bilan birga o'ziga xos vorislik va davomiylikka ham ega. Tarixda bosib o'tgan har bir davrda yashagan avlodlar tomonidan hosil qilingan dunyoqarashni tanqidiy o'rganib, ularning muhim va ijobiy tomonlarini o'zlashtirib olish juda muhimdir. Sababi, o'tgan avlodlar tomonidan yaratilgan dunyoqarashlar har bir yangi avlod dunyoqarashining shakllanishida ma'naviy vazifasini bajaradi.

Umuman dunyoqarash - insoniyatning o'tmishi, hozirgi va kelajakdagi hayoti sharoitlarining anglab olingan qadriyatlari tizimidan iboratdir. Dunyoqarashning tarixiy shakllari mifologik, diniy va falsafiy dunyoqarashlardir.

Mifologik dunyoqarash voqelikning hayoliy in'ikosi sifatida asosan qadimgi davr kishilar uchun harakterlidir. Bu dunyoqarash o'z ifodasini ko'proq qadimgi davrlarda yaratilgan naqllarda, rivoyat va afsonalarda topgan. Bu rivoyatlar va afsonalar ijtimoiy taraqqiyotning dastlabki davrlarida, uning turli bosqichlarida paydo bo'lib, ularda tasvirlangan obrazlar, afsonaviy qahramonlar, xudolar, yovuz kuchlar bo'lishgan. Bular orqali qadimgi kishilar o'zlarining tabiat, jamiyat va bir-birlariga bo'lgan munosabatlarini bildirganlar.


Diniy dunyoqarash - olamdagi voqealarni va hodisalar sabablarini ilohiy kuchlar, oldindan belgilangan maqsadlar bilan bog'lab tushunishdir.

Diniy dunyoqarashning muhim jihatlari diniy tuyg'u, diniy aqidalarga ishonish, sig'inish, diniy e'tiqod va shu kabilar tashkil qiladi. Diniy dunyoqarashning boshlang'ich elementi - bu diniy tuyg'udir. Diniy tuyg'u kishilarning his - hayajoni,

kechinmasi, ruhiy holati bilan bog‘liq bo‘ladi.

Falsafiy dunyoqarash - dunyoni, borliqni aqliy jihatdan umumlashtirib tushuntiruvchi nazariy qarashlar tizimidir. U diniy dunyoqarashdan farqli ravishda, insonning aqliy - intellektual faoliyatiga ko‘proq e’tibor beradi.

Falsafiy dunyoqarash insonning doimo muayyan maqsadga qaratilgan, amaliy va nazariy faoliyati bilan uyg‘unlashgan eng umumiyl tushunchalarida ifodalanadi. Falsafiy dunyoqarashning shakllanishi va rivojlanishi falsafa fanining paydo bo‘lishi bilan uzviy bog‘liq holda yuz beradi. Zamon falsafiy dunyoqarashining asosini falsafiy qarashlar va tasavvurlar tashkil etadi.



**“Olamning asosida nima yotadi,  
uning mohiyati nimadan iborat” -  
degan savolga javoblar**

**Monizm** (lotincha – monoe, ya’ni yakka ma’nosini anglatadi)

**Dualizm** (lotincha – dua, ya’ni ikki degan ma’noda ifodalanadi)

**Plyuralizm** (lotincha – plural, ya’ni kunlik degan ma’noni anglatadi)

**Materializm** – olamning asosida materiya, ya’ni moddiy narsalar yotishini e’tirof etadigan, moddiylikni ustivor deb biladigan ta’limotdir

**Idealizm** – olamning asosida ruh va g’oyalar (idealar) yotadi deb tushinuvchu oqim

**Tayanch so‘z va iboralar.**

Falsafa, falsafiy muammolar, falsafiy dunyoqarash, dialektika, metofizika, sadoqatika, sinergetika, falsafada milliylik, umuminsoniylik.

**Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”. T. “Sharq”, 1998 y.
2. Karimok I.A. “Donishmand halqimning mustahkam irodasiga ishonaman”. “Fidokor”, 2000 yil 8-iyun.
3. Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” - T., “O‘zbekiston”, 1999 y., 352 bet.
4. Karimov I.A. “Milliy istiqlol mafkurasi - halq e’tiqodi va buyuk kelajakka ishonchdir”. “Fidokor” gazetasi muxbirleri bergan savollarga javoblar. - T., “O‘zbekiston”, 2000 y.
5. Mo‘minov I. “O‘zbekistondagi tabiiy - ilmiy va ijtimoiy - falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar” - T., “Fan”, 1990 y.
6. Falsafa (ma’ruzalar matni). - T., 2000 y., 6 - 36 betlar.
7. Falsafa asoslari. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2005 y., 6 - 26 betlar.
8. Ochilova B. “Ma’naviy meros va taraqqiyot”, “Muloqot”, - J., № 1-2 sonlar, 2007 y., 44 - 45 betlar.
9. Do’stmatov B. “Maqsadimiz yetuk, chuqur bilimli kadrlar tayyorlash”, “Muloqot”, - J., № 1-2 sonlar, 2007 y., 2 - 4 betlar.
10. Karimov S.K. Suyunov S.X. “Tarbiya tayanchi”, Samarqand - 2007 y., 3 - 21 betlar.
11. Suyunov S.X. “Yoshlarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashning asosiy mezonlari”, Samarqand - 2006 y., 4 - 15 betlar.
12. Jamolov U.J. “Hayot mazmuni - umr saboqlari”, Toshkent, “Fan” nashriyoti, 2007 y., 13 - 25 betlar.

### **Mavzu №2. Markaziy Osiyo falsafasi, uning jahon madaniyatidagi o‘rni. Mavzuning maqsadi:**

Ushbu mavzuda qadimgi O‘zbekiston hududi eng qadimgi madaniyat markaz- laridan biri ekanligi, bu markazlardan asosiysi Zardushtiylik ta’limoti eramizdan avvalgi X asrdan eramizning VII asrlarigacha bo‘lgan dawning falsafiy ta’limot mahsuli ekanligi, ayniqsa uning muqaddas kitobi “Avesto” da qayd etilgan g‘oyalarni talabalar ongiga singdirish, shu bilan birga Moniy va Mazdak ta’limotlarining mohiyatini nazariy jihatdan yoritib berishga qaratilgan. Ushbu ta’limotlarning hozirgi kundagi ahamiyatiga alohida e’tiborni qaratish mo‘ljallangan.

### **Mavzuning rejasи.**

1. Markaziy Osiyodagi eng qadimgi <sup>10</sup>falsafiy qarashlar. Qadimgi Xorazm, So‘g‘diyona,

Afrosiyob, Shosh madaniyati, uning milliy istiqlol mafkurasini shakllantirishdagi ahamiyati.

2. Zardushtiylik va “Avesto” da aks ettirilgan falsafiy g‘oyalalar.
3. Kushon imperiyasi, buddaviylik, Moniy va Mazdak ta’limoti, ularning ahamiyati.

**Birinchi savol:** Markaziy Osiyodagi eng qadimgi falsafiy qarashlar va undagi qadimgi madaniyatni yoritishda tarixni o‘rganish va undan saboq olish har bir inson uchun zarurdir. Bu - falsafa bilan shug‘ullanayotgan mutaxassis uchun ham, uni o‘rganayotgan talaba uchun ham birdek muhim ahamiyatga ega. Tarixni falsafasiz tushuntirib bo‘lmaganidek, falsafani ham tarix haqiqatisiz to‘g‘ri anglab bo‘lmaydi.

Ushbu savolda ayniqsa mamlakatimiz hududida eng qadimgi madaniyat markazlaridan biri bo‘lgan Qadimgi Xorazm, So‘g‘diyon, Afrosiyob, Shosh madaniyatining o‘rni katta ekanligiga alohida e’tiborni qaratishimiz kerak. Sababi Qadimgi Xorazm mamlakatida madaniyat savdo - sotiq, hunarmand-chilikning keng ko‘lamli rivojlanishi haqida ma’lumotlar mavjud. Bundan tashqari So‘g‘diyon, Shosh kabi o‘lkalarda ham madaniyat nihoyatda rivojlanganligi ma’lum.

Bulami Surxondaryodagi Dalvarzintepadan topilgan topilmalar yaqqol misoldir, ya’ni Dalvarzintepadan 33 kilogram og‘irlikdagi xotin - qizlar ziraklari, kushnoy va xudolar ramzi solingan haykalchalar topilgan. Ushbu topilmalar mamlakatimizda qadimdan madaniyat, ya’ni hunarmandchilikning rivojlanganligi, shu bilan birga savdo - sotiqning rivojlanganligidan dalolat beradi.

Kushnoyning topilishi esa mamlakatimiz hududida qadimdan, ya’ni bun-dan 2000 - 2005 yillar muqaddam san’at rivojlanganligidan dalolat beradi.

Shu bilan birga o‘tmish halqimizning madaniyatini o‘rganish hozirgi davr uchun ayniqsa yoshlар tarbiyasida katta ahamiyatga ega.

**Ikkinci savol:** Zardushtiylik va “Avesto” da aks ettirilgan falsafiy g‘oyalarni yoritishda ushbu ta’limotga Zardusht asos solganligini, bu ta’limot eramizdan avvalgi X asrdan eramizning VII asrlarigacha bo‘lgan davr mahsuli ekanligini qayd etish lozim. Manbalarga ko‘ra, Zardusht eramizdan avvalgi VI asrning birinchi yarmida yashagan. U o‘zini payg‘ambar deb e’lon qilgan. Lekin uning payg‘ambarligi ilohiy asosga ega emas, ya’ni bu haqiqat ilohiy kitoblarda o‘z aksini topmagan.

Keyingi yillarda olib borilgan tadqiqotlar bergen ma’lumotlarga qaraganda bu ta’limot Vatanimiz hududida, xususan Xorazm zaminida paydo bo‘lgan. O‘z davrida halqni ezgulikka va adolat g‘oyalariga da’vat etish, hayotbaxsh an’analarni shakllantirish, dehqonchilik va shahar madaniyatini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan, uning g‘oyalariga bog‘liq qadriyatlar

bugungi kungacha yashab kelmoqda. Halqimizning ma’naviy madaniyatini rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.

Zardushtiylikning bosh kitobi “Avesto” bo‘lib, unda qadimgi halqlar-ning dunyo to‘g‘risidagi tasavvurlari o‘ziga xos qadriyat va urf - odatlari aks ettirilgan. Unda olamning azaliy qarama - qarshi, yaxshilik va yomonlik, issiqlik va sovuqlik, hayot va o‘lim borasidagi qarashlar o‘z ifodasini topgan. “Avesto” da shuningdek, tabiat falsafasi, tarix, etika, tabiatga oid ma’lumotlar ham berilgan.

Ushbu mavzuni yaratishda Aleksandr istilosи Markaziy Osiyoni bosib olganda boshqa madaniy yodgorliklar qatorida “Avesto” ni ham Makedoniyaga olib ketgan, bir qismini yoqib yuborganligi alohida qayd etish lozim.

Iskandarga qarshi kurashda halqimizning milliy qahramoni Spitamen beqiyos mardlik va jasurlik ko‘rsatganligini, u buyuk lashkarboshi bo‘lganli-giga alohida ahamiyat berish kerak.

Uning qahramonligi millatimizning o‘sha davrdagi o‘z davlatchilagini, o‘zi yashaydigan hudud dahlsizligini saqlab qolish uchun olib borgan kurashi-ning yaqqol timsolidir. Spitamenni halq qo‘llab - quvvatlamasa uning obro‘sni bunchalik baland bo‘lmas edi. Spitamen halqning ruhi bilan yashaganligini alohida qayd qilish kerak. Spitamenning qahramonligi va uning ozodlik uchun kurashi kelajak avlod uchun ibrat maktabi bo‘lib xizmat qiladi.

**Uchinchi savol:** Kushon imperiyasi, buddaviylik, Moniy, Mazdak ta’limoti va ularning mohiyati masalasini yoritishda Buddaviylik diniy ta’limot sifatida qadimgi Hindistonda eramizdan avvalgi VI asrning oxiri va V asr boshlarida vujudga kelgan. U jahonda keng tarqalgan dinlardan biri hisoblanadi. Bu ta’limotga asos solgan donishmand Sidharta urug‘idan chiqqan Gautama hisoblanadi. Keyinchlik u “Budda”, ya’ni, nurlangan degan laqabga ega bo‘lgan. Buddaviylik dini Islomga qadar Markaziy Osiyoda keng tarqalgan qadimgi dinlar orasida mavqe jihatdan juda katta o‘rin tutadi.

Bu ta’limot Markaziy Osiyoga eramizdan avvalgi II-I asrlarda kirib kelgan. Tarixiy manbalarning ko‘rsatishicha, uni Toharistonga Balxlik savdogarlar olib kelishgan. Kushonlar imperiyasi davrida buddaviylik dini hukmron dinga aylangan edi. U din “Halqchil” bo‘lganligi uchun Markaziy Osiyoga keng yoyilgan. Buddaviylikning Markaziy Osiyoga yoyilishi quyidagi to‘rt bosqichdan iborat: Birinchi bosqich: Kushonlardan oldingi davr. Bu eramizdan avvalgi I asrga to‘g‘ri keladi.

Ikkinchi bosqich: Kushonlar davri (eramizning II-IV asrlari). Bu davrda buddaviylik markaziy Osiyoga keng tarqalgan edi. Ayniqsa, uning ahloqqa oid, halq ommasini sabr-qanoat va

bardoshga da'vat etuvchi g'oyalarni ilgari surganligi muhim ahamiyatga ega.

Uchinchi bosqich: Bu davrda Markaziy Osiyoda Buddaviylik ta'limotining manbalari yoyilgan.

To'rtinchi bosqich: (IX-XIV asrlar) Islom Markaziy Osiyoga hukmron dinga aylanishi bilan bu din siqib chiqarilgan, juda zaiflashib ketgan davr bo'lgan.

Buddaviylikning O'zbekiston va Hindiston halqi o'rtasida o'z davrida ma'naviy ko'prik bo'lib xizmat qilganligi aniq. Halqlarimiz orasidagi do'stlik va hamkorlikning ildizlari o'sha davrga borib taqaladi.

Shuni qayd etishimiz kerakki, Moniy ta'limoti yurtimizda buddaviy-likdan keyin keng tarqalgan edi. U Zardushtiylik va xristianlikning sintezlashuvi natijasida vujudga kelgan. Moniy fors va arab tillarida bir necha risolalar yozgan. Ammo ular bizgacha yetib kelmagan. Moniy hatto "Moniylik yozuvi" nomli alifbo ham tuzgan. Uning ta'limoticha, hayotda dastavval nur dunyosi - yaxshilik va zulmat dunyosi - yovuzlik bo'lgan. Ular o'rtasida abadiy kurash boradi, inson ikki unsurdan (ruh - nur farzandi, jism - zulmat mahsuli) iborat. Moniylik halq ommasi manfaatlarini himoya qiluvchi ta'limot bo'lgan sababli hukmron mafkura qarashlarga duch kelgan.

Moniylilik ta'limoti asosida Mazdak ta'limoti yuzaga keldi. U eramizning V-VI asrlarida keng tarqalgan edi. Uning asoschisi Mazdak (470-529 yillar) bo'lgan. Mazdak va uning maslakdoshlari o'z qarashlarida halq ommasiga suyangan. Halqning ozodlik, erkinlik, hurlik yo'lida olib borgan harakatlariga rahnamolik qilgani uchun tez fursatda ularning tarafdochlari ko'payib borgan. Mazdakiylik ijtimoiy tengsizlikni bartaraf etish yo'lida kurashga da'vat etuvchi mafkura sifatida xizmat qilgan. Unda asosiy yovuzlik - boylikka hirs qo'yish va o'ta qashshoqlik qoralangan. Bu insonparvar harakatdan cho'chigan shoh Mazdakni turli hiylalar bilan o'limga mahkum etadi. Mazdakchilar harakati eramizning VI asrida bostirilishiga qaramay, turli mamlakatlarda muayyan darajada davom etgan. Markaziy Osiyoda Muqanna, Ozarbayjonda Bobak boshchiligidagi dehqonlar va shahar kambag'allarining zulmiga qarshi kurashlar bunga misol bo'la oladi.

Markaziy Osiyoda vujudga kelgan qadimgi falsafiy ta'limotlar, ular ilgari surgan g'oyalari bugungi kunda ham katta ahamiyatga ega. Yuqorida sanab o'tilgan qadimgi diniy, falsafiy ta'limotlar, ya'ni Zardushtiylik, uning muqadas kitobi "Avesto", Moniy ta'limoti, "Moniylilik yozuvi", Mazdakiylik harakati jamiyatdaadolat, erkinlik va teng huquqlilik tamoyillarini qaror toptirishga da'vat etgan.

Mustaqillik tufayli ajdodlarimiz yaratgan boy va o'lmas madaniy merosni o'rganish va  
13  
ulardan foydalanish imkoniyatlari tug'ildi.

**“Markaziy Osiyoda eramizgacha VI asr oxiri, eramizning VI asrlarida qanday diniy ta’limotlar vujudga kelgan” -  
degan savolga javoblar**



**Zardushtiylik ta’limoti eramizgacha X asr, eramizning VII asrlari**



**Buddaviylik eramizdan oldingi I asr, eramizning IX asrlari**



**Monyi ta’limoti**



**Mazdak ta’limoti eramizgacha X asr, eramizning VII asrlari**

Zardusht, zardushtiylik, “Avesto”, Kushonlar davlati, buddaviylik, Mazdak, Moniy, Grek-Baqtriya, Muqanna, Qutayba.

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. “Olloh qalbimizda, yuragimizda”, T., “O‘zbekiston”, 1999y.
2. Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”, T., “O‘zbekiston”, 1998y.
3. Karimov I.A. “Donishmand halqimning mustahkam irodasiga ishonaman”.  
“Fidokor”, 2000 yil 8-iyun.
4. Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” - T., “O‘zbekiston”, 2000  
y^
5. Abu Rayhon Beruniy “Tanlangan asarlar”, 1-jild, T., O‘zbekiston, “Fan”, 1958 y.

6. Mo'minov I. "O'zbekistondagi tabiiy - ilmiy va ijtimoiy - falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar" - T., "Fan", 1998 y.
7. Nosirov R. "O'rta Osiyo halqlari ijtimoiy - falsafiy tarixi bo'yicha maxsus kun", T., 1992 y.
8. Fayzullayev O. "Muhammad al-Xorazmiy va uning ilmiy merosi", T., "Fan", 1983 yil.
9. Hasanov S. "Ma'mun akademiyasi", "Muloqot", 2004, 6-son, 22-24 betlar.
10. Baytullayev R. "Ajdodlar merosini o'rganib", "Muloqot", 2004 yil sentyabr, 5- son, 29-31 betlar.
11. Raimqulov A. "Samarqand - umrli shahar", "Muloqot", 2006, 5 - 6 son, 15-18 betlar.
12. Karimov K. "Bunyodkorlik qonimizda bor", "Muloqot", 2006, 5 - 6 son, 21-24 betlar.
13. Falsafa asoslari. Toshkent "O'zbekiston", 2005 yil. 46-50 betlar.
14. Suyunov S.X. "Mantiq, ahloqshunoslik va estetika" (Uslubiy qo'llanma) Samarqand - 2007 y.
15. Jamolov U.J. "Hayot mazmuni - umr saboqlari". Toshkent "Fan" nashriyoti. 2007 yil.

### **Mavzu №3. O'rta asr va yangi davr g'arb falsafasi. Mavzuning maqsadi:**

Ushbu mavzuning asosiy maqsadi Rim imperiyasining qulashi va Yevropada yagona milliy mafkuraning tanazzuli hamda O'rta asrlarda Ovro'pa madaniyati. Nominalizm va realizm, apologetina, patristika va sxolastika g'oyalari.

Renelans davri falsafiy tafakkuri hamda Ovro'pada XV - XVII asrlarda ijtimoiy - siyosiy o'zgarishlar va yangi zamon falsafiy tafakkurining shakllanishi.

Rim falsafasi: J. Bruno, N. Kopernik, R. Bekon, T. Tobbos qarashlari, XVII - asr Ovro'pa falsafasidagi ratsionalizm. XVIII - asr ma'rifatparvar-lari: Kabb, Xegellarning falsafiy qarashlarini reja asosida talabalar ongiga singdirish va ularda Vatanparvarlik va e'tiqod tuyg'usini shakllantirish masalalariga qaratiladi.

### **Mavzuning rejasi.**

1. Rim imperiyasining halokati va Ovro'pada yagona milliy mafkuraning tanazzuli. O'rta asrlarda Ovro'pa madaniyati.
2. Ovro'pada uyg'onish davri falsafiy tafakkuri.
3. Ovro'pada XVII - XIX asrlarda falsafiy oqimlar va maktablar.

#### 4. O'rta asr va yangi davr Ovro'pa falsafasini o'rganishning ahamiyati.

**Birinchi savol:** Rim imperiyasining halokati va O'rta asrlarda Ovro'pa madaniyati masalasini yoritishda Ovro'pada Qadimgi Yunon va Rimdan O'rta asr falsafasigacha, ya'ni, miloddan avvalgi I asrdan milodning XIV - XV asrlarigacha, bir yarim ming yil davomida bir necha xil oqimlar paydo bo'ldi. Bu davr falsafasi ikki xil jarayonga bo'linadi. Birinchisi xristianlikning shakllanib davlat dini va mafkurasiga aylanishi. Ikkinchisi O'rta asrga kelib sivilizatsiyaning ustivor yo'nalishga aylanishi. Turli xil oqimlar Gnostika, apologetika, patristika, realizm, nominalizm va boshqa oqimlar o'sha davr falsafasining butun mazmun va qiyofasini belgilaydi.

**Gnostika.** Bu davr falsafasida o'z o'rniga ega bo'lgan gnostitsizm eramizning 150 yillarida o'zining yuqori ravnaqiga erishadi. Ularning falsafiy ta'limoticha, ularning fikricha Xudo ruh sifatida yovuzlikda mutlaqo sof, inson esa o'z tabiatining ruhiy jihat bilan xudoga moslashgan. Bu masalada gnostitsizm faylasuflari xristianlikni yunon falsafasi bilan birlashtirishga harakat qildilar. 354 yilda Pompey sobori xristianlikni Rim imperiyasining asosiy dini deb e'lon qildi.

**Dualizm** - gnostitsizmning asosiy yo'nalishi, bu oqim tarafdarlari moddiy va ruhiy dunyo o'rtasida mustahkam chegara mavjud, deb ta'kidlaydilar. Ular ta'limotida materiya hamma vaqt yovuzlik timsolidir. Bundan ular Xudo hech qachon moddiy dunyonи yaratishi mumkin emas deb hisoblaydilar. Gnostiklar tomonidan e'lon qilingan darveshlik (aspetizm) O'rta asrlarda monaxchilikning vujudga kelishiga sabab bo'ldi.

**Apologetlar** xristianlik tarixida I va II asrlarda vujudga keldi. "Apologetika" so'zining lug'aviy ma'nosi "himoya qilish" demakdir. Apologetlar hukumatning xristianlikka bo'lgan dushmanligini bartaraf qilishga, Rim davlatining xristianlikni ta'qib qilishi hech qanday oqlashga loyiq emasligini isbotlashga harakat qildilar.

**Patriatika** - so'zi "ota", (padar) so'zidan kelib chiqqan. Bu nom bilan odatda G'arbda episkoplarni ularga hurmat sifatida ataganlar. Sharqda mashhur bo'lgan cherkov otalaridan biri Ioan Zlotoust (347 - 407) edi. Ular 640 tashuvchining da'vatlardan ko'pchiligi avliyo Pavel nomlarining sharxi edi. Uning asarlarida Injilni amaliy qo'llash sof ahloqiy masalalar bilan qorishib ketgan. G'arbda eng yirik cherkov otalaridan biri "Pok" degan unvonga sazovor bo'lgan Avreliy Avgustin (354

- 430) bo'lib, hisoblanadi. U faylasuf va islohiyotchi bo'lgan. U 100 ga yaqin kitob, 500 ta da'vat

va 200 ga yaqin nomlar yozadi. Uning eng katta asaridan biri “Sig‘inish” 401 yilda yozilgan. U mushriklik falsafasini qoralaydi.

Sxolastika - so‘zi yunoncha “shkola” dan (shola) olingen bo‘lib, “o‘qish joyi”, “mактаб” ma’nolarini anglatadi. Podsho saroyida, ya’ni, Buyuk Karl saroyida o‘qituvchilik qilganlarni sxolastlar deb ataydilar. Sxolastikani ma’lum darajada ilohiyotni aqlga moslashtirish, dinni tafakkur yordamida quvvatlashga bo‘lgan intilish deb ham baholash mumkin. O‘sha davrda ilohiyotni muqaddas kitoblar aqidalari asosida emas, balki falsafiy nuqtai nazardan tadqiq qilish taqozo qilinardi. Sxolastikaning maqsadi - E’tiqod aqlga muvofiqmi? - degan savolga javob berish bo‘lgan.

Realizm. Uning yirik vakillaridan biri Angelm Ketterberinskiy (1038 - 1109) dir. U shimoliy Italiyada tug‘ilgan, 1093 yilda Ketterberinsk shahrining arxiyepiskopi etib tayinlanadi.

O‘rta asrlarning asosiy xususiyati shundan iboratki, bu davrda G‘arbiy Ovro‘pada xristian dini asta sekin hukmron dinga aylana bordi. Din bilimning barcha sohalarini, shu jumladan, falsafani ham o‘ziga bo‘ysundirdi. U butun kuchini xristian dinining aqidalari to‘g‘ri ekanligini isbotlashga sarf qilishi lozim edi.

Sxolastik ta’limotni bir yaxlit tizimga keltirgan faylasuf Foma Akvinskiy hisoblanadi. U keyinchalik katolik cherkovining piri, deb rasmiy ravishda e’lon qilingan. Foma Akvinskiy fikricha dunyoning mavjudligi Xudoga bog‘liq, u birinchi sabab hisoblanadi. Foma Akvinskiy xudoning mavjudligini narsalarning mavjudligidan keltirib chiqarishga harakat qiladi. Akvinskiy Arastudan foydalanadi. U materiya shaklga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘lishi mumkin emas. Biroq shakl materiyadan alohida yashashi mumkin. Bu bilan Akvinskiy moddiy narsalar oliv shakl - Xudoga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘lishi mumkin emas - degan g‘oyani isbotlashga harakat qiladi.

Shu dawning sxolastik falsafasida “Universaliylar”, boshqacha aytganda, umumiylikning yakkalikka munosabati masalasi birinchi o‘ringa chiqadi. Bu masalada nominalistlar bilan realistlar o‘rtasida qizg‘in tortishuv ketadi. Realistlar umumiylar tushunchalar (universaliylarni) yakka narsalarga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud emasligini, pirovard natijada, uning Xudo bilan bog‘liq ekanini e’tirof etadilar. Bundan butun borliq ilohiy mohiyatning namoyon bo‘lishidan iborat, degan xulosaga keladi. Ikkinchи savol da Ovro‘pada Uyg‘onish davri falsafiy tafakkuri masalasini yoritishda XIV - XVII asrlar G‘arbiy Ovro‘pada Uyg‘onish davri hisoblanadi. Bu davrda, dastlab Italiyada, so‘ngra Ovro‘padagi boshqa mamlakatlarda feodalizm bag‘rida

kapitalistik ishlab chiqaruvchi kuchlarning rivoji tabiat ilmini, falsafani taraqqiyotiga olib keldi. Bu davrda astronomiya, matematika, mexanika, fizika, jo‘g‘rofiya, fiziologiyasohasida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar yanada kuchaydi. Tabiat bilimning yagona manbai va taraqiyotning asosi bo‘lib qoldi.

Bularning hammasi inson aqlini O‘rta asr sxolastikasidan ozod qilishni, uning e’tiborini tabiiy - ilmiy bilishning muammolariga qaratishni talab qildi. Ana shunday sharoitda O‘rta asr sxolastikasini inkor etuvchi, insonni aql zakovatini ulug‘lovchi falsafiy qarashlar vujudga kela boshladi. Bunday qarashlarning dastlabki ifodasi sifatida Nikolay Kuzanskiyning (1401 - 1461) ta’limotini ko‘rsatish o‘rinlidir. Eng avvalo uning “Borliq” haqidagi ta’limoti diqqatga sazovordir. Sxolastik falsafa “Borliq” deganda Xudoni tushungan bo‘lsa, Kuzanskiy borliqdagi barcha narsani tushungan. “Borliq - bu hamma narsadir” - deydi u. Kuzanskiyning bu fikri o‘z mohiyati bilan panteistik tabiatga ega bo‘lib, diniy sxolastik ta’limotga zid edi.

N. Kuzanskiy ilgari surgan g‘oyalar Nikolay Kopernik va Galileo Galileyning qarashlariga zid ta’sir ko‘rsatdi. Xususan Kuzanskiyning “Bepoyonlik”, “Cheksizlik” haqidagi g‘oyalari N. Kopernik tomonidan gelotsentrik g‘oyani asoslashda katta ahamiyatga ega bo‘ldi. Uning hamma narsaning birligi haqidagi panteistik g‘oyasi Jordano Brunoning panteistik falsafasini keltirib chiqardi.

Shunday qilib Uyg‘onish davrining asosiy xususiyatlari tabiat fanlarining yanada rivojlanishini, falsafaning sxolastikadan voz kechib, tabiatga yaqinlashishi, adabiyot va san’atda insonparvarlik g‘oyalarining kuchayishi bilan belgilanadi.

Nikolay Kopernik (1473 - 1543) polyak olimi. U fanda tub o‘zgarish yasagan Gelotsentrik ta’limoti bilan mashhur bo‘lgan. Uning ta’limoticha inson tomonidan kuzatiladigan quyosh va yulduzlarning harakatlari asosida Yerning o‘z o‘qi atrofida kundalik aylanishini va quyosh atrofida yillik aylanishidan iboratdir. Bizning planetamizning markazi yer emas, quyoshdir. Bu g‘oya tabiatshunoslikda to‘ntarish yasadi.

Jordano Bruno (1548 - 1600) Italiyalik. U Nepal yaqinida tug‘ildi. U o‘zining ilg‘or fikrlari orqali Italiyadan ketishga majbur bo‘ldi. U uzoq vaqt Shveysariya, Fransiya, Angliya va Germaniyada quvg‘inda bo‘ldi. 1592 yilda Bruno Italiyaga qaytib keli. 1600 yil 17 fevralda Rimda Gullar maydonida yoqib o‘ldirildi.

Bruno Gelotsentrik nazariyani himoya qilish bilan cheklanib qolmadı. Bruno ta’limoticha, haqiqiy filosofiya ilmiy tajribaga suyanishi kerak, sxolastikani tugatish kerak, uning ta’limoticha,

koinot yagona, moddiy, cheksiz va abadiy. Juda ko‘p dunyolar bizning quyosh sistemasidan tashqarida mavjuddir. Yer - cheksiz dunyoning kichik bir zarrasi. Demak Bruno tabiiy - ilmiy qarashlarida Kopernikdan ilgarilab ketib, koinotning cheksizligi haqidagi fikrni aytadi. Kopernik esa koinotni chekli deb hisoblagan edi.

**Uchinchi savol** ni yoritishda Ovro‘pada XVII - XIX asrlarda falsafiy oqimlar va maktablar masalasini yoritishda bizga ma’lumki XVII asr oxiri va XVIII asrda birtalay G‘arbiy Ovro‘pa mamlakatlari, xususan Gollandiya, Angliya, Fransiya kapitalistik taraqqiyot yo‘liga o‘tdi. Kapitalistik taraqqiyot tajribaviy bilimlarga ehtiyojni yanada oshirib yubordi. Bu esa moddiy olamdagi narsa va hodisalarini chuqur o‘rganish tabiat qonunlarini bilish zaruriyatini tug‘dirdi. Shunday sharoitda falsafa insonning amaliy hayoti va faoliyati uchun zarur bo‘lgan ob‘ektiv haqiqatni ochib beruvchi fan deb qarala boshladi. Borliq haqiqatni bilishning yangi yo‘llarini yaratish masalasi ko‘ndalang qilib qo‘yildi. Ana shu oliyjanob ishga bel bog‘lagan faylasuf-lardan biri F. Bekon (1561 - 1626) bo‘ldi. U “falsafaning asosiy masalasi bilishning yangi ilmiy uslubini yaratishdir”- deb chiqdi. Bekon fikricha, ilmiy bilishning maqsadi - insoniyatga foyda keltirishdir. Shundagina u o‘z vazifasini oqlaydi. Barcha fanlarning vazifasi insonning tabiat ustidan hukmronligini mumkin qadar ko‘proq ta’minlashdir, deydi mutafakkir.

Bilim - bu kuchdir, degan shior ham Bekonga mansubdir. Bekonning buyuk xizmati, u ilmiy bilishning tajribaga asoslangan slubini ishlab chiqdi. Uning fikricha, fanning xulosalari faqat rad etib bo‘lmaydigan dalillardan kelib chiqishi kerak. Bekon tomonidan qo‘llanilgan Induktiv usul kuzatish, analiz qilish, taqqoslash va eksperimentga asoslanadi. Bekon insonni qurshab turgan moddiy dunyo turli - tumanligini va uni bilish ham cheksizligini qayd etadi.

Agar Bekon ilmiy bilishning tajribaga asoslangan uslubini ishlab chiqib, fanga katta hissa qo‘shgan bo‘lsa, uning zamondoshi, fransuz mutafakkiri **R. Dekart** (1596 - 1650) esa, aksincha ilmiy bilishning deduktiv uslubiga o‘z e’tiborini qaratdi. Dekart dunyonи bilishda birinchi o‘ringa aqlni qo‘yadi. Buni uning “Men fikrlar ekanman, men mavjudman” degan mashhur so‘zları tasdiqlaydi. Dekart fikricha, falsafaning birinchi masalasi - bu ishonchli bilimga olib boradigan uslub masalasidir. Uni ishlab chiqishni Dekart o‘z oldiga vazifa qilib qo‘yadi. Dekartning deduktiv uslubi quyidagilarni talab etadi:

- a) haqiqat deb, faqat aql nuqtai nazaridan aniq, ravshan va shubhasiz bo‘lgan xulosalarni qabul qilish;
- b) har bir murakkab muammolarni tarkibiy qismlarga bo‘lib o‘rganish;

- c) bilish jarayonida ma'lum va isbot qilingandan, noma'lum va isbot qilingancha borish;
- d) tadqiqot mantiqi halqalardan birortasini ham tushirib qoldirmas-likdir.

Dekart bilishning bu uslubini qo'llash farovon hayot uchun kishilarga katta imkoniyatlar yaratib berishiga hech shubha qilmadi. Biroq Dekartning aql kuchiga tayangan bilishning deduktiv uslubi uning “tug‘ma g‘oyalar”ni tan olishga olib keldi. Bu tajriba orqali olingan g‘oyalar emas, balki odam tug‘ilishi bilan uning miyasida oldindan bo‘lgan g‘oyalardir. Bu bilan u ilmiy bilishning deduktiv usuliga rahna solib turadi. Shunga qaramasdan bu ikki olimning bilish nazariyasini rivojlantirishdagi o‘rni beqiyosdir.

Yangi davr falsafasida XVIII asr fransuz mutafakkirlarining qarash-lari alohida diqqatga sazovordir. XVIII asr fransuz falsafasining asosiy vakillari P. Galbox (1793 - 1889), D. Didro (1713 - 1784), K. Gelvitsiy (1715 - 1771), J. Lamatri (1709 - 1751) hisoblanadi. Ularning fikricha hamma narsalar - materiyadir. Materiya mayda molekula va atom zarrachalaridan tashkil topgan. Atomlar esa - materiyaning bir xildagi bo‘linmas mayda zarrachalardan iboratdir. XVIII asr materialislарining yutuqlaridan yana biri, ular harakatni materiyaning ajralmas bulog‘i deb ta’kidlaydi. Biroq ular harakat deganda jismlarning fazodagi o‘rin almashtirishlarini tushungan.

Fransuz faylasuflari bilishda sezgining o‘rnini alohida ko‘rsatadi. Bilish sezishdan iboratdir, sezgining manbai esa ob’ektiv reallikdir, deb ko‘rsatadi. Fransuz faylasuflari bilishda aqlni ham inkor etmaydi. Ularning fikricha tafakkur sezgilarni qo‘sish, yig‘ish, solishtirish qobiliyatidan iboratdir. Ularning fikricha kishi ijtimoiy muhitning mahsuli, ijtimoiy muhit qanday bo‘lsa, kishi ham shunday bo‘ladi, deydilar. Shu bilan ular davlat va jamiyatning kelib chiqishi sababini tabiiy zaruriyat asosida tushuntiradi.

Nemis klassik falsafasining asosiy vakillari I.Kant, I.G.Fixte, F.R.Shelling, G.N. Xegel, va L.F. Feyerbaxlardir. Ular falsafadagi turli oqimlarga mansubdirlar. Falsafiy fikrlar taraqqiyotiga katta hissa qo‘sghan nemis faylasuflaridan I.Kant, G.Xegel, va Feyerbaxlardir.

Nemis klassik falsafasining asoschisi I.Kant (1724 - 1804) dialektika g‘oyalarini qayta tiklagan mutafakkirdir. Kant faqat falsafa emas, umuman fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘sghan mutafakkirdir. Kantning quyosh sistemasi katta gaz tumanliklardan kelib chiqqanligi to‘g‘risidagi gipotezasi hozirgi paytgacha falakiyot fanidagi fundamental ilmiy g‘oyalardan hisoblanadi. Kant o‘zining tabiiy - ilmiy qarashlari bilan tabiatni metofizik tarzida tushunishga chek qo‘ydi.

Kant insonni o‘rab turgan dunyodagi narsalarni ikkiga bo‘ladi:

- o‘z-o‘zicha mavjud bo‘lgan narsalar dunyosi;
- bizning sezgilarimiz aks ettirgan narsalar hodisalardir.

Kant ta’limoticha, biz dunyoni qanday mavjud bo‘lsa, shundayligicha bila olmaymiz, balki uning ifodalishini bilamiz xolos. Kishilar narsa o‘zidan uning mohiyatini bila olmaydi, ular hodisalarnigina biladi. Kant fikricha, hodisalar dunyosi tartibsiz, u hech qonuniyat va zaruriyatga bo‘ysunmaydi. Kishilar bilish jaryonida hodisalar dunyosiga tartib kiritadi, uni ma’lum bir vaqt va makon bilan bog‘lab o‘rganadi. Kantning xizmati dialektik g‘oyalar masalasini ko‘ndalang qilib qo‘ydi.

Nemis klassik falsafasining eng yirik vakillaridan biri Xegeldir. Xegel ta’limoticha, barcha mavjud narsalarning asosida “Mutloq g‘oya” ning (u mutloq ruh deb ham aytiladi) rivoji yotadi. Dastlabki paytda mutloq g‘oya “sof borliq” sifatida mavjud bo‘ladi. Mutloq g‘oya o‘zining butun mazmunini ifoda etmaguncha rivojlanib boraveradi. Mana shu rivojlanish jarayonida mutloq g‘oya tabiatni keltirib chiqaradi va moddiy narsalar tarzida namoyon bo‘ladi. Mutloq g‘oyaning tabattarzida ko‘rinishidan avvl mexanik hodisalarvujudga keladi, keyin kimyoviy birikmalar va nihoyat inson, jamiyat paydo bo‘ladi. Mutloq g‘oyaning bunday harakati to‘xtovsiz davom etadi.

Xegel o‘z falsafiy tizimini (sistemasini) yaratib, mutloq g‘oya o‘zining boy mazmunini moddiy olam - tabiat va jamiyat sifatida ifoda etishini ko‘rsatar ekan, avvalo dunyo uzluksiz taraqqiyotda ekanligini qayd etadi. Ikkinchidan, mutloq g‘oyaning taraqqiyot jarayonini ochib berar ekan, mana shu jarayon qrama - qarshi tomonlarning kurashi orqali sodir bo‘lishini, bunda bir tushuncha ikkinchi tushuncha tomonidan inkor etilishini, o‘tilgan bosqich, ya’ni yuqori darajada takrorlanishini ko‘rsatib beradi. Dialektik tafakkur uslubini va uning asosiy qonunlarini tadqiq etish bilan Xegel falsafiy fikr taraqqiyotiga beباو hissa qo‘shadi.

Nemis klassik falsafasining so‘nggi vakili L. Feyerbax hisoblanadi (1804 - 1872). Feyerbax yo‘nalishi falsafada materialistik yo‘nalishdir. Feyerbax Xegelning mutloq g‘oyasiga keskin qarshi chiqdi. Feyerbax fikricha, Xegel dialektikasi din bilan bog‘liqdir. Feyerbax fikricha, tafakkur insondan tashqarida, unga bog‘liq bo‘lmagan holda mavjud bo‘lishi mumkin emas, chunki u moddiy narsa - inson miya faoliyati bilan bog‘liqdir. Shuning uchun, deydi Feyerbax, - tafakkur, ong ikkilamchidir, materiyaning, tabiatning mahsulidir.

Xegeldan farqli o‘laroq, Feyerbax dunyoning asosida tabiatni va insonni qo‘yadi. Feyerbax ta’limoti antropologik tabiatga ega, ya’ni falsafa insonni, shu jumladan, tabiatni falsafaning birdan

bir universal va oliv predmetiga aylantiradi,- deydi Feyerbax.

Feyerbax insonni tabiatning bir qismi bo‘lishi bilan birga ijtimoiy mavjudot, tarixiy taraqqiyotning mevasi ekanligini, insonning ongi ijtimoiy munosabatlar bilan, hayot sharoiti bilan belgilanishini unutib qo‘yadi. Feyerbaxning eng katta kamchiligi Xegelning idealistik sistemasini tanqid qildi, ammo uning dialektikasidan foydalana olmadi. Lekin shunga qaramay, Feyerbax ta’limoti faylasufning bundan keyingi rivojlanishiga katta ta’sir ko‘rsatdi.

F. Bekon (1561 - 1626)

Falsafaning asosiy masalasi bilishning tajribaga  
asoslangan ilmiy usulini ishlab chiqdi

R. Dekart (1596 - 1650)

Balashning redutiv, ya’ni ratsional  
uslubini ishlab chiqdi

**XVIII asr fransuz mutafakkirlari**

P. Gol’bax (1792 – 1789), D. Didro  
(1713 – 1784), K. Gelvitsiy (1715 – 1771),  
J. Lamatri (1709 - 1751)

**Nemis klassik falsafasining asosiy vakillari**

I. Kant (1724 – 1804), Xegel (1770 – 1831),  
L. Feyerbax (1804 – 1872)

## **Tayanch so‘z va iboralar**

Madaniyat, tajriba, emperik, ratsional, borliq, modda, materiya, bilish, mutloq g‘oya, jamiyat, ijtimoiy borliq, qarama - qarshilik, tabiat.

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. “Bunyodkorlik yo‘lidan” - T., “O‘zbekiston”, 1998 y.
2. Karimov I.A. “Istiqlol va ma’naviyat” - T., “O‘zbekiston”, 1994 y.
3. Karimov I.A. “Ma’naviy yuksalish yo‘lida” - T., “O‘zbekiston”, 1998 y.
4. Antologiya mirovoy filosofii v 4-x tomax. Tom 3. M., 1971 g.
5. Mir filosofii v 2-x tomax. Tom 2. M., 1990 g.
6. Osnova filosofii. T., “O’zbekistan”, 1998 g.
7. Falsafa (ma’ruzalar matni). T., “O‘zbekiston”, 2000 y., 107 - 122 betlar.
8. Falsafa asoslari. T., “O‘zbekiston”, 2005 y., 92 - 115 betlar.
9. Ochilova B. “Ma’naviy meros va taraqqiyot”. T., “Muloqot”, J. № 1 - 2., 2007 y., 44 - 45 betlar.
10. Madayeva Sh. “Sharq allomalari asarlarida demokratik g‘oyalarning aks etishi”. J. Ijtimoiy fikr - inson huquqlari. № 2, 2006 y., 116 - 124 betlar.
11. Karimov S.K. “G‘oyaviy kurash” Samarqand - 2006 y.
12. Erqo‘ziyev. “O‘rta Osiyo halqlarining Yevropa mamlakatlari bilan bo‘lgan savdo yo‘llari faoliyatida yuz bergan ayrim o‘zgarishlarga doir”. J. Ijtimoiy fikr - inson huquqlari. № 1, 2007 y., 115 - 120 betlar.
13. Suyunov S.X. “Mantiq, ahloqshunoslik va estetika” (uslubiy qo‘llanma). Samarqand, 2007 y.
- 14/ “Sirdaryo havzasi: tashvish va tahlika” “O‘zbekiston ovozi” ro‘znomasidan. 2005 y., 3 mart
15. Falsafa asoslari. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2005 y., 125 - 130 betlar.

### **Mavzu №4.Olam va odam falsafiy talqini**

#### **Mavzuning maqsadi**

Olam va fanning paydo bo‘lishi va evolyutsiyasi haqida hozirgi zamon falsafiy

fikrlarning mohiyatini, olam va odamning mavjudligi va yashashi bilan bog‘liq muammolar hamda olam tushunchasi, olamning diniy, ilmiy va falsafiy nuqtai nazardan talqin etishning mohiyati, olamning namoyon bo‘lish shakllari kabi masalalar ni aniq, ravshan hamda manbalarga suyangan holda asoslab berishga qaratilgan.

### **Mavzuning rejasi**

1. Olam va fanning paydo bo‘lishi va evolyutsiyasi haqida hozirgi zamon falsafiy fikrlar.
2. Olam to‘g‘risidagi manistik, dualistik va poralistik qarashlar va ularning ahamiyati.
3. Olam va odam, ularning dunyoviy, diniy va falsafiy yo‘nalishlarni o‘rganishning ahamiyati.

**Birinchi savol.** Ushbu mavzuga oid masalalar olamda odamning mavjud-ligi va yashashi, hayot kechirish faoliyati bilan bog‘liq hamda shakllangan. Olam to‘g‘risidagi qarashlar odamzodning tarixi qancha qadimgi bo‘lsa, shunchalik qadimiydir.

Odamzod yashayotgan shu dunyo o‘zining murakkabligi va muammolari bilan, jozibadorligi, butun go‘zalligi bilan yagona olamni tashkil etadi.

Olam tushunchasi, eng avvalo odam va uning faoliyati kechadigan makонни aks ettiradi. Agar odam bo‘lmaganda edi, mavjud olam to‘g‘risida tasavvurlar ham bo‘lmас edi. Demak, olam odam bilan mazmunlidir. Olam uni tashkil etuvchi narsalar bilan birgalikda namoyon bo‘ladi. Hech narsasi yo‘q olam yo‘qlikdir.

Qadim - qadimdan boshlab odam o‘zini o‘zi anglagach, olamning tarkibiy qismi ekanini tushuna boshlagan. U dastlab, o‘zining hayotini ta’minlovchi tirikchilik vositalarining ahamiyatini tushunib yetadi va ularni avaylab asrash, e’zozlash tuyg‘usi shakllana boshladi.

Shu tufayli olam asosida yotuvchi to‘rt unsurni: havoni, suvni, tuproqni va olovni muqaddaslashtirish singari g‘oyalar vujudga keldi hamda olam to‘g‘risidagi sodda kosmologik qarashlar paydo bo‘lgan. Ba’zi bir qarashlarga binoan odamning tirikchiligini ta’minlovchi narsalarni odam uchun, uning yashashi uchun xudo tomonidan yaratilgan ne’matlar deb biladi.

Falsafiy nuqtai nazardan inson tabiat ne’matlaridan foydalanish bilan birga o‘ziga

qulay sharoit yaratib olishga, tabiat ne'matlariga va ularni ishlab chiqarishga ijodiy yondashganlar. Bu esa odamning olamga moslashishga intilishi natijasidir, ya'ni olamni odam o'z ehtiyojlariga moslashtirishga intilib yashagan.

Olam, eng avvalo tor ma'noda odam yashaydigan joy. Aslida odamzod va hayvonot olami, o'simlik va hashorotlar dunyosi, jismoniy, ruhiy, ma'naviy olam va shu singari boshqa ko'plab tushunchalar bor. Ular dunyoda mavjud bo'lgan narsa va hodisalar nomi bilan ataladi. Masalan, odamning ruhiy olami uning bilimi, tajriba va hayolotini o'z ichiga oluvchi o'ta keng qamrovli tushunchadir. Bunda olam odam yashaydigan joy, degan ma'noga qaraganda kengroq mazmunga ega bo'ladi.

Nimaiki mavjud bo'lsa, ularning hammasi birgalikda siz bilan biz mavjud bo'lgan dunyoni ifodalaydi. Ammo tabiat, jamiyat va inson tafakkuri-ning asosida yotuvchi va ularni birlashtiruvchi shunday bir umumlashtiruvchi tushuncha ham borki, u ob'ektiv olamning mazmunini ifoda etadi. Bunday tushuncha haqidagi tasavvurlar butun fan tarixi mobaynida rivojlanib kelgan. Dastlab, bu umumlashtiruvchi tushuncha narsalarning asosida nima yotdi, degan nuqtai nazardan kelib chiqib, *substansiya* (lotincha, substantia - nimaningdir asosida yotuvchi mohiyat, degan ma'noni beradi) deb ataladi.

**Ikkinchı savol.** Substansiya - muayyan narsalar, hodisalar, voqealar va jarayonlarning xilma - xil ko'rinishlari ichki birligini ifoda etuvchi va ular orqali namoyon bo'luvchi mohiyatdir. Olamning asosida bitta mohiyat - substansiya yotadi, deb hisoblovchi ta'limotni ***manizm*** deb atashadi. Faylasuflar substansiya sifatida biror jismni, hodisani, materiyani, g'oyani yoki ruhni olishgan. Substansiya sifatida moddiy jismlarni, materiyani oluvchilar - ***materialistik monizmni*** tarafdorlari. G'oyani, ruhni oluvchilar esa - ***idealistik monizm*** tarafdorlari hisoblanadi. Shuningdek, olamning asosida ham moddiy jism yoki materiya, ham g'oya yoki ruh yotadi, deb hisoblovchi faylasuflar - ***dualistik*** (dualizm lotincha, duolis - ikkilangan, degan tushun-chani anglatadi) deb hisoblaydi. Arastu, Moniy, R.Dekart va boshqalar dualistlardir.

Olamning asosida ko'p substansiyalar yotadi, deb hisoblovchilarni esa - ***plyuralizm*** (lotincha, pluralis - ko'pchilik so'zidan olingan) tarafdorlari deb atashadi.

Olamning asosida yotuvchi mohiyatni axtarish tarixi ham fanning uzoq o'tmishiga borib taqaladi. Masalan, Qadimgi Hindiston va Xitoyda, Misr va Bobilda, Qadimgi

Markaziy Osiyo va Yunonistonda ba'zi faylasuflar olamning asosida qandaydir modda yoki muayyan unsur yotadi, deb hisoblagan. Ularning ba'zilari bu unsurni olov, boshqalari suv yoki havo, ayrimlar esa tuproqdan iborat, deb hisoblashgan. Ba'zi bir faylasuflar olamning asosida - olov, suv, havo va tuproq yotadi, barcha narsalar ana shu to'rtta unsurning birikishidan hosil bo'lgan, deydi.

**Uchinchi savol.** Olamni anglash to'g'risida turlicha, hatto bir-biriga qarama - qarshi qarashlar mavjud. Bunday qarashlar kishilarning olamga o'z o'lchov-lari bilan qarashlari natijasida paydo bo'lgan. Olamni insonlar o'z bilim o'lchovlari asosida tasavvur etadi. Birov oq desa, ikkinchi odam qora deydi va h.k.

Olam tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, unga sistemali yonlashishni talab etadi. Masalan, elementar zarrachalar olami tushunchasi odamga ma'lum bo'lgan va hali ma'lum bo'lmanan barcha elementlar zarracha-larini qamrab oladi.

Agar biz yashayotgan butun koinotni elementar zarachalardan tashkil topgan, deb hisoblaylik, bu tushuncha butun koinotni ham aks ettirishi mumkin. Yoki o'simliklar olami tushunchasini olaylik. Bu tushunchaga faqatgina o'simliklar kiradi, hayvonlar va odamlar bu olamdan chetda qoladi.

Shu nuqtai nazardan olam tushunchasi nisbiy mohiyatga ega. Ba'zi faylasuflar olam deganda ba'zi narsalarni, jismlarni, hodisalarni qamrab oluvchi universal sistemani tushungan. Bu ma'noda olam kosmologik koinot tushunchasiga mos keladi. Ayrim faylasuflar uni cheksiz, boshqalari esa koinot ma'nosidagi olamni cheklangan ob'ekt sifatida talqin qiladi. Cheksiz va chegarasizlik tushunchalari nisbiy ma'noga ega, bir sistemada cheksiz hisoblangan ob'ekt boshqa sistemada chekli bo'lishi mumkin va aksincha.

Diniy kosmologik qarashlarda olam ilohiy qudrat kuchi bilan yaratilgan, deb talqin etiladi. Bu olamning vaqtida boshlanishi mavjudligi - ya'ni, uning chekli ekanligiga ishonadilar. Islom dinidagi kosmologik qarashlarda o'n sakkiz ming olam haqida gapiriladi va mazkur qarash bo'yicha biz yashayotgan moddiy olamdan tashqari, undan mustaqil ko'plab olamlar mavjudligi haqida gapiriladi va mazkur qarash biz yashayotgan moddiy olamdan tashqari, undan mustaqil bo'lgan ko'plab olamlar mavjuddir deyiladi.

Hozirgi zamon kosmologiyasidan ham fanga asoslangan bir qancha konsepsiyalarda

olam o‘tkinchi, tabiiy ravishda paydo bo‘lgan, degan g‘oya ilgari suriladi. Bu nuqtai nazarga ko‘ra olamning paydo bo‘lishidan oldingi holati “hech nima” va “yo‘qlik” tushunchalari bilan izohlanadi. Angliyalik olim Stiven Loking “Olam vujudga kelmasdan oldin nima bo‘lgan?” - degan savol-ning mantiqsizligini vaqtning faqatgina kelajakka yo‘nalgan oqimini ifodalovchi modeli vositasida asoslashga harakat qiladi. Uning fikricha, bu shimoliy qutb nuqtasidan turib qaraganda, hamma nuqtalar faqat janubga olib boradigan holatni eslatadi. Bunday holat olamning boshlang‘ich holati-dir. Vaqtning kelajakka olib boruvchi yo‘nalishlarini mavjud bo‘lgan holati olamning boshlanishidir. Bu holatda o‘tmish yo‘q, faqat kelajak mavjud.

Olam haqida diniy tasavvurlar uning kelajagi, yaratilishi yoki o‘tmishiga oid murakkab masalalarini, asosan, ilohiy qudratning hosilasi sifatida talqin etadi. Dinda olamni “bu dunyo - o‘tkinchi olam va narigi dunyo - abadiy olam” ga ajratib tushuntiriladi.

Fan olam to‘g‘risida o‘ziga xos fikr yuritadi. Unda olamga oid murakkab masalalarini amaliy tajribalardan kelib chiquvchi mantiqiy dalillar asosida isbotlashga harakat qiladi.

Falsafa olamni izohlashda fanning, dinning, san’at va adabiyotning, xullas fan bilan birgalikda boshqa xilma - xil bilimlarga tayanib, umumlash-gan xulosalar chiqaradi. Demak, falsafadagi olam tushunchasi kosmologiyadagi, dindagi va boshqa bilim sohalaridagi olam tushunchasisha nisbatan boy va sermazmunroq, kengroqdir.

Olamning namoyon bo‘lishi shakllari ham xilma - xildir. Faqat moddiy jism-larnigina o‘ziga qamrab oluvchi olamni **moddiy olam** deyiladi. Odamning ma’naviy, ruhiy dunyosini qamrab oluvchi olamni **ma’naviy olam** deyiladi. Ayni shu paytda biz bilan birgalikda mavjud bo‘lgan olam **aktual olam** deyiladi. Kelajakda mavjud bo‘lish imkoniyati bor va bo‘lishi mumkin bo‘lgan olam **potensial olam** deyiladi.

Masalan, talabaning bugungi talabalik kunidagi faoliyati aktual olamga mansub bo‘lsa, kelajakda mutaxassis bo‘lib yetishishi esa potensial olamga mansubdir.


Olamning mavjudligi shubhasiz bo‘lgan va barcha e’tirof etadigan qismi **real olam** deyiladi. Kelajakda mavjud bo‘lishi ehtimoli bo‘lga olam **virtual olam** deb ataladi (lotincha virtualis - ehtimoldagi, degan ma’noni bildiradi). Aniq ma’lum bo‘lgan olam **konkret olam** deyiladi, hayoldagi, tasavvurdagi, idealdagi olam obrazi **abstrakt olam**

deyiladi.

Odamning kundalik hayotidagi hammaga ma'lum bo'lgan, tan olingan hayoti real olamga mansub bo'lsa, uning hayoti, rejalar virtual olamga, uning o'zi va atrofidagilar konkret olamga, kelajakka yo'nalgan orzu-umidlari esa abstrakt olamga mansubdir. Odam o'z rejalarini real olamga asoslanib tuzsa, potensial olamning konkret reallikka aylanish ehtimolligi oshadi.

Odam hayotda yakka bo'lib yashamasdan balki ijtimoiy hayot kechiradi va jamoa bo'lib yashaydi. Odamlar jamoasi jamiyatni tashkil etadi. Odamning jamiyatdagi boshqalar bilan birgalikdagi ijtimoiy faoliyati, ularning har biriga xos bo'lgan takrorlanmas individual olamlariga bog'liqdir. Indivi-dual olam ayni paytda tashqi olamni ham, ijtimoiy olamni ham aks ettiradi, o'zida ifodalaydi.

Xulosa qilib aytganda, olam haqidagi xilma - xil fikr va tasavvurlar mavjudlikning eng umumiylarsini shakllanishiga asos bo'lib keldi. Bunday tushuncha borliq haqidagi tushunchani falsafiy nuqtai nazardan tushunishga asos bo'lib keldi



### Tayanch so'z va iboralar

Olam, odam, substansiya, materiya, g'oya, materialistik monizm, idealistik

monizm, dualizm, kosmologik, moddiy olam, ma’naviy olam, aktual olam, potensial olam, virtual olam, ijtimoiy olam, individual olam, abstrakt olam.

### **Adabiyotlar.**

1. Karimov I.A. “Tarixiy xotirasi kelajak yo‘q”. T., “Sharq”, 1998.
2. Karimov I.A. “Donishmand halqimning mustahkam irodasiga ishonaman”. “Fidokor” gazetasi muxbiri savollariga berilgan javoblar. “Fidokor” gazetasi, 2000 yil 8-iyun.
3. Karimov I.A. “Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo‘lidan yanada izchil harakat qilish, halqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish - asosiy vazifamizdir”. “Ishonch” gazetasi, 2007 yil 13-fevral.
4. Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan-ligining 15 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. “Halq so‘zi” gazetasi, 2007 yil 8-dekabr.
5. “Falsafa”. E.Yu.Yusupov tahriri ostida. “Sharq nashriyoti”, Toshkent, 1999 y., 162-178 betlar.
6. “Falsafa”. Ma’ruzalar matni. Toshkent, 2000 y., 144-149 betlar.
7. “Falsafa asoslari”. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2005 y., 125-129 betlar.
8. Karimov S. K., Suyunov S. X. “Tarbiya tayanchi” Samarqand, 2007y., 3 - 21 betlar.
9. Rajabova M. “Muhimi javobgarlik muqarrar” “Ishonch gazetasi”, 2007 yil, 8- dekabr.
10. Norboyev T. “Fuqarolik jamiyati - huquqlar kafolati”. “Muloqot” jurnali, 2006 yil № 2, 2-4 betlar.
11. Baratova N. “Komil inson ahloqi”. “Muloqot” jurnali, 2006 yil №1-2 son, 5-8 betlar.
12. Doniyorov B., Ismatova N. “Inson, uning qadr-qimmati, haq-huquqi muqaddas sanalgan yurt”. “Ma’naviyat” va “Ma’rifat” gazetalari, 2007 yil 12 dekabr.

### **Mavzu №5. Borliq falsafasi.**

Mavzuning maqsadi

Ushbu mavzuda borliq kategoriyasining mohiyati hamda borliq haqida Antik davr falsafasi,

jumladan, Suqrot, Demokrit ta’limotlari va Markaziy Osiyo falsafasida borliq muammosi haqidagi fikrlar. Shu bilan birga borliq haqida ob’ektiv va sub’ektiv reallik hamda borliqning atributlarinima, materiya va uning xossalari, harakat, harakatning makon va zamonda mavjudlik shakllari kabi masalalarni nazariy jihatdan talabalarga asoslab berishdan iborat.

### **Mavzuning rejasi**

1. Borliq muammosining falsafiy mazmuni. Borliq kategoriyasi.
2. Borliqning asosiy shakllari.
3. Materiya harakat, makon va zamon tushunchalarining talqini.

***Birinchi savol.*** Borliq muammosining falsafiy mazmuni va borliq kategoriyasini yoritishda falsafada borliq muammosi falsafaning asosiy masalalaridan biri bo‘lib, qadim zamondan buyon kishilar o‘zlarini o‘rab turgan tabiat va jamiyat, inson haqida fikrlay boshlagan. Shular asosida kishilarda mavjudlik va yo‘qlik haqida qarashlar paydo bo‘la boshlagan. Shu bilan birga kishilar o‘zlarining ham dunyoga kelishi, yashashi va nihoyat yo‘qlikka aylanishi kabi jarayonlarni kuzatganlar. Shular asosida keyinchalik dinlarda “bu dunyo” va “u dunyo”(narigi dunyo) degan tushunchalar paydo bo‘lgan.

Dunyoning mavjudligi, ya’ni, borligi to‘g‘risida bahs yuritgan faylasuflar bu masalaga turlicha yondashib, ularning ba’zilari, “dunyo avval ham mavjud bo‘lgan, hozir ham mavjud, bundan keyin ham mavjud bo‘ladi” deyishsa, boshqalari “dunyo avval mavjud bo‘lmagan, u Xudo yoki ruh tomonidan yaratilgan. Dunyodagi hamma narsalar, xususan inson ham Xudo yoki ruh tomonidan yaratilgan” deyishgan. Uchinchi xil mutafakkirlar esa “dunyo yaratilishiga faqat Xudo sababchi bo‘lgan, u shundan buyon o‘zi mavjud, o‘zi rivojlanadi” degan qarashlarni ilgari surilishiga sababchi bo‘lgan deyiladi.

Aslida borliq muammosining falsafiy tahlili shuni ko‘rsatadiki, dunyo bir butun, abadiy mavjud, lekin uni tashkil etgan narsalar o‘z mavjudligi jihatidan har xil o‘tkinchi ekanligini misollar bilan asoslash lozim.

Shuni aytish kerakki, borliq tushunchasi bunda moddiylikdan tashqari ma’naviylikni ham o‘z ichiga oladi. Demak borliq keng ma’noda eng umumiyl tushuncha sifatida bir butun dunyo va undagi narsa va hodisalardan tortib, inson hayoti, ongli va ongsiz faoliyatlar va ong mahsulotlari, ma’naviy - ruhiy hodisalar ham borliq tushunchasi tarkibiga kirishligiga e’tiborni qaratish lozim.

Demak, borliq keng ma'noda eng umumiy tushuncha sifatida bir butun dunyo va undagi narsa va hodisalardan tortib inson hayoti, ongi, kishilar faoliyatining barcha ob'ektiv va sub'ektiv sharoitlari, katta jamiyatda sodir bo'ladigan butun jarayonlardan iborat hamma reallikni o'z ichiga oladi.

Falsafada borliq kategoriyasi alohida ahamiyatga ega bo'lib, falsafada borliq kategoriyasi dunyo, tabiat, inson, jamiyat, inson ongi, uning individuallashgan va moddiylashgan ko'rinishlarini shunchaki mavjudligi emas, balki ulardagi umumiy harakterga ega bo'lган reallikka xos eng umumiy aloqadorlikni ifodalashga e'tiborni qaratish lozim.

***Ikkinci savol.*** Borliq shakllari. Borliq o'zining mavjudlik shaklla-riga ko'ra xilma - xildir. bizni qurshab turgan yaxlit, bir butun dunyo eng umumiy borliq bo'lib, u kundan - kun real mavjud narsalardir. Ushbu narsa va hodisalarning ham biri o'ziga xos, boshqalarida mavjud bo'lмаган томонлар, xususiyatlarga ham ega. Inson o'z faoliyatida ularni bilish jarayonida borliqning bu turli ko'rinishlaridan kelib chiqib, umumiylashtirishga, guruhlash-tirishga, muayyan yaxlit tizimlarga birlashtirishga kirishadi. Dunyodagi barcha narsa va hodisalar ular borligining ko'rinishlariga ko'ra, turli shakllarga birlashtirish kishilarning kundalik hayotidagi oddiy jarayonlardir. Insonlar amaliy faoliyatlarida borliqning turli shakllari o'rtasidagi umumiylilik va farqlarga albatta e'tibor beradilar. Borliq shakllarini bilishda ularni farqlash, ajratish, kishilarning amaliy faoliyatida dunyoni tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun falsafiy muammolarni o'рганиш borliq kategoriyasining mazmunini o'рганишдан, borliqning asosiy shakllarini tahlil qilishdan boshlanadi.

Borliq shakllarini bir-biridan farq qiluvchi va ayni vaqtida bir-biri bilan o'zaro aloqadorlikda bo'lган quyidagi turlarga ajratish mumkin:

- a) insondan, uning ongidan tashqarida ob'ektiv reallik sifatida mavjud bo'lган narsalar, hodisalar, jarayonlardan iborat moddiy borliq;
- b) faqat inson, uning ongi bilan bog'liq sub'ektiv reallik sifatida mavjud bo'lган fikrlar, г'оялар, qarashlar tizimidagi ma'naviy borliq.

Shuni aytish kerakki, borliqning bu turlari o'rtasidagi farq nisbiy, chunki ular bir-birlariga o'tib turishi mumkin. Shu bilan birga ularning har biri o'z navbatida yana bir qancha shakllar va ko'rinishlarga bo'linishi mumkin.

Insonni qurshab turgan tabiat, tabiatni tashkil qilgan turli narsa va hodisalar, barcha noorganik va organik moddalar olami, o'simlik va hayvonot dunyosi, insoniyat kishilarning o'zi va ularning

o‘zaro ijtimoiy munosabat-laridan tashkil topgan jamiyat - bularning barchasi moddiy borliq ko‘rinishlaridir.

Shunga ko‘ra moddiy borliqni quyidagi konkret turlarga ajratish mumkin:

1. Tabiiy borliq yoki tabiat borligi;
2. Insoniy borliq yoki inson borligi;
3. Ijtimoiy borliq yoki jamiyat moddiy borligi.

Moddiy borliqning bu turlarining har biri o‘z tabiatlari jihatidan yana bir necha ko‘rinishlarga bo‘linadi.

Ma’naviy borliq inson ongi bilan bog‘liq barcha ma’naviy hodisalar: fikrlar, g‘oyalar, qarashlar, ijtimoiy ong shakllari, inson va jamiyatning bir butun ma’naviy - madaniy hayotdir.

a) Tabiiy borliq va uning ko‘rinishlari

1. Tabiatdagi narsa va hodisalarning, jism va jarayolarning asl tabiiy borligi.
2. Tabiatdagi narsa va hodisalar asosida inson tomonidan yaratilgan narsalarning tabiiy borligi.

b) Inson borligi. Inson borligi alohida kishi borligi va butun insoniyat borligi ko‘rinishlarida mavjud bo‘lishi jihatidan o‘ziga xosdir. Biroq bu inson borligida tabiat va jamiyatdagi hamma narsalar uchun umumiy bo‘lgan tomonlar, xususiyatlar ham mavjud. Bu jihatdan inson borligi o‘z tabiati va mohiyatiga ko‘ra eng murakkab borliq shaklidir, u hamma borliq shakllarining ma’lum tomonlarining dialektik borligini namoyon etadi.

Inson eng avvalo boshqa jonzotlardan has qiluvchi va fikrlovchi jonli tanaga ega bo‘lgan alohida real tabiiy individ sifatida mavjud ekanligiga alohida e’tibor qaratish lozim.

c) Ma’naviy borliq. Ma’naviy borliq aslida inson borligining bir ko‘rinishi bo‘lib, u individ va ijtimoiy ong jarayonligini o‘z ichiga oluvchi ma’naviylik, ma’naviy qadriyatlar, ma’naviy boyliklardin iborat. Ma’naviylik inson va insoniyatning nodir fazilati bo‘lib, u inson ruhiyati bilan chambarchas bog‘liqdir. Ma’naviylik - bu ko‘p qirrali ong va ongsizlik jarayonlarini o‘z ichiga oluvchi insonning kundalik hayot tajribalari, uning tabiat va jamiyat bilan bo‘lgan munosabatlarda hosil qilingan malakalari, ko‘nikmalari, uning shaxs sifatida shakllanishi davomida egallagan ahloqiy, siyosiy, huquqiy, falsafiy, diniy qarashlari, badiy, texnik fikrlari yig‘indisi hisoblanishiga alohida e’tiborni qaratish kerak.

d) Ijtimoiy borliq. Ijtimoiy borliq ham borliqning shakllaridan biri bo‘lib, ijtimoiy borliq deyilganda, individual akka shaxs va jamiyat hayotining hamma

tomonlari emas, balki ularning faqat moddiy hayoti tushuniladi.

Ijtimoiy borliq jamiyatning moddiy ishlab chiqarish munosabat-larining umumiy yig‘indisiga alohida ahamiyat kasb etadi.

***Uchinchi savol.*** Materiya, harakat hamda makon va zamon tushunchalarining talqini. Ushbu savolni yoritishda Substansiya (lotincha - substansiya, mohiyat, ya’ni narsalarning mohiyati) deyilganda falsafada dastlabki vaqtarda borliq, tabiat, jamiyat, inson va bir butun dunyodagi barsa narsa hodisalarning asosini tashkil etadigan moddiy yoki ruhiy birlamchi narsa tushunilgan “Materiya”, “Moddiy unsir” ga nisbatan ham, “Atomlar” ga nisbatan ham, “Pramateriya” ga nisbatan ham kengroq, umumiyoq bo‘lib, borliqning ob’ektiv real shaklni ifodalovchi, eng umumiy tushunchadir.

Haqiqatan ham, materiya - bu tushuncha, obstraksiya, fikrning mahsulidir, chunki olamda “umumiy materiya” uchramaydi, balki materiyaning konkret ko‘rinishlari uchraydi. Umuman, hamma vaqt materiya konkret ob’ektlar ko‘rinishida uchraydi. Shunday qilib, faylasuflar barcha moddiy ob’ektlarga xos xususiyatlarni umumiy tarzida ifodalash uchun qo‘llaydigan tushuncha bu - “Materiya” dir.

Materiyaning falsafiy uchta muhim jihat mavjud. Bular, birinchidan, materiya tushunchasi falsafiy kategoriya ekanligi, ikkinchidan, bu kategoriya ob’ektiv reallikni, moddiy voqealarni ifoda etishi, uchinchidan, materiya bilish mumkinligining ta’kidlanishidir.

Materiya o‘zining mavjudligini behisob hodisalari, xususiyatlari orqali namoyish qiladi. Turli xil fanlar bu xususiyatlarni tadqiq etadi. Tabiatshunoslik va aniq fanlar materiyaning u yoki bu konkret xususiyatini, o‘zlarining tadqiqot ob’ektlari doirasiga kiruvchi xossalariinigina o‘rganadi. Materiyaning eng umumiy xossa va xususiyatlarini falsafa fani o‘rganadi. Materiyani inson tomonidan bilish uning muayyan xususiyatlarini o‘rganishdan boshlanadi.

Bizni xilma - xil ko‘rinishdagi, shakldagi, turli tuman xossalari moddiy ob’ektlar - hodisalar o‘rab olgan. Ular tuli xil xususiyatlarga ega va turli tarzda tuzilgandir.

Fanning bergan ma’lumotiga ko‘ra, atrofimizdagi har qanday jism molekulalardan tashkil topgan, molekulalar esa atomlardan tashkil topgan. Atomlar murakkab shakldagi o‘zak neytron, pozitron, ya’ni, yadro va elektron qobiqlardan tashkik topgan.

### **Materiya ikki xil shakliy ko‘rinishda uchraydi.**

1. Moddiy;
2. Nomoddiy.

## **Materiya tuzilishi darajasini ikkiga bo‘lish mumkin:**

1. Miqyosli struktura darajasi;
2. Tashkiliy struktura darajasi.

## **Materiya masshtab o‘lchovli, miqyosi bilan farq qiluvchi uchta darajaga bo‘linadi.**


1. Mikrodunyo;
2. Makrodunyo;
3. Megadunyo.

Bu uchala dunyo bir - biri bilan o‘zaro bog‘langan.


## **Harakat shakllari:**

1. Mexanik harakat (jismlarning fazodagi siljishi);
2. Fizik harakat (issiqlik, yorug‘lik, elektr, magnetizm);
3. Biologik harakat (organik hayot)”
4. Ijtimoiy harakat


Harakat fazo va vaqt bilan chambaras bog‘liq



## **Materiya masshtab o'lchovli, miqyosi bilan farq qiluvchi uchta darajada bo'linadi**



## **Materianing harakat shakllari**



## **Tayanch so‘z va iboralar**

Borliq, tabiat, jamiyat, kategoriya, tabiiy borliq, inson borligi, ijtimoiy borliq, birlamchi tabiat, ikkilamchi tabiat, substansiya, pluralizm, modda, nomodda, materiya, harakat, makon, vaqt.

## **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” T., “Sharq”, 1998 y.
2. Karimov I. A. “Donishmand halqimning irodasiga ishonaman”. “Fidokor” gazetasi muxbir savollariga bergen javoblari. “Fidokor”, 2000 yil 9-iyun.
3. Kanpe V.V. “Filosofiya” M., “Logos”, 1999 g.
4. Yusupov tahriri ostida “Falsafa”. T., “Sharq”, 1999 y., 162 - 178 betlar.
5. Nazarov K. tahriri ostida “Falsafa”. Ma’ruzalar to‘plami. T., 2000 y., 144 -

150 betlar.

6. Tulenov J., Tadmurov Z. “Falsafa”. T., “O‘qituvchi”, 1997 y., 145-155 betlar.
7. Karimov B. “Tabiat va o‘zimizni asrash falsafasi”. Muloqot. 2000 y., 6-sentyabr, 28 - 30 betlar.
8. Shermuhammedov S. “Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot”. Toshkent, 2005 y., 3 - 45 betlar.
9. Suyunov S. “Mantiq, ahloqshunoslik va estetika” Uslubiy qo‘llanma. Samarqand - 2007, 3 - 25 betlar.
10. Ochilov N. “Xotira beqiyosdir, qadr muqaddas”. “Fidokor” gazetasi. 2007 y. 10 - may.
  11. “Milliy o‘zlikni anglash siyosati”. “Muloqot” jurnali. 2006 y. № 6. 2-4 betlar.
12. Eshonqulov. “Fikrlash - mayjudlik alomati”. “Muloqot” jurnali. 2004 y. № 5, 11 - 19 betlar.
13. “Falsafa asoslari”. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2005 y., 125 - 130 betlar.
14. Quvvatov N. “O‘tmish davri: Iqtisodiy tafakkur islohoti” “Muloqot” jurnali. 2007 y. № 1-2 son, 20 - 22 betlar.

### **Mavzu №6. Tabiat falsafasi.**

Mavzuning maqsadi.

Ushbu mavzuning maqsadi tabiat va uning tuzilishi, tabiat tushunchasi, organik va anorganik moddalar, ularning bir- biriga bog‘liqligi, makrodunyo va mikrodunyo, ularning o‘rtasidagi bog‘liqlik, o‘ziga xoslik, tirik tabiat dunyosi, ijtimoiy dunyo, ularning bir - biriga bog‘liqligi hamda tabiatning umumbashariy taraqqiyoti doirasida yerdagi hayot va biosotsial evolyutsiyaning o‘ziga xosligi kabi masalalar hamda ekologik muammoning vujudga kelishi sabablari va ularni hal qilish muammolari, O‘zekistonda tabiatni asrab - avaylash va ekologik muammolarni hal qilish yo‘llari haqidagi masalalarni nazariy va amaliy jihatdan har taraflama yoritishga qaratilgan.

### **Mavzuning rejasi**

1. Tabiat ob’ektlarining tuzilishi va rivojlanishi.
2. Tabiat va uning borligi darajalari.
3. Yerdagi hayot, biosotsial evolyutsiya va tabiatni falsafiy tushunishning ahamiyati.

**Birinchi savol.** Tabiat ob’ektlarining tuzilishi masalasi murakkab masala bo‘lib, tabiat va

jamiyat haqidagi konkret fanlar borliqning o‘z predmetlariga mos keluvchi muayyan xususiyatlarnigina o‘rganadi. Borliqning umumiyligi xossalari haqida esa falsafa fani tadqiqot olib boradi.

Bizning tevarak atrofimizni xilma - xil ko‘rinishdagi turli - tuman moddiy ob’ektlar o‘rab olgan. Ular turli xil xossa va xususiyatlarga egadir. Asrlar mobaynida hamma jismlar materiyaning bo‘linmas shakli atomlardan tashkil topgan degan tasavvur hukmron edi. Atomlarning murakkab tuzilganligi haqidagi farazlar XIX asr oxiri va XX asr boshlariga kelib uzil - kesil tasdiqlandi.

Hozirgi zamon fanining bergen ma’lumoticha, atrofimizdagi har qanday jism molekulalardan tashkil topgan, molekulalar esa atomlardan tuzilgan. Atomlar murakkab tuzilgan yadro va elektron qobiqlardan iborat. Atomning elektron qavatlari bir - biridan va atom yadrosidan muayyan uzoqlikda joylashgan bo‘ladi. Eng sodda atom hisoblanuvchi vodorod atomining yadrosi bitta protondan, murakkabroq atomlarning yadrosi esa proton va neytronlar-dan tashkil topadi va h.k.

Organik va anorganik moddalar molekula tuzilishi bilan bir - biridan farq qiladi. Jonli organizmlar organik moddalardan tashkil topgan bo‘ladi. Jonli organizmlarning tarkibi asosan hujayralar va hujayra sistemalari-dan iborat. Yer shari atrofini qurshab turuvchi biosferani bir butun jonli sistema deb atash mumkin. Mikroorganizmlar, o‘simlik dunyosi, hayvonot dunyosi va insonning o‘zaro aloqadorliklari bu biosferaning mavjudligini ta’minlab turadi.

Yer shari o‘z atrofida harakatlanuvchi Oy bilan birga yilda bir marta Quyosh atrofini aylanib chiqadi. Bu sistema ham biosferaga o‘z ta’sirini o‘tkazadi. Yer yuzida mintaqalarning farq qilishi, fasllarning almashinushi ana shu sistema harakati bilan bog‘liqdir. Quyosh va uning atrofida harakatla-nuvchi sayyoralar, ularning yo‘ldoshlari, asteroidlar, kometalar va kichik planetalar birgalikda Quyosh sistemasini tashkil qiladi.

Quyoshdan eng uzoq joylashgan planeta Pluton uning atrofini 247,5 yilda bir marta to‘liq aylanib chiqadi, ya’ni Yer yili - 356,25 kunga teng bo‘lsa, Pluton yili 247,5 ta Yer yiliga tengdir.

Quyosh sistemasi millionlab yulduzlarni o‘z ichiga oluvchi Galaktika (Somon yo‘li) tarkibiga kiradi. Uning diametri 94,6 mln. yorug‘lik yiliga teng. Undan keyingi sistema galaktikalar tupi bo‘lib, uning diametri 1 megaparsekka teng, u 30 tagacha galaktikani o‘z ichiga oladi (1 parsek 3,26 yo.y.). Keyingi sistemaga galaktikalarning mahalliy tupi, unga 2 ta giper galaktika va 27 ta mitti galaktikalar kiradi. Majmuada 500 tagacha galaktika bo‘ladi, uning diametri 5 megaparsek. Galaktikalar majmuasi galaktikalarning o‘ta majmuasiga birlashadi, uning diametri 40 megaparsek bo‘lib, o‘zida 10 mingdan ziyod galaktikani birlashtiradi. O‘ta yirik majmular koinotning boshqa

strukturaviy birliklariga kiradi. Koinotning radiusi esa 15 - 20 mlrd. yorug'lik yiliga tengdir.

Bu sistemalarni umumlashtirib, borliqning moddiy ko'rinishlarini turli xil struktura darajasiga ajratish mumkin.

Sifati jihatidan materiya ikki xil shakda, ko'rinishda uchraydi: moddasimon, nomodda ko'rinishda.

Materianing moddasimon ko'rinishdagi shakllari ikkiga, modda va antimoddalarga ajraladi. Bular bir - biri bilan chambarchas bog'langan bo'lib, ular to'qnashganda keskin sifati o'zgarish ro'y beradi, ya'ni moddaning moddaviy ko'rinishi nomoddaviy ko'rinishga aylanadi.

Materianing nomoddiy ko'rinishi ham ikki xil shaklda namoyon bo'ladi: maydon va nurlanish.

Muayyan maydondagi nurlanishlar fizik vakuumda (fizik vakuum - bu fizik jismlardan xoli bo'lgan joy) moddiy zarrachalarning hosil bo'lishiga yordam beradi. Xullas, bular ham bir - biri bilan chambarchas bog'liqdiryu Materianing biz yuqorida qayd etgan ko'rinishlaridan boshqa ko'rinishlari bo'lishi ham mumkin. Agar biz borliqning moddiy ko'rinishlarini tuzilishi jihatidan turkumlashtirsak, borliqning struktura darajalari haqidagi xulosa hosil bo'ladi.

**Ikkinci savol.** Tabiat va uning borligi darajalariga kelganimizda, biz tevarak- atrofimizga nazar tashlasak, umumiylar bo'lib emas, balki muayyan jismlarga, narsa va hodisalarga ko'zimiz tushadi. Biz o'zimizga mos keluvchi o'lchovlardagi kattaliklarni mikroskopik kattaliklar, deb hisoblaymiz va bu makrodunyoni tashkil qiladi.

Shu nuqtai nazardan borliqning struktura darajalarini miqyosiy struktura va tashkiliy struktura darajalariga ajratamiz. Borliqdagi ob'ekt-lar miqyosi farq qiluvchi uchta miqyosiy struktura darajalariga ajratiladi. Ular: mikrodunyo, makrodunyo, megadunyo.

Mikrodunyo - atom miqyosidan kichik bo'lgan dunyodir. Bu dunyoga atom strukturasi va elementar zarrachalar, atom yadrosi, kvarklar, kernlar kiradi. Bu dunyoning yaxlitligi va turg'unligini saqlab turuvchi ikkita fundamental kuch mavjuddir, ular kuchli va kuchsiz yadroviy o'zaro ta'sirlaridir.

Kuchli o'zaro ta'sirlar atomlar yadrosining strukturaviy yaxlitligini saqlab tursa, kuchsiz o'zaro ta'sirlar atom strukturasining yaxlitligini ta'minlaydi. Molekulalar tuzilishidan tortib, Yer sharining yaxlitligini saqlashgacha xizmat qiluvchi kuch elektromagnit o'zaro ta'sirlaridir.

Elektromagnit o'zaro ta'sirlari tufayli molekulali birikmalar va Yerdagi barcha hayotiy jarayonlar o'zining strukturaviy birliklarini saqlaydi. Agar elektromagnit o'zaro ta'sirlari

bo‘lma ganda edi, Quyosh nurlari (ya’ni, elektromagnit nurlanishlar) Yerga yetib va Yerda hayotiy jarayonlar shakllantir-magan bo‘lar edi.

Yer, uning tabiiy yo‘ldoshi Oy va boshqa sayyoralar Quyosh atrofida harakatlanadi. Bu sistemaning va umuman butun Koinotning strukturaviy yaxlitligi esa gravitatsion o‘zaro ta’sirlari tufayli saqlanadi. Gravitatsion o‘zaro ta’sirlari biriktirib turgan dunyo megadunyo deb ataladi.

Ular bir - biri bilan chambarchas bog‘langanlar, shuningdek, ular bir - biriga almashinishi ham mumkin. Shuningdek, biz mikroob’ekt deb hisoblayot-gan elementar zarracha neytron o‘zining ichida milliardlab yulduz va galaktika-larga ega bo‘lgan butun boshi Koinot bo‘lishi va aksincha, diametri bir necha milliard yorug‘lik yiliga teng bo‘lgan Koinotimiz ham chetdan kuzatayotgan kishiga o‘ta kichik elementar zarracha hisoblanishi ham mumkin. Borliqning strukturaviy tuzilishini uning sifati rivojlanishi nuqtai nazaridan qarasak, moddiy olam bu holda ham uchta darajaga ajraladi. Uning tashkiliy struktura darajalarini: anorganik dunyo (notirik tabiat), organik dunyo (tirik tabiat) va ijtimoiy dunyo (jamiyat) ga ajratiladi.

Anorganik tabiat yoki notirik tabiat da fizikaviy va ximiyaviy aloqa-dorliklar hukmronlik qiladi, shu tufayli notirik tabiatdagi qonuniyatlar shu tabiat fanlari doirasida cheklangan bo‘lib, tirik dunyoga nisbatan passiv va tashkiliy uyushganligi past darajada bo‘ladi.

Tirik tabiatda yoki organik dunyo da esa biologik aloqadorliklar ham qatnashganligi sababli uning uyushganlik darajasi yuqoriqoq, faolroq va murakkabroq tuzilgan bo‘ladi.

Ijtimoiy dunyo darajasida esa yuqorida aytilgan aloqadorliklardan tashqari, jamiyatga xos bo‘lgan ijtimoiy aloqadorliklar ham ishtirok etadi. Bunday dunyoning tuzilishi nihoyatda murakkab bo‘lib, bu darajada o‘zining o‘ta uyushganligini nisbiy mustaqilligini va yuqori darajada faolligini namoyish qiladi. Bu dunyoning strukturaviy elementi bunga ham bir inson jamiyatga xos bo‘lgan barcha aloqadorliklarni o‘zida aks ettiradi va ijtimoiy munosabatlarda, aloqadorliklarda ong利 ravishda, maqsadga binoan, muayyan mo‘ljallarni oldindan belgilagan holda harakat qiladi.

Inson tomonidan nom qo‘yilgan dunyolar hech qachon bir - biridan ajralib, alohida holda mavjud bo‘lмаган. Ularham bir - biri bilan uzviy aloqadorlikda bo‘ladi va ularning biri ikkinchisidan kelib chiqadi.

Anorganik dunyoda in’ikosining eng sodda va quiy shakli mexanik in’ikos faoliyat ko‘rsatsa, organik dunyoda unga nisbatan murakkabroq ko‘rinishdagi biologik in’ikos namoyon bo‘ladi. Bunday in’ikosning o‘ziga xos bo‘lgan tomoni tanlovchanlik, seskanuvchanlik va maqsadga muvofiq harakat qlishidir. Jamiyatda esa, in’ikosning eng oliy shakli sotsial in’ikos faoliyat ko‘rsatadi. Bu

in'ikos o'zida in'ikosning boshqa shakllarini ham qamrab olgan bo'ladi. Ongli va yuqori darajada uyushgan faol in'ikos, aloqadorlik, qat'iy harakatlar ijtimoiy dunyoga xosdir.

Borliq shakli struktura darajalarining balki biz ham bilmaydigan yanada murakkabroq turlari ham bo'lishi mumkin. Lekin ular hali bizning tushunchalarimiz doirasiga sig'maydi.

Xulosa qilib aytganda, borliqning tashkiliy struktura darajalari bir-biridan aloqadorliklarining soni va sifati jihatidan, energiya va informatsiya almashish xususiyati bilan, faolligi va uyushganligi darajasi bilan farq qiladi.

**Uchinchi savol.** Borliqning eng murakkab shakllaridan biri hayot va uning mohiyati masalasidir. Biz hayot ekanmiz, olamni bilamiz. Hayotning xilma - xil turlari, shakllari borki, ular borliqning moddiy shakllarini harakatga keltirishda, boshqarishda asosiy o'rin tutadi. Hayotning eng murakkab shakli - bu inson hayotidir. Inson ruhiyati, ongi, tafakkuri bilan chambarchas bog'langan. Har bir odamga bir marta yashash imkoniyati berilgan. Insonning qadr - qimmati shu hayotni qanday o'tkazganligi bilan o'lchanadi.

Odamning tabiatini va hayoti u yashayotgan jamiyatdagi ijtimoiy muhitga ham bog'liq. Farovon jamiyatda insonlar ham farovon hayot kechirishadi. Qashshoqlik jamiyatda ham qashshoqlik tomir otadi. Demak, jamiyatda odmlarga e'tiqod kuchli bo'lib, jamiyatni qanchalik farovon qilsa, unda yashayotgan insonlarning, keluvchi avlodlar hayoti ham shunchalik farovon bo'ladi.

Hayotning vujudga kelishi va mohiyati haqida hanuzgacha olimlar bir nuqtai - nazarga kelishmagan. Har bir insonning hayoti takrorlanmas mohiyatga ega, shu bilan birga ham bir inson o'ziga xos mohiyatga ega bo'lib, bir otaning o'mini boshqa ota, bir do'stning o'mini boshqa do'st bosolmaydi. Shunday ekan, inson va uning hayotini qadrlash muhim ijtimoiy hodisa hisoblanadi.

Insonning yaxshi hayot kechirishi, bir tomondan u yashayotgan jamiyatga bog'liq bo'lsa, ikkinchi tomondan tabiiy muhitga bog'liq.

Butun tarixiy taraqqiyot davomida inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabat takomillashib borgan. Inson tabiiy muhitsiz, suv, havo, quyosh va tuproqsiz yashay olmaydi. Bu unsurlar uning tirikchiligini ta'minlaydi. Bunday qulay sharoit inson uchun faqat Yer sharida mavjuddir.


Yerning hayotiy tarqalgan qismi biosfera deb ataladi. Biosfera tirik organizmlarning hayot kechirish muhitidir. Agar Yer shari Quyoshga yaqinroq joylashganida Yer yuzasidagi harorat ko‘tarilib ketgan bo‘lar edi va oqibatda yerdagi namlik - suv yo‘qolar edi. Agar u quyoshdan uzoqda joylashganida yer yuzasidagi harorat pasayib, hamma joy mangu muzlik bilan qoplanar edi. Xullas, har ikkala holatda ham yer yuzasida hayotning paydo bo‘lishiga imkoniyat yo‘qolgan bo‘lardi. Agar Quyosh sistemasi Galaktika markaziga yanada yaqinroq joylashganida edi, yer yuzasida kuchli gravitatsion ta’sirida narsalarning vazni og‘irlashib, insondek murakkab jonzotning, balki umuman hayotning paydo bo‘lishiga sharoit bo‘lmagan bo‘lar edi. Demak, inson o‘zi uchun eng qulay bo‘lgan joyda yashaydi, bunga shukronalar aytsa arziydi.

Qadimgi davrda insonning tabiiy muhitga ta’siri o‘ta kuchsiz bo‘lgan. Davrlar o‘tishi bilan inson aql zakovatini ishga solish asosida hayotiy tajribaning oshishi natijasida, uning tabiatga ta’siri sezilarli darajada o‘zgara boshladи. Inson atrof - muhitni shakllantirib, biosferadagi tabiiy muvozanatni izdan chiqara boshladи.


Bu masalaning yechilishi insonning aql - idrok kuchi bilan bog‘liqdir. Insonning aql - idrokining olamga ta’sir ko‘rsatgan chegarasi noosfera deb ataladi. Inson o‘zligini anglamas ekan, uning sayyoramizga halokatli ta’siri kuchaygandan kuchayib, oxir - oqibatda uning o‘zini ham halokatga olib borishi mumkin, degan ilmiy bashoratlar mavjud. Haqiqatdan ham inson faoliyati aql - idrok bilan oqilona boshqarilmas ekan, u yer yuzining halokatini tezlash-tirishi muqarrardir.

Hozirgi zamonda ekologik muammolardan biri ham inson faoliyati tomonidan atrof - muhit ifloslanishining oldini olish va bu halokatni to‘xtatib qolishan iborat. Bu olamni qay darajada yaxshi bilib olishimiz va uning hayotga nisbatan mas’uliyatini anglashimizga bog‘liqdir. Inson jamiyat - da va tabiatda tutgan o‘z o‘rnini to‘g‘ri anglasa, atrof - muhitni ham avaylab asraydi, yer yuzini gullab - yashnatadi. Insonlarga xizmat qilish faoliyatini kuchaytiradi

## **Moddiy olamning tashkiliy strukturaviy darajalari**



## **Borliqdagi ob'ektlar miqyosi bilan farq qiluvchi miqyosiy struktura darajalari**



### **Tayanach so‘z va iboralar**

Tabiat, tabiiy muhit, biosfera, noosfera, hayot, borliq, ekologiya, jamiyat, tirik tabiat, notirik tabiat, anorganik dunyo, mikrodunyo, makrodunyo, megadunyo.

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda”. T., “O‘zbekiston”, 1999 y.
2. Karimov I. A. “Donishmand halqimning irodasiga ishonaman”. “Fidokor” gazetasi muxbir savollariga bergen javoblari. “Fidokor”, 2000 yil 8-iyun.
3. Karimov I.A. “O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li”. O‘zbekiston mustaqilligining 16 yilligiga bag‘ishlangan qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi. “O‘zbekiston ovozi”, 2007 yil 31 avgust.
4. Suyunov S. “Mantiq, ahloqshunoslik va estetika” Uslubiy qo‘llanma. Samarqand - 2007, 3 - 35 betlar.
5. Shermuhammedov S. “Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot” Toshkent, “Fan” nashriyoti 2005 y., 3 - 37 betlar.

6. “Falsafa”. (Ma’ruzalar matni), Toshkent. 2004 y., 160 - 169 betlar.
7. “Falsafa”. (O’quv qo‘llanma). Yusupovning umumiy tahriri ostida T., “Sharq”, 1999 y., 247 - 268 betlar.
8. “Falsafa asoslari” Toshkent. “O‘zbekiston”, 2005 y., 138 - 145 betlar.
9. Eshonqulov. “Fikrlash - mavjudlik alomati” “Muloqot” jurnali. 2004 y., 11 - 13 betlar.
10. Bo‘riyev M. “Fanning falsafiy masalalari” (Uslubiy qo‘llanma). Samarqand - 2004 y., 3 - 46 betlar.

### **Mavzu №7. Falsafiy qonunlar.**

Mavzuning maqsadi:

Ushbu mavzuda dialektikaning taraqqiyot va aloqadorlik to‘g‘risidagi ta’limot ekanligi, tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar, ularning inson miyasidagi in’ikoslari - bizning tasavvur va tushunchalarimiz o‘zaro bog‘liq va bir - biriga ta’sir va aks ta’sir etib turishi, rivojlanish va o‘zgarish doimiy harakterga ega ekanligi, rivojlanish o‘z navbatida protsessdan iborat o‘zgarish bo‘lib, narsa va hodisalar quyi bosqichdan yuqoriqoq bosqichga o‘tib turishi bu dialektikaning qonun ekanligi, rivojlanishning turli maxsus fanlar sohalariga oid bunday nazariyalarning umumiy jihatlari dialektika-ning taraqqiyot nazariyasida ifodalanishini, dialektikaning taraqqiyot naza-riyasi esa butun borliqning harakati, o‘zgarishi va rivojlanish qonunlari va prinsiplarini o‘z ichiga olgan umumiy falsafiy ta’limot ekanligini nazariy jihatdan asoslab berishga qaratilgan.

Shu bilan birga dialektikaning umumiy qonunlarining mohiyatini ochib berishga qaratilgan.

### **Mavzuning rejasi**

1. Taraqqiyot jarayonida takrorlanishtamoyili. Qonun va qonuniyat tushunchalari.
2. Miqdor va sifat tushunchalari. Me’yorning buzilishiva yangi sifatga o‘tishning mohiyati.
3. Dialektikaning qarama - qarshiliklar birligi va kurashi qonuni. Inkorni inkor dialektikasi.

**Birinchi savol.** Taraqqiyot jarayonida takrorlanish tamoyili qonun va qonuniyat kabi masalalarni yoritishda dialektikaning taraqqiyot to‘g‘risidagi ta’limot ekanligi, tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar, ularning inson miyasidagi in’ikoslari - bizning tasavvur va tushunchalarimiz o‘zaro bog‘liq va aloqador, bir - biriga ta’sir va aks ta’sir etib turishi ularning doimiy ravishda harakatda, o‘zgarish va rivojlanishda bo‘lishini taqozo etadi. Narsa va hodisalarning harakati,

o‘zgarish va rivojlanilar ularning o‘zaro aloqa-dorligi va bog‘lanishlari natijasida sodir bo‘ladi. Bizni qurshab turgan narsa va hodisalar galaktikalardan tortib, yulduzlarga, yulduzlardan tortib, Yer va Quyoshgacha, Yerning o‘zidan tortib, undagi turli - tuman moddalar, o‘simliklar va hayvonot dunyosigacha, kishilik jamiyatidan tortib to inson va uning tafakkurigacha hamma narsa va hodisalar doimo o‘zgarishda, unilish, rivojlanishda, doimo harakatda deb qaraydi.

Bir butun borliqda sodir bo‘ladigan harakat, o‘zgarish va rivojlanish umumiy harakterga egadir. Biz “Borliq” mavzusini o‘rganganimizda, harakt borliqning umumiy yashash usuli, uning ajralmas xossasi ekanligi bilan tanishgan edik. Kundalik hayotda, harakat deganda, odatda, narsa va hodisalar- ning oddiy o‘rin almashtirilishi tushuniladi. Bunda “o‘zgarish” tushunchasi hajm jihatdan “harakat” tushunchasiga kiradi. Chunki har qanday o‘zgarish harakatdir, lekin har qanday harakat o‘zgarish emasdir. O‘zgarish narsa va hodisalarning bir holatdan ikkinchi holatga, bir ko‘rinishdan boshqa ko‘rinishga o‘tishdir.

Rivojlanish esa bu - progress (lotincha progreslis so‘zidan olingan bo‘lib, yangining rivoji, oldinga tomon harakat, degan ma’nolarni anglatadi) tomon o‘zgarishdir. Rivojlanish aslida shunday o‘zgarishki, bunda muayyan yo‘nalish-dagi yangi holat eski holatning, yuqori bosqich quyi bosqichning o‘rnini yangi narsa va hodisalar oladi. O‘zgarish esa rivojlanishdan shu bilan farq qiladiki, u o‘z ichiga “regres” (lotin tilidan olingan bo‘lib, orqaga tomon harakat, qaytish ma’nolarini anglatadi) larni o‘z ichiga oladi.

Demak, rivojlanish progressdan iborat o‘zgarish bo‘lib, keng ma’noda quyidan yuqoriga, oddiydan murakkabga qarab ilgarilab boruvchi harakatdir. Rivojlanish shunday o‘zgarishki, u narsa va hodisalarning quyi bosqichi o‘rnini yuqori yuqoriroq bosqichi olishdir. Har qanday real rivojlanish miqdori o‘zgarishlarining sifati o‘zgarishlarga o‘tishini, rivojlanish to‘g‘ri chiziq bo‘ylab emas, spiralsimon tarzida uning har bir o‘rami oldingisiga qaraganda kengroq ekanligini taqozo qiladi.

Fan shundan dalolat beradiki, tabiat, jamiyat, inson va inson tafakkuriga xos bo‘lgan umumiy xususiyatlardan biri - bu ularda progress tomon rivojlanishning, yangi taraqqiyotning mavjudligidir.

Noorganik tabiatda rivojlanish moddiy ob’ektlarning, ulardagi o‘zaro aloqadorlik va harakat turlarining tobora murakkablashib borishi tarzida namoyon bo‘lsa, organik tabiatda esa rivojlanish moslashuvi asosida sodda turlar o‘rniga murakkabroq turlarning paydo bo‘lishini va takomillashib borishini namoyon qiladi.

Insoniyatning rivojlanishi deyilganda esa odamning tobora ijtimoiy-lashuvi bo‘lib, mehnat, til, ong va ahloqning ta’siri tufayli ijtimoiy zot - insonga aylana borishi, nihoyat ijtimoiy jamoa tuzumi

kishisidan to hozirgi davr kishisigacha bosib o‘tilgan bosqichlar tushuniladi.

Progress tomon rivojlanish, ayniqsa jamiyat hayotida yaqqol ko‘zga tashlanadi. Jamiyatdagi rivojlanish bir quiy ijtimoiy - iqtisodiy bosqichdan unga nisbatan progressivroq, yuqoriq ijtimoiy - iqtisodiy bosqichlarga o‘tib borish asosida ro‘y beradi.

Inson tafakkuri jarayoniga xos rivojlanish esa bu inson bilishining bilmaslikdan bilishga tomon, to‘la bo‘lmagan bilishlardan to‘laroq bilishlarga tomon, oddiy bilishdan ilmiy bilishga tomon yuksalib borishidir.

Biz ko‘rib o‘tgan sohalarning har birida progress tomon rivojlanish o‘ziga xos shakllarda yuz beradi. Shu bilan birga, ularning hammasiga xos rivojlanishning umumiy tomonlari ham bo‘lib, ular birlikda bir butun dunyoning umumiy rivojlanish manzarasini ifodalaydi.

Shuni aytish kerakki, rivojlanishning turli tomonlari, bosqichlari, uning konkret xususiyatlari turli konkret fanlar tomonidan o‘rganilib, ularning har biri o‘zining sohasiga oid alohida rivojlanish nazariyalarini ishlab chiqadi va mukammallashtirib boradi. Masalan, hozirgi zamon kosmolo-giyasi koinot, ayrim galaktikalar, turlicha kosmik ob’ektlarning kelib chiqishi kabi nazariyalarni ishlab chiqmoqda. Evolyutsion biologiya esa tirik organizmlarning rivojlanishi, ularda sodda turlardan murakkab turlarning qanday kelib chiqishi haqida o‘z nazariyalariga ega. Tarix fanida esa kishilik jamiyatining rivojlanish qonunlari haqida turli nazariyalar mavjud. Bular rivojlanishning turli konkret maxsus sohalariga oid nazariyalardir.

Rivojlanishning turli maxsus fanlar sohalariga oid bunday nazariya-larning umumiy jihatlari dialektikaning taraqqiyot nazariyasida ifodala-nadi. Dialektikaning taraqqiyot nazariyasi esa bir butun borliqning harakati, o‘zgarishi va rivojlanish qonunlari va prinsiplarini o‘z ichiga olgan umum-falsafiy ta’limotdir. Taraqqiyotning bu umumfalsafiy nazariyasining vujudga kelishi va shakllanishi ham o‘z tarixiga ega.

**Ikkinci savol.** Miqdor va sifat o‘zgarishlari birligi masalasiga to‘xtalar ekanmiz, bizni qurshab turgan narsa va hodisalarni o‘rganar ekanmiz, ular bir - birlaridan ularning turli xususiyatlari bilan farqlanishini ko‘ramiz. Bunda ularni bir - biridan farq qildiruvchi narsa - ularning sifatidir. Shunday ekan, “Sifat nima?” - degan savolga to‘xtalamiz.

**Sifat** deb, narsa va hodisalarga nisbiy barqarorlik bag‘ishlaydigan, ularning ichki muayyanligini ta’minlaydigan, bir narsa va hodisani ikkinchi narsa va hodisadan farq qiladigan barsa muhim belgi va xususiyatlarning birligiga aytildi.

Sifat bir narsa va hodisani boshqa narsa va hodisadan ajratib turadigan shunday muayyanlikki,

uning o‘zgarishi uning o‘rniga boshqa narsa va hodisani vujudga keltiradi. Masalan, organik tabiat bilan noorganik tabiat sifat jihatidan bir - biridan farq qiladi. Organik tabiat o‘z atrofidagi muhit bilan uzlusiz modda almashib turadi. Noorganik tabiatda bunday mod-da almashinish bo‘lmaydi, o‘z navbatida, organik tabiatning turli qismlari o‘rtasida, masalan o‘simliklar bilan hayvonlar o‘rtasida ham sifat jihatdan farq bor. Biroq inson ularga nisbatan butunlay boshqacha sifatga ega.

Odatda bir narsa va hodisaning sifati boshqa narsa va hodisa bilan bo‘lgan munosabatda aniqlanadi. Har bir narsa yoki hodisa ko‘pgina xususiyat-larga ega bo‘lib, bu xususiyatlaridan bir qanchasi birikib, shu narsa va hodisa-ning muayyan sifatini tashkil qiladi. Bunda sifat bilan xususiyat bir narsa emasligi ma’lum bo‘ladi. Sifat narsa va hodisaning umumiylar harakteristika-sini berib, uning mohiyatini ifodalaydi. Xususiyatlar esa sifatning ifoda-sidir, ularning muhim va nomuhim xususiyatlari o‘zgarishi bilan ularning sifati ham o‘zgarishi mumkin. Bundan ma’lum bo‘ladiki, narsa va hodisalar-ning muhim xususiyatlari ularning sifatining o‘zgarishlarida katta rol o‘ynaydi. Masalan, benzin uchun rang muhim xususiyat emas. Benzin rangini yo‘qotgani yoki boshqa rangga kirgani bilan u boshqa suyuqlikka aylanmaydi. Tez yonuvchilik esa benzinning muhim xususiyatidir. Benzin o‘zining bu xususiyati-ni biron sabab bilan yo‘qotsa, u dvigatel uchun yonilg‘i bo‘lmay qoladi, natijada sifat jihatdan boshqa ximiyaviy moddaga aylangan bo‘ladi.

Narsa va hodisalarning sifat va xususiyatlari ham ob’ektivdir. Har bir narsa va hodisa sifati muayyanlikka ega bo‘lishi bilan birga miqdori muayyan-likka ham ega.

Narsa va hodisalarning son, hajm, daraja kabi tomonlarining muayyanligi miqdor deb aytildi. Narsa va hodisalarda miqdor turlicha ifodalanadi. Ularda miqdor bir holatda son tariqasida, ikkinchi holatda o‘lchov daraja tariqasida, uchinchi holda esa narsa va hodisalarning makondagi o‘zaro munosabati (uzunligi, kengligi, balandligi) tariqasida ifodalanadi.

Ijtimoiy hodisalarda ham miqdor va sifat muayyanligi mavjud. Shu bilan birga miqdor va sifat birlikda bo‘ladi.

Miqdor ham sifat kabi ob’ektiv mavjud bo‘lib, u predmet va hodisalar-ning eng muhim tomonini ifodalaydi. Har bir narsa va hodisa miqdor va sifat muayyanligiga ega bo‘lish bilan birga me’yor birligiga ham ega bo‘ladi.

Me’yor narsa va hodisalarning miqdor va sifat birligini qamrab oluvchi chegaradir. Boshqacha qilib aytganda, sifat bilan miqdorning birligi me’yor deyiladi. Me’yor narsa va hodisaning shunday muayyanligiki, uning buzulishi narsa va hodisaning sifatining o‘zgarishiga, uning boshqa sifatga o‘tishiga, ya’ni boshqa narsa va hodisaga aylanishiga olib keladi. Masalan, suv 100° isitilsa suvlik

holatidan bug‘ holatiga yoki 0<sup>0</sup> sovutilsa muz holatiga aylanadi, ya’ni sifat paydo bo‘ladi.

Ijtimoiy holatda me’yor ma’naviy - ahloqiy hodisalarga ham taalluq-lidir. Jamiyatda har bir narsa va hodisa me’yor doirasidan chiqib ketmasligi kerak. Me’yor buzilsa jamiyatda ham me’yor buzilib, yangi sifat o‘zgarish vujudga keladi.

Borliqdagi narsa va hodisalarda sifat o‘zgarishi ulardagi miqdor va sifatning o‘zgarishlari natijasida sodir bo‘ladi. Bunda miqdor o‘zgarishlari sifat o‘zgarishlariga o‘tgani kabi, sifat o‘zgarishlari ham miqdor o‘zgarish-lariga o‘tadi. Masalan, Mustaqillik natijasida jamiyatimizda bozor iqtiso-diyotiga o‘tish tamoyillari amal qilib, yangi sifati o‘zgarish vujudga keldi. Shu bilan birga jamiyatda ishlab chiqarish kuchlarining rivojlanishi natija-sida jamiyatda yalpi mahsulot ishlab chiqarish sanoat va qishloq xo‘jaligi sohasida katta miqdori o‘zgarishlar sodir etildi. Biz g‘alla mustaqilligiga erishganimizdan keyin, 2007 yil mamlakatimiz davlat omborlariga 6 million tonna g‘alla hosili ko‘tarilganligi ham miqdori o‘zgarishlarning natijasidir.

Rivojlanish jarayonidagi bir - biridan farq qiluvchi bu ikki xil sifat va miqdor o‘zgarishlari, uzluksizlik va uzelishning birligi sifatida namoyon bo‘ladi. Uzluksizlik

- bu narsa va hodisalarning rivojlanishidagi miqdor o‘zgarishlarini o‘z ichiga oladi. Narsa va hodisaning mohiyati saqlanib qoladi. Uzelish esa narsa va hodisalar rivojlanishida endi yangi miqdor o‘zgarishlari mumkin bo‘lmay qolgan bir paytda yuz beradigan sifat o‘zgarishlarini ifodalaydi. Uzelish - bu rivojlanish jarayonida narsa va hodisaning bir sifat muayyanligidan ikkinchi sifat muayyanligiga o‘tishi demakdir. O‘zgarish va rivojlanishda miqdorning sifatga o‘tishi, eski sifatning yangi sifatga aylanishi jarayonida falsafada uzluksizlikning uzelishi deyiladi. Ayni shu uzluksizlikning uzelishi tufayli bir sifatdan ikkinchi sifatga o‘tish jarayoni falsafada sakrash deb aytildi. Masalan, moddiy olam rivojlani-shida noorganik tabiatdan organik tabiatning paydo bo‘lishi, ayni vaqtida buyuk sakrash bo‘lgan.

Sakrash o‘z harakteriga ko‘ra tabiat va jamiyatda xilma - xil bo‘lib, ular bir - birlaridan farq qiladilar. Ijtimoiy holatdagi sakrashlar esa tabiat-dagi sakrashlardan farq qilib, ular kishilar tomonidan ob’ektiv zaruriyat-larni anglash natijasida tayyorlanadi va amalga oshiriladi. Jamiat taraqqiyo-tidagi o‘ziga xos xususiyati shuki, bu sakrashlar eski ijtimoiy tuzumni yo‘q qilish va yangi ijtimoiy tuzumni o‘rnatishdan ijtimoiy inqiloblar, tadrijiy rivojlanishlar orqali amalga oshiriladi. Sakrashlar inson tafakkuri taraqqiyotiga ham xos xususi-yatdir. Inson o‘z aql - idroki bilan ixtiro va kashfiyotlar qilishi, yangi qonun-larni ochishi mumkin.

Yuqoridagi fikrlarga asoslanib, sakrashlarni ikki turga, birinchisi - portlash yo‘li bilan,

ikkinchisi - sekin - asta, tadrijiy yo‘l bilan bo‘ladigan sakrashlardir.

O‘zbekiston mustaqil bo‘lgandan keyin bozor iqtisodiyotiga o‘tishda tadrijiy yo‘lni tanladi, ya’ni portlashsiz, larzalarsiz 5 ta tamoyil asosida o‘tishni tanlaganligi ham fikrimizning dalilidir.

**Uchinchi savol.** Borliqda har bir narsa va hodisa qarama - qarshi tomon- larning birligidan iborat bo‘ladi. Tabiat, jamiyat va inson tafakkuri taraq-qiyotida har bir narsa va hodisa bir - birini taqozo qiluvchi va bir - birini o‘zaro inkor etuvchi tomonlar, xususiyatlar va tamoyillarga ega, masalan, elektr manfiy va musbat, tabiatda esa o‘zaro tortilish va itarilish, tirik organizmda assimulyatsiya va dissimulyatsiya kabilar. Ana shu bir - birini taqozo etuvchi va o‘zaro bir - birini inkor etuvchi tomonlar o‘rtasidagi munosabat ziddiyat deb ataladi. Xuddi shu ziddiyat qarama - qarshi tomonlar o‘rtasidagi kurash va rivojlanishning sababi, manbai bo‘lib hisoblanadi.

Qarama - qarshiliklar va ularning o‘zaro munosabati, ziddiyat va ular-ning birligi jamiyatga, ijtimoiy hodisalarga, insonga, inson faoliyatiga, hatto uning bilish jarayoniga ham xosdir.

Narsa va hodisalardagi o‘zaro o‘xshash tomonlar birligi ayniyat deyiladi. Har bir narsa va hodisada ayniylik bilan birga, tafovut ham mavjud bo‘ladi. Tufovut narsa va hodisalar tomonlarining har birining farq qiluvchi jihat-larining ifodalananishidir. Borliqda o‘z qarama - qarshiligiga ega bo‘lmaydi-gan narsa va hodisa bo‘lmaydi.

Tafovutlarning rivojlanishi ziddiyatning kelib chiqishiga olib keladi. Ziddiyatlarning mavjudligi taraqqiyotning manbai va harakatga keltiruvchi kuchini taqozo qiladi.

Dialektika qarama - qarshilik deb, borliqdagi narsa, hodisa va jarayon-larning o‘zaro bir - birini istisno qiladigan, shu bilan birga bir - birini taqozo etuvchi tomonlari tamoyillari va kuchlarining o‘zaro munosabatlari tushuniladi. Ziddiyatlar, tafovutlar har bir narsa va hodisaning birligini tashkil etadi. Ziddiyatlar rivojlanib, keskinlashgan holatda hal qilinmasa konflektga aylanishi mumkin.

Ziddiyatlarning hal qilinishi o‘zgarish va rivojlanishga, bir sifatdagi narsa va hodisaning boshqa sifatdagi narsa va hodisaga aylanishiga, eski narsa va hodisa o‘rniga yangi narsa va hodisa paydo bo‘lishiga olib keladi. Qarama - qarshiliklar birligi va kurashi hamma sohada amal qiladi. Tabiat, jamiyat va inson taraqqiyoti ayni shu sababga binoan sodir bo‘ladi. Ziddiyatlarning mohiyatini bilmay taraqqiyotning sababini tushunib bo‘lmaydi.

Har bir sohada ziddiyatlar, ularning kelib chiqishi sabablarini to‘g‘ri tushunmoq katta ahamiyatga ega.

Ziddiyatlar o‘zining barqaror bo‘lishiga qarab turli xillarga bo‘linadi. Ular ichki va tashqi,

asosiy va asosiy bo‘lman, antoganistik va noantoganistik ziddiyatlarga bo‘lib o‘rganiladi.

Ichki ziddiyat - bu narsa va hodisalarning o‘z ichidagi qarama - qarshi tomonlar, kuchlar o‘rtasidagi ziddiyatlardir.

Tashqi ziddiyat esa narsalar va hodisalar o‘rtasidagi ziddiyatlardir. Lekin ichki va tashqi ziddiyatlarni bunday bo‘lishi nisbiy harakterga ega, chunki bir munosabatda ichki ziddiyat tashqi zidiyat, ammo kishilik jamiyati miqyosida ular ichki ziddiyatlardir.

Rivojlanishning mohiyatini asosan ichki ziddiyat belgilaydi. Tashqi ziddiyatlar rivojlanishga bilvosita, ya’ni ichki ziddiyatlar orqali ijobiy va salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Masalan, O‘zbekiston istiqboli ichki iqtisodiy siyosat va ma’naviy vaziyatga bog‘liq. Tashqi halqaro va mamlakat-lararo munosabat yetarli katta ta’sir ko‘rsatmasligi mumkin.

Demak, rivojlanish asosan ichki muammolarni hal qilishga bog‘liq bo‘lsa ham, lekin tashqi ziddiyatlarni ham nazardan chetda qoldirmaslik kerak.

Ziddiyatlarni o‘z harakteriga, narsa va hodisalarning rivojlanishidagi ahamiyatiga qarab asosiy va asosiy bo‘lman ziddiyatlarga ham bo‘lish mumkin.

Narsa va hodisalarning mohiyatini, ularning kelib chiqishi va rivojlanish qonuniyatlarini belgilab beradigan ziddiyat asosiy ziddiyat deyiladi.

Asosiy bo‘lman ziddiyatlar esa narsa va hodisalarning ma’lum bir taraqqiyot bosqichida ular mohiyatini belgilamaydigan, rivojlanishni o‘zgar-tirish kuchiga ega bo‘lman ziddiyatlar bo‘lib, ularning rivojlanishga ta’siri vaqtga va sharoitga bog‘liq.

Shuni qayd etish lozimki, ziddiyatlarning qaysi biri asosiy va asosiy emasligini aniqlash rivojlanishning asosiy sabablarini to‘g‘ri belgilash-ning asosiy yo‘lidir. Asosiy ziddiyatlarni aniqlash ijtimoiy amaliyot natijalarini va bu amaliyot natijalarini tafakkur orqali analiz va sintez qilish natijasida amalga oshadi.

Asosiy ziddiyatlar orasida ularning biri bosh ziddiyatni tashkil qilishi mumkin. Bosh ziddiyat deb, rivojlanishning u yoki bu bosqichining mohiyatini belgilab beradigan asosiy ziddiyatga aytildi. Ijtimoiy taraqqiyotda bosh ziddiyatni aniqlab olish muhim ahamiyatga ega.

Antoganistik va noantoganistik ziddiyatlar ham mavjud bo‘ladi. Antoganistik ziddiyatlar jamiyatdagi manfaatlari bir - biriga tubdan zid bo‘lgan kuchlar, ijtimoiy guruhlar va tabaqalar o‘rtasidagi ziddiyatlardir. Noantoganistik ziddiyatlar jamiyatdagi manfaatlari bir - biriga mos keladigan manfaatlarini o‘zaro kelishtirishi mumkin bo‘lgan ijtimoiy guruhlar va tabaqalar o‘rtasidagi ziddiyatlardir.

Jamiyatdagi ziddiyatlarni aql - zakovat bilan hal qilish maqsadga muvofiqdir.

Ziddiyatlarning ba'zilarini eskining yemirilib borishi va yangining qaror topib borishi asosda hal qilinib borilsa, boshqalari ayni shu ziddiyat-larni tashkil qilgan qarama - qarshi tomonlarni o'zaro kelishtirish, murosa-yu madoraga keltirish, bir - biri bilan o'zaro siyosiy muzokaralar olib borish, bitimlar tuzish, hamjihatlikka erishish yo'li bilan taraqqiyotni ta'minlash mumkin. Keyingi vaqtarda jamiyatdagi ziddiyatlarni hal qilishda qo'llanayot-gan samarali usullardan biri Konsensus (o'zaro kelishuv)dir. Xegel qayd etgan konsensus usulidan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Jamiyatdagi bunday ziddiyatlarni hal qilishda, ayniqsa halqaro tashki-lot (BMT va shu kabi) larning o'rni kattadir. Tabiatdagi ziddiyatlar asosan sitikiyalı mohiyatga ega, ya'ni ular o'z - o'zicha paydo bo'lib, rivojlanib, so'ng o'zlariga xos qonunlar asosida hal etiladi.

Falsafada ziddiyatlarning har biriga konkret yondashish, ular namoyon bo'ladigan sharoitni, vaziyatni shu taraqqiyot jarayonida o'ynaydigan rolini to'g'ri hisobga olish muhim ahamiyatga ega.

### **Inkorni inkor (taraqqiyotda vorislik va davomiylik).**

Taraqqiyotda vorislik va davomiylik inkorni inkor etish yo'li bilan amalga oshiriladi.

Borliqning hamma sohasida doimo eski, umri tugayotgan narsa va hodisalarning vujudga kelish jarayoni sodir bo'lib turadi. Bundagi eskining yangi bilan almashishi Inkor deb ataladigan inkor atamasini falsafaga Xegel kiritgan. Uning fikricha inkor g'oyaning, fikrning rivojlanish bosqichidir.

Dialektika inkor kundalik ongda ishlataladigan tushunchadan farq qilib, onkor qilish to'g'ridan - to'g'ri "yo'q" demak emas, yoki narsa mavjud emas, deb e'lon qilmoq yoki uni har qanday usul bilan yo'qotib tashlamoq emas.

Inkorni dialektik tushunish yangining eski bilan oddiy almashuvi bo'lmadsan, balki yangi eskining bag'rida vujudga kelib, undagi sog'lom tomon-lardan foydalanib qaror topishini tan olishdir. "Ichki inkor" taraqqiyotning harakatlantiruvchi kuchidir, deb qayd etadi nemis faylasufi Xegel.


Dialektik inkor bir paytda sodir bo'ladigan yemirilish bilan yaralishni, narsa va hodisalarning yo'qolishi va paydo bo'lishini bog'lib, ilgarilab rivojlanish holatini ifodalaydi.

Dialektik inkorning muhim ichki jihat mavjud. Birinchidan, eskining o'rniga yangining kelishi tabiiy tarixiy jarayon bo'lganligi uchun taraqqiyot-ning muhim sharti hisoblanadi, ikkinchisi, u yangini eski bilan vorisiy bog'liq ekanligini ham ifodalaydi.


Inkorni inkor deb atalishining sababi moddiy olamdag'i narsa va hodisalarning doimiy ravishda o'zgarib, bir holatdan ikkinchi holatga o'tib borishi va oqibatda rivojlanish uzluksiz ekanligidan kelib

chiqadi. Demak, har bir narsa va hodisaning o‘zgarishi va rivojlanishi hamisha ikki va undan ko‘proq inkor etilish bilan amalga oshiriladi. Inkorni inkor ana shu inkorning sodir bo‘lishi bilan rivojlanishning davom etishini ifodalaydi. Dialektik inkorga ko‘ra taraqqiyotning spiralsimon harakteri o‘ziga xos xusu-siyatlarga inkorda narsa va hodisalar o‘zgarmasdan qolmasligi, ikkinchidan yemirilayotgan narsa (inkor etilayotgan) bilan paydo bo‘layotgan narsa o‘rtasidagi bog‘liqlikning mavjudligi, uchinchidan inkor etilayotgan narsa oldingi erishilgan yutuqlarni saqlab qolish imkoniyatiga ega. Inkorni inkor natija-sida taraqqiyotning oddiylikdan murakkablikka, pastdan yuqoriga borishligi qonuni protses ekanligini ochib beradi.

Demak dialektikaning qonunlari taraqqiyotning mohiyatini ochib beradi.



## Materiyaning harakat shakllari



### Tayanch so‘z va iboralar

Borliq, tabiat, jamiyat, kategoriya, tabiiy borliq, inson borligi, ijtimoiy borliq, birlamchi tabiat, ikkilamchi tabiat, substansiya, pluralizm, modda, nomodda, materiya, harakat, makon, vaqt.

### Adabiyotlar

- 15.Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q”. T., “Sharq”, 1998 y.
- 16.Karimov I. A. “Donishmand halqimning irodasiga ishonaman”. “Fidokor” gazetasi muxbiri savollariga bergan javoblari. “Fidokor”, 2000 yil 9-iyun.
- 17.Kanpe V.V. “Filosofiya” M., “Logos”, 1999 g.
- 18.Yusupov tahriri ostida “Falsafa”. T., “Sharq”, 1999 y., 162 - 178 betlar.
- 19.Nazarov K. tahriri ostida “Falsafa”. Ma’ruzalar to‘plami. T., 2000 y., 144 - 150 betlar.
- 20.Tulenov J., Tadmurov Z. “Falsafa”. T., “O‘qituvchi”, 1997 y., 145-155 betlar.
- 21.Karimov B. “Tabiat va o‘zimizni asrash falsafasi”. Muloqot. 2000 y., 6- sentyabr, 28 - 30 betlar.
- 22.Shermuhammedov S. “Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot”. Toshkent, 2005 y., 3 - 45 betlar.
- 23.Suyunov S. “Mantiq, ahloqshunoslik va estetika” Uslubiy qo‘llanma. Samarqand - 2007, 3 - 25 betlar.
24. Ochilov N. “Xotira beqiyosdir, qadr muqaddas” “Fidokor” gazetasi. 2007 y.

25. "Milliy o'zlikni anglash siyosati". "Muloqot" jurnali. 2006 y. № 6. 2-4 betlar.
26. Eshonqulov. "Fikrlash - mavjudlik alomati". "Muloqot" jurnali. 2004 y. № 5, 11 - 19 betlar.
27. "Falsafa asoslari". Toshkent. "O'zbekiston", 2005 y., 125 - 130 betlar.
28. Quvvatov N. "O'tmish davri: Iqtisodiy tafakkur islohoti" "Muloqot" jurnali. 2007 y. № 1-2 son, 20 - 22 betlar.

### **Mavzu №8. Ong va ruhiyat.**

Mavzuning maqsadi:

Ushbu mavzuda ong va uning mohiyati, uning paydo bo'lish tarixi, ong va miya, ularning funksiyalari, insonda ruhiyat, o'z-o'zini anglash, ong va axborot hamda ijtimoiy ong va uning shakllarini nazariy jihatdan asoslab berish. Shu bilan birga ijtimoiy va individual ongning bir-biri bilan munosabati, ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy ongning shakllarini bir-biri bilan bog'liqligi va alohida o'ziga xos xususiyatlari, ularning ijtimoiy borliqqa ijobiy ta'siri kabi masalalarini nazariy va amaliy jihatdan yoritib berishga qaratilgan.

#### **Mavzuning rejasi**

1. Ong va ruhiyat, ularning shakllanishi va rivojlanishi haqidagi tabiiy-ilmiy tasavvru va qarashlar.
2. Ijtimoiy ong va uning strukturasi.
3. Ijtimoiy ong va uning tarixiy ahamiyati.

**Birinchi savol.** Inson qadimdan boshlab, ongning nima ekanligini bilishga qiziqib, bir qismi ong tabiat mahsuli yoki inson yaratilgan desa, ikkinchi qismi esa lekin inson doimo duneni bir xil anglaydima, asrlar mobaynida inson ongi takomillashib borganmi degan savollarga javob izlab kelgan Mutafakkir Suqrot "O'zingni bilsang olamni bilasan" degan fikrida inson o'zini bilimi orqali mohiyatni bilishga yo'l olish mumkin, degan g'oyani ilgari suradi .

Shu nuqtai nazaridan qaragana ongning tabiatini anglash masalasida-eng qadimgi falsafiy masalalardan biri ekanligini bilamiz. Ongning kelib chiqishi va moxiyati bilan bevosita falsafa shug'ullanadi.

Ongni din nuqtai nazaridan qaralsa uni ilohiy hodisa, xudo yaratgan mo'jiza tariqasida talqin qilinadi. Inson tanasidagi ruh bizning istak va fikrlarimizning tashuvchisidir, jon o'lishi bilan ong ham o'ladi, deb talqin qiladi.

Ong moddiylikning miyada aks etishri deb tushinishda uning moxiyatini inson tanasi faoliyati bilan bog‘lab talqin qiladi. Bunday qarashlar ham XVIII asrda vujudga keldi. Bunday qarash falsafa tarixida “Vul’gar materializim” deb nom olgan oqim namoyondalaridir. Ularning fikricha xuddi jigar safro ishlab chiqargani kabi miya ham ongni ishlab chiqaradi. Bunday qarash ham noto‘g‘ri safroni ko‘rish mumkin, ammo ongni ko‘rib ham, ushlab ham, o‘lchab ham bo‘lmaydi.

Ong tarixi insoniyatning inson bo‘lib shakllana boshlashi tarixi bilan bog‘liqdir. Fan dalillari inson paydo bo‘lishini faqat Yerda kechgan jarayonlar bilan cheklab quyish to‘g‘ri emasligini, u koinot evolyutsiyasining tabiiy hosilasi ekanligini tobora chuqurroq isbotlamoqda.

Inson biologik ijtimoiy harakatning tashuvchisi ekan, harakat shakl-lari o‘rtasidagi uzviy aloqadorlikni, uning yuqori shakllari quyi shakllari-ga bog‘liqligini, tayanishini, ulardan uchib chiqishini unutmaslik kerak.

Ong tarixi Quyosh sistemasi va unda millionlab yillar davomida sodir bo‘lgan o‘zgarishlardan ham ayricha olib qaralishi mumkin emas. Ana shu jihatdan olganda, ongning shakillanishini kosmik hodisa sifatida ham qarash mumkin.

Ong inikosning oliy shaklidir. Inikos muayyan ta’sir natijasida paydo buladi. Buning uchun esa hech bo‘limganda ikkita ob‘ekt va ular o‘rtasida o‘zaro ta’sir bo‘lishi lozim. Umumiyl ma’noda har qanday narsalarning u bilan munosabatda bo‘lgan boshqa narsalar ta’sirini muayyan ta’rifda aks ettirish xossasiga inikos deyiladi.

Notirik tabiatda in’ikos bilan tirik tabiatdagi in’iko bir - biridan tubdan farq qiladi. Notirik tabiatda in’ikos oddiy, tirik tabiatda murakkab bo‘ladi.

Ongning falsafiy talqini inson ma’naviy va ruhiy hayoti namoyon bo‘lishining barcha shakllarini birgalikda va yaxlitlikda olib tahlil qilish imkoniyatini beradi. Axborotli in’ikosning o‘zi tirik tabiatning har bir darajasida yanada murakkablashib, o‘ziga xoslik kasb etadi. Ana shunday murakkablashuv jarayoni psixik in’ikosning shakllanishiga zamin hozirlaydi. Ayna psixik in’ikos darajasida vogelikka faol munosabat ham shakllanadi. In’ikosning ilgarilab borishidan esa, o‘z navbatida, uning o‘ziga xos, yuqori shakli bo‘lgan ongning paydo bo‘lishiga imkoniyat yaratadi.

Inson miyasi nozik, murakkab tuzilishga ega bo‘lgan tizimdir. Aynan uning murakkabligi ong paydo bo‘lishi mumkinligining asosiy shartidir. Bunday holat uzoq davom etgan evolyutsiyaningtabiiy hosilasidir. Ong ijtimoiy - ruhiy hodisa ekanligi va u faqat jamiyatdagina shakllanishi mumkin.

Insonni hayvonot olamidan ajralib chiqishda, ijtimoiy mavjudotga aylantirishda muhim rol

o‘ynagan. Odamlar ongini ham shaklantirishda zamin bo‘lib xizmat qilgan. Bu omillar sifatida uzoq ajdodlarimizning birlikda hayot kechirishlari, o‘zaro axborot uzatishga bo‘lgan ehtiyoj, atrof - muhit sharoitga “sun’iy” ravishda moslashishga bo‘lgan moyilligi va nihoyat “mehnat” qilishga o‘rgana borishini ko‘rsatish mumkin. Mana shunday uzoq davrdagi tabiat va ijtimoiy holatga moslashish natijasida ong paydo bo‘ldi va rivojlandi.

Ong psixik in’ikosning o‘ziga xos yuksak shaklidir. Ammo, bu psixik va ong tushunchalarini aynanlashtirish uchun asos bo‘la olmaydi. Negaki, psixika hayvonlarga ham xosdir. Z.Freyd fikricha, psixika ongsizlik, ong osti hodisalarini va ongning o‘zidan iborat uch qatlamdan tashkil topgan. Inson hayoti, faoliyatida ong bilan bir qatorda ongsizlik va ong osti hodisalari ham muhim ahamiyatga ega.

Psixologlar fikricha, inson farzandining kamol topa borishi bilan bir qatorda ko‘plab funksiyalar ong nazorati ostidan chiqib, avtomatik harakter kasb etishi bilan harakterlanadi. Aytaylik, birinchi marta samolyotga minganda, birinchi marta surat oqanimizda deyarli barcha harakatlarimiz ongning qattiq nazoratida bo‘ladi. Vaqt o‘tishi bilan esa ko‘pgina harakatlarni ongsiz tarzda, anglamagan holda bajara boshlaymiz.

Hayotiy harakatlarning ongsizlik sohasiga kuchini, bir tomondan, ong yukining yonginasidagilarga xizmat qilsa, boshqa tomondan, ongning asosiy kuchi, quvvati, “diqqat”ini, inson hayoti uchun muhim bo‘lgan harakat, jarayonlarga qaratishga imkoniyat yaratadi.

Ong o‘zaro aloqada bo‘lgan turli unsur (element) lardan tashkil topgan murakkab ma’naviy tuzilishga ega.

Ong in’ikosning o‘ziga xos shakli ekan, avvalo, unda aks ettiriladigan ob’ekt haqidagi muayyan bilimlar hissiy va ratsional shaklda o‘z ifodasini topadi. Demak, bilim ong tuzilishining asosiy unsuridir. Shuning uchun ham, bilimlarning boyib, chuqurlashib borishi ong rivojlanishini harakterlay-digan muhim belgi sifatida yuzaga chiqadi.

Iroda kuchi olamni anglash jarayonida yuzaga keladigan har qanday to‘siqlarni yengib o‘tishga, ko‘zlangan maqsad yo‘lida tinmay harakat qilishga yo‘l ochadi.

Iroda tabiatning in’omi bo‘lmasdan, uni tarbiyalash, kamol toptirish shaxs hayotida, uning jamiyatdagi o‘z o‘rnini topishida muhim ahamiyatga ega. Irodasiz kishi to‘g‘ri yo‘ldan adashadi va turli salbiy oqibatlarni kelib chiqishiga olib kelishi mumkin.

Til ongning insongagina xosligini isbotlovchi omillardan biridir. Til muayyan belgilar tizimi, demakdir. Ammo, tilning xususiyatlarini shu bilangina cheklash to‘g‘ri emas. Negaki, muayyan belgilar hayvonlarga ham xos, ular yordamida jonzotlar o‘rtasida muayyan axborot almashuvi sodir

bo‘ladi.

Aytaylik, kabutarning “muhabbat” ramzi, jonzotlarning havf - xatar paydo bo‘lganda turli tovush - belgilar yordamida bir - birini ogohlantirishi, ayrim hayvonlarning uzoq - uzoqlardan o‘z makonini topib kelishi ana shunday belgilar tizimining o‘ziga xos ko‘rinishlaridir. Bular uzoq evolyutsion davrni bosib o‘tgan reflekslar ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Hatti - harakat yokiboshqa belgilar yordamida uzatiladigan axborotning mazmuni muayyan vaziyatdagi holat bilan belgilangan bo‘ladi. Bundan farqli o‘laroq, inson nutqi, tili konkret vaziyat, makon va zamondan holi bo‘lishi, unga bog‘liq bo‘lmasligi ham mumkin. Boshqacha qilib aytganda, u o‘zida o‘tmishni, hozirgi holatni va istiqbolni ham ifodalashi mumkin. Bu inson tilining belgilar tizimi sifatida hayvonot dunyosida amal qiladigan belgilardan tub farqini ko‘rsatuvchi muhim xususiyatidir.

Demak, ong in’ikos shaklining uzoq davom etgan evolyutsiyasining tabiiy hosilasi bo‘lganidek, u bilan uzviy bog‘liq bo‘lgan inson nutqi ham axborot uzatishga xizmat qiladigan belgilarning murakkablashib borishi jarayonining zaruriy natijasidir.

Tilda ong gavdalanadi. Til yordamidagina ong kishining o‘zi va boshqalar uchun voqelikka aylanadi. Til tafakkur quroli, muloqot vositasi sifatida doimo takomillashuv jarayonini boshidan kechirmoqda. Shu bilan birga inson imo - ishoralar raqs, musiqa “tili”ga ham ega. Shunday bo‘lsada, ular so‘zga ko‘chgandagina anglashiladi, undagi mazmun tushunarli bo‘ladi. Bundan tashqari fan tili ham mavjud. Bunga biz Elektron hisoblash mashinalarining “Beysik”, “Fortran” kabi tillarini misol keltirishimiz mumkin.

Mustaqillik natijasida, milliy tilimizning rivojlanishi o‘zligimiz-ni anglashning asosiy vositasidir.

Inson ob’ektiv voqelikni aks ettirish bilan birga o‘zi haqida fikr yuritish, ruhida kechayotgan jarayonlarni tahlil qilish, hatti - harakatlarni nazariy tahlil qilishdek qobiliyatga ham ega.

O‘zini o‘zgalardan ajrata bilish, o‘ziga munosabat, imkoniyatlarini baholash, o‘z - o‘zini anglash sifatida namoyon bo‘ladi. O‘z - o‘zini anglashda o‘zini bilish, baholash va tartibga solishdek unsurlarni ajratish mumkin.

Shaxsning o‘z - o‘zini anglashda organizm, oila, ijtimoiy guruh, millat, madaniyatga mansubligini va yuqoridagi xususiyatlaridan qat’iy nazар alohida va betakror “Men” sifatida anglashdek bosqichlarni bosib o‘tishini ta’kidlash zarur.

Bolaning o‘zini - o‘zi anglashga o‘tgan davrdagi tarbiya to‘g‘ri yo‘lga boshqarish katta

ahamiyatga ega. U o‘z harakatlarini o‘zi baholash imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Shaxsning o‘z - o‘zini anglash jarayonida u mansub bo‘lgan madaniyatning o‘rni kattadir. Shu bilan birga turli ijtimoiy - iqtisodiy, siyosiy va mafkuraviy omillar ham kuchli ta’sir qiladi. Ana shu xilma - xil tasvirlar mavjudligi shaxsning o‘z - o‘zini anglashi, baholashi va faoliyatini tartibga solishi, nazorat qilishini ta’minlaydi.

**Ikkinchı savol.** Ijtimoiy ong va uning strukturasi masalasiga kelganimizda odamzot bir - biri bilan aloqalarini tartibga solib turadigan ma’naviy, ahloqiy mezonlar, umumiy qarash va intilishlar, manfaat va maqsadlar ham borligini anglagandayoq ijtimoiy ong mavjudligiga ishongan. Jamiyatda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar kishilar ongida o‘z aksini topadi. Ana shu jarayonni ifodalash uchun, ijtimoiy va individual ong tushunchalarini ishlatamiz.

Ijtimoiy ong tabiiy va ijtimoiy voqelikning in’ikosi, jamiyatning muayyan davrga yoki qismga tegishli bo‘lgan, umumiy his - tuyg‘ular, kayfiyatlar, qarashlar, g‘oyalar, nazariyalar majmuasdir. Ijtimoiy ong borliqni aks ettirishi bilan birga u nisbiy mustaqillikka ega.

Birinchidan, ijtimoiy voqelikka faol ta’sir etishi mumkin.

Ikkinchidan, ijtimoiy ongning u yoki bu formasi ijtimoiy voqelik borliqqa nisbatan olg‘a ketishi mumkin.

Uchinchidan, ijtimoiy ongning shakllariga suyangan holda oldinni proqnoz qilish imkoniyati tug‘iladi.

Individual ong muayyan guruh, elat, millatga mansub bo‘lgan ayrim kishilarning ongi bo‘lib, jamiyatdagi voqelik real olingan shaxsning ongida aks etadi.

Ijtimoiy va individual ong o‘rtasidagi o‘xshashlik har ikkalasi ham ijtimoiy voqelikni aks ettirishda ko‘rinadi. Ikkinchı tomondan, ijtimoiy ong voqelikni individual ong orqali aks ettiradi. Ijtimoiy ong bilan individual ong o‘rtasidagi farqli tomoni quyidagilar:

**Birinchidan**, individual ongning sohibi, sub’ekti alohida olingan individ bo‘lsa, ijtimoiy ongning jamiyatdir.

**Ikkinchidan**, ularning farqi shakllanish shart - sharoitlarida ko‘rinadi. Zero, ijtimoiy ong ijtimoiy voqelikning in’ikosi bo‘lsa, individual ong taraqqiyotiga ijtimoiy ong bilan bir qatorda shu shaxsgagina xos bo‘lgan tem-perament, harakter kabi xususiyatlar, uning moddiy ahvoli, oilaviy, diniy, milliy, madaniy mansubligi kabi omillar hamda u bevosita tortilgan ij-timoiy munosabatlarning harakteri ham muayyan darajada ta’sir ko‘rsatadi.

**Uchinchidan**, ijtimoiy ong tegishli ijtimoiy voqelikni aks etirganligi uchun muayyan

qonuniyatlarga bo‘ysunadi, ular asosida rivojlanadi. Individual ong esa ayrim individning tug‘ilishi biln shakllanib, taraqqiy qilib borib, uning vafoti bilan barham topadi. Ammo individual ong ba’zi vaqtleri individning vafoti bilan yo‘q bo‘lib ketmaydi. Bunga biz Forobiy, ibn Sinolarning ijodini olib qarashimiz mumkin.

To‘rtinchidan, individual ong ayrim sohalarda ijtimoiy ongdan o‘zib ketishi yoki orqada qolishi mumkin. Bunga jamiyat taraqqiyotini oldindan aytib bergan mutafakkirlar qarashlari individual ong ba’zan ijtimoiy ongdan nechog‘li ilgarilab ketishi mumkinligiga yorqin misodir.

Ijtimoiy ongning strukturasi ijtimoiy munosabatlar va kishilar faoliyatining turlari bilan belgilanadi. Odamlar faoliyati qanchalik xilma - xil bo‘lsa, ijtimoiy ong ham shunchalik boy va murakkab bo‘ladi. Voqelikni aks ettirish darajasiga ko‘ra ijtimoiy ong odatiy va nazariy ongga bo‘linadi.

Odatiy ong hayotiy tajriba asosida vujudga kelgan oddiy xulosalar, qarashlar majmuidan iborat bo‘lib, kishilarning kundalik hayotidagi voqelikni aks ettiradi, va rivojlanadi. U alohida olingan shaxsnинг tajribasi, malakasiga bog‘liq.

Nazariy ong deganda, nazariyotchilar, olimlar ishlab chiqqan nazariy qarashlar va ilmiy bilimlar tizimi tushuniladi. Odatiy ongdan farqli o‘laroq nazariy ong o‘zgaruvchan harakterga ega. Bu o‘zgaruvchanlik ilmiy bilimlarning shiddatli rivojlanishi, voqelik haqidagi bilimlarning doimo chuqurlashib va kengayib borishi bilan belgilanadi. Shuningdek, odatiy ongga voqealarning tashqi tmomnini ifodalash xos bo‘lsa, nazariy ong voqealarning mohiyatini, rivojlanish qonuniyatlarini aks ettiradi. Shuning uchun ham u odatiy ongga faol ta’sir qiladi va kundalik tajribada hosil qilingan bilimlarni saralashga yordam berdi.

Ijtimoiy psixologiya sotsial muhit, kundalik turmush sharoitlari ta’siri ostida vujudga keladi va rivojlanadi. Uni sub’ektga ko‘ra muayyan ijtimoiy guruh, elat, millat psixologiyasi kabi turlarga bo‘lish mumkin.

Millatlarning etnosotsial birlik sifatida shakllanishida ijtimoiy - iqtisodiy munosabatlar ustivor ahamiyatga ega. Aloida olingan bir millatga xos bo‘lgan psixologik jihatlarni ushbu millat bosib o‘tgan tarixiy yo‘ldan, halqaro iqtisodiy, siyosiy, madaniy munosabatlardan qidirish zarur. Ijtimoiy voqelikning o‘zgarishi bilan milliy psixologiyaga xos bo‘lgan xususiyatlar ham o‘zgarib boradi.

Milliy psixologiyaga xos jihatlarni ijtimoiy - siyosiy, iqtisodiy o‘zgarishlarni amalga oshirishda inobatga olish muhim ahamiyatga ega. Bu amalga oshirilayotgan siyosatning halq ko‘nglidan chuqur joy olishini hamda ushbu o‘zgarishlarning muvaffaqiyatini ta’minlaydi.

Ijtimoiy mafkura (idealogiya) ijtimoiy psixologiyadan tubdan farq qiladi. Ijtimoiy psixologiya sotsial guruqlar hayotini muayyan his - tuyg'ular, kayfiyatlarda bevosita aks ettirsa, ijtimoiy idealogiya sotsial guruqlar ehtiyojlari, manfaatlarining ichki mohiyatini, sababini har xil g'oyalar, nazariyalar, ta'limotlar shaklida aks ettiradi. Shuning uchun ham ijtimoiy hayotga aks ta'sir o'tkaza olish xususiyatiga ega bo'ladi.

**Uchinchi savol.** Ijtimoiy ong ijtimoiy borliqni aks ettiruvchi g'oyalar, idealar, qarashlar va kayfiyatlar yig'indisidan iborat. Bular ijtimoiy ongning ahloqiy, diniy, estetik, siyosiy, huquqiy falsafadagi kabi shakllar-da, ko'rinishlarda namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy ong shakllarining xilma - xilligi ob'ektiv olamning turli - tumanligidan, voqealarning muayyan tomonlarinigina aks ettirishidan kelib chiqishini ko'rsatish zarur.


Ijtimoiy ongning barcha shakllariga bilish, tarbiyalash, qadrlash kabi funksiyalarning xosligi, ayni paytda, bunday o'xshashlikning din va falsafa, ahloqiy va huquqiy ong o'rtasida yana ham kuchliligi bunga misol bo'la oladi.

Ijtimoiy ongning ushbu shakllarini tugal holda deb bo'lmaydi. Hozirgi vaqtida ilmiy adabiyotlarda ekologik ongni ijtimoiy ongning mustaqil shakli sifatida tushunishga urinishlar mavjud.

Hozirgi kunda axborot dunyosining globallashuvi va uning ijtimoiy ongga ta'siri katta bo'lmoqda. XX asr axborot uzatishga xizmat qiladigan geniylik vositalarning keskin taraqqiy etishiga yo'l ochildi.

Shuni ta'kidlash lozimki, ijtimoiy ong va uning shakllaridan to'g'ri foydalanish va haqiqiy real ob'ektiv holatni aks etirishini to'g'ri tushunishimiz lozim.

Avvalo mustaqil mamlakatimiz kishilari ongini tarbiyalash va voqelikni to‘g‘ri aks ettirish prinsipini amalga oshirishimiz lozim



Ong, ijtimoiy ong, individual ong, odatiy va nazariy ong, ijtimoiy psixologiya, ijtimoiy mafkura, milliy g‘oya, milliy mafkura, axborot dunyosining globallashuvi, geniylik, talant, ilhom, ijod, o‘z-o‘zini anglash, noorganik tabiat, organik tabiat, in’ikos, sezish, fikrlash.

## **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. “O‘zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura”. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1996 y.
2. Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: havfsizlikka tahdid, baqarorlik shartlari va taraqqiy kafolatlari” T., “O‘zbekiston”, 1997y.
3. Karimov I.A. “Jamiyatimiz mafkurasi halqni - halq, millatni- millat qilishga xizmat etsin”. T., “O‘zbekiston”, 1998 y.
4. Karimov I.A. “Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo‘lidan yanada izchil harakat qilish halqimiz uchun farovon turmush sharoiti yaratish - asosiy vazifamizdir” “Ishonch” gazetasi, 2007 y., 13 fevral.
5. Abu Nasr Farobi. “Fozil odamlar shahri” T., “O‘qituvchi”, 1993 y.
6. Eshonqulov A. “Fikrlash - mavjudlik alomati”. “Muloqot”, №5. 2004 y., 11-12 bet.
7. O‘ljayeva Sh. “Amir Temurni anglash - o‘zlikni anglash” “Muloqot”, №5. 2004 y., 21-22 bet.
8. Avloniy A. “Turkiy guliston yoxud ahloq”.T., “O‘qituvchi”, 1992 y.
9. Karimov S.K. “G‘oyaviy kurash: yo‘nalishlar, atamalar, tushunchalar”. Samarqand - 2006 y.
10. Suyunov S.X. “Yoshlarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashning asosiy mezonlari”. Samarqand - 2006 y.
11. Falsafa (ma’ruzalar matni). Toshkent - 2000 y., 194 - 210 betlar.
12. Falsafa asoslari. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2005 y., 211 - 207 betlar.

### **Mavzu №9. Inson va jamiyati falsafasi.**

Mavzuning maqsadi:

Ushbu mavzuda inson falsafaning bosh mavzusi ekanligi, inson haqidagi fanni **Antropologiya** deb atalishining mazmun mohiyati, mustaqillik va inson haqidagi qarashlarning ijobiy tomonga qarab o‘zgarishi hamda jamiyatning paydo bo‘lishi, jamiyat insonning umumiylilik oilasi ekanligi, jamiyat mavjudligining moddiy va ma’naviy omillari, jamiyat hayotida barqarorlik va beqarorlik tushunchalarining mazmun va mohiyati, jahonning davlatchilik tarixi taraqqiyoti masalalari. Taraqqiyotning o‘zbek modelining mazmun mohiyati, jamiyatda sog‘lom avlod tarbiyasi, ona va ayolning muqaddasligi kabi masalalarni nazariy va amaliy asosda yoritishdan iborat.

### **Mavzuning rejasি**

1. Inson falsafaning bosh mavzusi.
2. Jamiyat va jamiyatning moddiy va ma’naviy hayoti.
3. Taraqqiyotning o‘zbek modeli, davlatning jamiyat hayotidagi o‘rni.

**Birinchi savol:** Inson va uning jamiyatda tutgan o‘rni masalas imtiyozlarni falsafaning bosh mavzularidan biridir. Sababi, inson bioijtimoiy mavjudot sifatida har bir yangi sharoitda o‘zligini chuqurroq anglashga, insoniy mohiyatni ro‘yobga chiqarishga doimo harakat qilib boraveradi.

Suqrötning “O‘zligingni bil” degan hikmatli so‘zi har bir tarixiy sharoitda yangicha ahamiyat kasb etib boraveradi. Sharq falsafasi tarixida ham inson bosh mavzulardan biridir. Farobiysa falsafasida inson butun borliq taraqqiyotining mahsuli ekanligi, insogn baxt-saodatga faqatgina ilm-fan tufayli erishishi mumkin ekanligini ko‘rsatsa, ibn Sino insonning boshqa jonzotlardan ustunligi aql va tafakkur tufayli ekanligini isbotlashga harakat qiladi. Abu Xomid G‘azaliy esa bu ustunlikni aqlda emas, balki inson qalbida ekanligini ko‘rsatadi. Tasavvuf ta’limotida inson komilligi asosan ma’naviy barkamollik, ruhiy yuksalishda, jismoniy orzu-istiklarni idora qila bilishda namoyon bo‘ladi, deb ta’kidlaydi.

Demak, Sharq falsafasida inson to‘g‘risidagi qarashlar islom dini g‘oyalari sharqona tafakkur va turmush tarzi bilan uzviy bog‘liq holda rivojlantiriladi.

Bundan farqli o‘laroq, G‘arb falsafasidagi insonga asosan geologik mafkuraviy tabiatdagi o‘zgarishlarning mahsuli, deb qaraladi.

Rus tabiatshunosi V.A.Vernadskiyning ta’limotiga ko‘ra inson aqli buyuk geologik omil sifatida tabiatdagи taraqqiyotni tezlashtirgan. Butun hayotning taqdiri insonni aql-zakovati va ahloqiga bog‘liqdir. Hozirgi zamon falsafasi yirik vakillaridan biri E. Fromm insonga bo‘lgan sof va samimiyl muhabbatini, butun yer yuzi halqlari o‘rtasida tinchlik, totuvlik, hamkorlik munosabatlarini chuqur shakllantirishning muhim omili, deb hisoblaydi. Hozirgi zamon antropologik falsafasining inson muhiti to‘g‘risidagi xulosalari quyidagicha:

- a) Insonda ichki va tashqi omil mujassamlashgan;
- b) Inson juda ko‘p qismlardan tashkil topgan yaxlit birligidir;
- c) Inson tarixiy mavjudotdir;
- d) Inson mas’uliyat hissidan qochib qutulolmaydi. U gumanistik pozitsiya va individuallikni uyg‘unlashtirish orqaligina shunday vaziyatdan chiqa oladi.

Demak, inson nihoyatda murakkab, ko‘p qirrali va ko‘p o‘lchamli mavjudot

bo‘lib, uning mohiyatini anglash uzoq vaqt davom etgan jarayondir. Insonda butun olam va jamiyatning mohiyati mujassamlashgandir. Abduholiq G‘ijduvoniy insonni “kichik bir olam” deb hisoblagan.

Tabiat, jamiyat, madaniyat, siyosat, sivilizatsiya, bilish kabi masalalar inson manfaatlari va insoniy mohiyatning namoyon bo‘lish shakllaridir.

Falsafada insonni olamning tarkibi qismi sifatida o‘rganiladi. Insonning mohiyat imtiyozlarni va uning sifatlari inson, shaxs, individ va individuallik tushunchalari orqali ifodalanadi.

Inson - o‘zida biologik ijtimoiy va psixik xususiyatlarni mujassam-lashtirgan ongli mavjudot. Insonni biologik xususiyatlariga ovqatlanish, himoyalanish, surriyod qoldirish, sharoitga moslashish kabilalar xosdir.

Inson boshqa mavjudotlardan farqli xususiyatlari, chunonchi til, muomala, ramziy belgilar, bilim, ong, mas’uliyat, ishlab chiqarish, taqsimlash, iste’mol qilish, o‘z-o‘zini idora qilish, badiiy ijod, axloq, nutq shular jumlasidandir.

Insonning psixik xususiyatlariga ruhiy kechinmalar, hayratlanish, g‘am- tashvish, qayg‘u, iztirob chekish, rohatlanish, zavqlanish kiradi.

Inson shu xususiyatlari bilan yaxlit mavjudot sifatida o‘z ehtiyojlarini qondiradi va insonning davomiyligini ta’minlaydi. Insonning xususiyatlarini bir- biridan ustun qo‘ymasdan hammasini bir-biri bilin bog‘liq holda o‘rganish lozim.

Falsafa tarixida inson to‘g‘risidagi ta’limotlarda biologizm, sotsiologizm, pisixologizm kabi yo‘nalishlar vujudga kelgan.

Shaxs - o‘zida ijtimoiy fazilatlarni mujassamlashtirgan insonni ifoda etadi. Inson shaxs bo‘lib tug‘ilmaydi, balki jamiyatdagina shaxs bo‘lib shakllanadi.

Shaxs mustahkam imon - e’tiqod, g‘oya va insoniy fazilatlarga ega bo‘lgan, Vatan, millat tuyg‘usi bilan yashaydigan, o‘zida davr xususiyatlarini ifoda etadigan insondir.

O‘zbekistonda bozor munosabatlari sharoitida fozil va barkamol inson shaxsini shakllantirish dolzarb vazifalardan biridir.

Insonni o‘rganadigan fanga antropologiya deb yuritiladi. Antropologiya inson mohiyatini, uning tabiat va jamiyatdagi o‘rnini, o‘ziga xos xususiyat-larini o‘rganish bilan shug‘ullanadi. Antropologiyada inson mohiyatini to‘laroq ochish uchun “men”, “ong”, “shaxs”, “ruh” tushunchalari qo‘llaniladi. “Men” insonning o‘zligini tashqi olamdan, real borliqdan farqlashdir. “Men” ong tufayligina o‘zini boshqa borliqdan farqlaydi. Shaxs insonning mustaqilligini ifoda etadi. Inson o‘z

hayoti davomida tana va ruh ehtiyoj-larini qondirishga intiladi. Tana ehtiyojlarini qondirish inson borligining birlamchi sharti hisoblanadi. Biroq, hayotning ma’nosi faqat moddiy ne’matlardan bahramand bo‘lish, tanaparastlik, lazzatlanish, boylikka ruju qo‘yishdan iborat emas. Inson ruhi ham o‘ziga xos oziqqa ehtiyoj sezadi. Shu bois unda ma’rifatparvarlik,adolatlilik, rahm-shafqat, diyonat, vijdon, oliyhimmatlilik, vatanparvarlik kabi ma’naviy fazilatlar shakllanadi. Yuksak ma’naviyat insonni ruhan poklaydi, inson e’tiqodini mustahkamlaydi.

Mamlakatimizda shakllangan milliy g‘oya, mustaqillik mafkurasi insondagi moddiy va ma’naviy ehtiyojlarni uyg‘unlikda shakllantiradi.

Shaxs erkinligi demokratik qadriyatlar tizimida alohida o‘rin tutadi. “Erkinlik” tushunchasi har qanday shaxsga nisbatan emas, balki o‘z hatti-harakati, hulq-atvori va faoliyati uchun javobgarlikni his etadigan, ma’naviy jihatdan barkamol insonga nisbatan qo‘llaniladi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning eng muhim xususiyati - aholining muayyan qismining ijtimoiy himoyalanishda, ijtimoiy adolatning qaror topishida, ko‘p bolali oilalar, nogironlar, talabalar, yakka - yolg‘izlarning davlat tomonidan himoyalanishida namoyon bo‘ladi.

Komil insonni shakllantirishda ma’naviyat, odob - ahloq va ma’rifat singari qadriyatlar muhim o‘rin tutadi. Ana shu qadriyatlar kishilarda oliyjanob insonni fazilatlarni shakllantirishda asosiy manba bo‘lib xizmat qiladi.

**Ikkinchı savol.** Jamiyat va jamiyatning moddiy va ma’naviy hayoti masalasini yoritishda insoniyat azal - azaldan jamoa bo‘lib yashashi, Yer sayyorasi uning abadiy makoni, umumiy Vatanidir. Demak, jamiyat umumbashariy ma’noda odamzod-ning umri, hayoti o‘tgan hamma davri, joy va hududi bilan bog‘liq barcha o‘zgarish va jarayonlarni ifoda etadi.

Jamiyat moddiy va ma’naviy omillar yig‘indisidir. Jamiyatning moddiy va ma’naviy omillarini bir - biridan ajratib bo‘lmaydi.

Dunyoviy ta’limotlarga ko‘ra, odamlar o‘zlarining moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun bирgalikda yashashga, jamoa bo‘lib birlashishga ko‘nikkan. Kishilar jamoa bo‘lib yashashlari uchun o‘zaro munosabatlarga kirishgan kishilar ana shu munosabatlarni takomillashtirish, yanada rivoj-lantirish orqali ma’naviy kamolotga erishgan. Bu kishilarni bir - biriga yaqinlashtirish, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatini bergen.

Jamiyatning paydo bo‘lishi haqida turli xil ilmiy fikrlar ilgari surilgan. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino kabi mutafakkirlar kishilik jamiyatni paydo

bo‘lish sabablarini insonning boshqa mavjudotlarga nisbatan ongsizligi, birdamlik hissining rivojlanganligi bilan izohlaydilar. I. Kant jamiyatning vujudga kelishini ahloqning shakllanishi bilan bog‘laydi. Z. Freyd bu g‘oyani rivojlantirib, jamiyatning paydo bo‘lishida ahloqiylik muhim rol o‘ynaganligini asoslashga harakat qiladi. Hegel esa insoniyat jamiyatining vujudga kelishi mutloq ruh taraqqiyotining mahsuli deb hisoblaydi.

Marksizm ta’limoti bo‘yicha kishilik jamiyatining paydo bo‘lishida mehnat hal qiluvchi rol o‘ynagan. Insoniyat tarixi ma’lum ma’nodamehnat quollarining takomillashuv tarixidan iboratdir, degan qarashlar mavjud. Tarixiy tajriba bunday qarashlar bir tomonlama qarashlar ekanini ko‘rsatdi. Aslida ma’naviyat (ruhiy holat, ong, tafakkur, ahloq, iymon, e’tiqod, fan va h.k.) tufayli insoniyatning eng qadimgi ajdodlari aniq o‘z hatti - harakatlari, hulq - atvorini tartibga solgan, oila, kishilik jamiyati paydo bo‘lishga birlamchi sabab ong va tafakkurning rivojlanishi bilan inson mehnat qurollari yaratish, moddiy ne’matlar ishlab chiqarish va tabiatga qaramlikdan qutulish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Yuksak ma’naviyat tufayli insonning mehnat faoliyati ijtimoiy faoliyatga yaxshilik uchun xizmat qilgan. Aksinchi, ma’naviyat qashshoqlik tufayli, ilmsizlik tufayli mutaassiblik chuqurlashgan davrda ijtimoiy adolatsizlik kuchaygan.

Demokratik taraqiyoy yo‘lini tanlagan mamlakatlar iqtisodiy va siyosiy erkinligi sharoitida yuksak ma’naviyatning yuksalishiga, ilm - fan, san’at, ahloq, din va huquqni rivojlantirishga katta e’tibor bergenlar.

Ijtimoiy munosabatlarning amal qilish jarayonida odamlarni uyuştirishning tarixiy shakllari - oila, davlat, jamoa (qishloq, shahar) vujudga kelgan. Odamlar o‘rtasidagi amal qilinadigan ahloqiy, diniy, ilmiy, falsafiy, huquqiy, iqtisodiy, mafkuraviy kabi munosabatlarning barchasi br so‘z bilan aytganda ijtimoiy munosabatlar deyiladi. Ijtimoiy uyushmalar kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirishga yordam beradi. Masalan, oila, davlat, ta’lim - tarbiya, mahalla, Vatan kabi qadriyatlarsiz inson va jamiyat o‘z mohiyatini yo‘qotadi.

Insonning modiy ehtiyojlari oziq - ovqat, kiyim - kechak, uy- joy, transport vositalari, o‘zini himoyalash, surriyod qoldirish kabilardan iborat.

Ma’naviy ehtiyojlarga olamni bilish, o‘zlikni anglash, dunyoqarash, donishmandlikka intilish, bilim, san’at, g‘oya, mafkura kabilar ma’naviy kamolot yo‘lidagi intilishlar kiradi. Insonning asl mohiyati moddiy ehtiyoj-larni madaniy shakllarda qondirish uchun tabiat va jamiyat mohiyatini bilishga, moddiy va ma’naviy olamni uyg‘unlashtirishga, tabiat va jamiyatni o‘z maqsadlariga bo‘ysundirishga mos ravishda o‘zgartirishga harakat qiladi. Ilm - fan, texnika insonning ma’naviy va

moddiy ehtiyojlarini qondirish quroli, muhim vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Mamlakatimizda ma’naviyat masalalariga alohida e’tibor berilayotgan-ligining asosiy sababi ham shunda.

Jamiyatning moddiy hayotiga kishilarning yashashi, shaxs sifatida kamol topishi uchun zarur bo‘lgan iqtisodiy shart - sharoitlar oziq - ovqat, turar joy, kiyim

- kechak, moddiy ne’matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ishlab chiqarish jarayonida kishilar o‘rtasida amal qiladigan iqtisodiy munosabat-lar majmui, moddiy boyliklar va tabiiy zahiralar hisoblanadi.

Jamiyat rivoji, kishilarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlari qondirilishida mehnat, mulk va mehnatning ijtimoiy taqsimlanishi beqiyos ahamiyatga ega.

Mehnatni kishilarning qobiliyatiga qarab ijtimoiy taqsimlanishi natijasida muayyan kasb - kor bilan shug‘ullanadigan toifalar, guruh, qatlam va sinflar vujudga keladi va ular jamiyat strukturasida o‘ziga xos o‘rin egallaydi, jamiyat taraqqiyotida muayyan hissa qo‘sadi.

Falsafiy nuqtai nazardan jamiyatning mohiyati va rivojlanishiga oid turli nazariyalar mavjud. Xegel jamiyatning shakllanishi va rivojlanishi-ning sababini mutlaq ruhning rivojlanishi bilan, A.Feyerbax din bilan bog‘laydi, ijtimoiy taraqqiyot sabablarini diniy ong taraqqiyotidan izlaydi. Fransuz mutafakkiri O.Kant jamiyatning rivojlanish sabablarini insoniyat ma’naviy taraqqiyotining uch bosqichi (geologik, metafizik, pozitav bosqichlar) bilan izohlagan. K.Marks jamiyat rivojlanish sabablarini sinfiy kurash va inqilobiy o‘zgarishlar bilan bog‘lagan. Ziddiyatlarni hal qilishning asosiy usuli ijtimoiy inqilobni amalgalashishni, mulkdorlar sinfini tugatishni tashkil etadi.

Jamiyat taraqqiyoti ko‘p bosqichli jarayon ekanligi to‘g‘risidagi qarashlar AQSH faylasufi O.Tofflerning qarashiga ko‘ra jamiyatlar taraqqiyotiga binoan agrar jamiyat, individual jamiyat, posindustrial jamiyatga ajratadi.

Bunday yondashuvga ko‘ra, hir bir halq o‘zining betakror o‘ziga xos turmush tarzini saqlab qolgan xolda, boshqa halqlar tajribasidan ijodiy foydalanish orqali ijtimoiy taraqqiyotning o‘ziga xos mos modelini yaratdi.

Xozirgi zamon falsafasining ilg‘or namayondalari shaxs erkinligi darajasining o‘sib borishi jamiyat rivojlanishining muxim ko‘rsatkichi, o‘lchovi deb hisoblaydilar. Har qanday jamiyat o‘zining oldiga o‘ziga xos maqsad va vazifalar qo‘yadi. Ushbu maqsad va vazifalarni o‘z vaqtida xal qilish istiqboli bilan yashasa yuqori muvaffaqiyatlarga erishadi. Uning maqsad va vazifalari davlatning Konstitutsiyasida, qonunlarida, ichki va tashqi siyosatida uz ifodasini topadi.

Har qanday jamiyat uz oldiga quygan maqsadlarga erishish imkoniyat-laridan tuliq foydalanib bulgach, muqarrar ravishda umumiy inqiroziga duch keladi. Shu paytgacha ijtimoiy taraqqiyotni taminlagan g‘oyalar tizimini keyingi rivojlanish yo‘liga tusiq bo‘lib qoladi. Bu yunalish jamiyatning boshqa soxalarida ham amal qiladi.

Prezident I.A .Karimov xalqimizning ma’naviyatini yuksaltirish, uning siyosiy va xuquqiy madaniyatini rivojlantirish mamlakatimizda ochiq va erkin demokratik jamiyat barpo etish yunalishlarini oxirini qayt etadi. Jamiyatning hayotida barqarorlik va bekarorlik ham xosdir.

Barqarorlik-jamiyat taraqqiyotining tadriji rivojlanishi, ijtimoiy tizimning muayyan darajadagi bir tekis faoliyat ko‘rsatish imkoniyatidir. U turg‘unlik tushunchasidan keskin farqlanadi.

Jamiyatda barqarorlik bekarorlik bilan, inqiroz gullab yashnashi bilan almashib turishi ham mumkin. Insoniyat hayoti tarixida jamiyat barqaror-ligini ta’minlashning monarxiyaga asoslangan, arxitekratik, totalitar va demokratik usullar tajribadan o‘tgan.

Beqarorlik ichki va tashqi jarayon va tahdidlar natijasida vujudga keladi. Beqarorlik bir ijtimoiy - siyosiy tuzumdan, boshqa ijtimoiy - siyosiy tuzumga o‘tish davrida keskinlashishi mumkin. Jamiyat barqarorligi-ningi izdan chiqishi kishilar psixologiyasidagi salbiy o‘zgarishlarda, qonunlarning ishlamasligida, ijtimoiy burchning ado etilmasligi, g‘oya va mafkuraga nisbatan loqaydlik, adolatsizlik va boshqalarda aholini boshqarishda kuchizlik va boshqalarda yaqqol ko‘rinadi.

Jahon tajribasi har bir mamlakat va har bir halq o‘z taraqqiyot yo‘lini o‘zi tanlashi huquqiga ega bo‘lishi jamiyatda barqarorlikni ta’minlash usuli ekanligini ko‘rsatmoqda.

O‘zbekiston milliy mustaqillikka erishgach, o‘z taraqqiy yo‘lini o‘zi tanlashi, o‘z davlatchilik asoslarini o‘zi tanlash imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Demokratik jamiyat uchun inson manfaatlari erkinligi va qadr - qimmati oliy qadriyat hisoblanishi, bir jamiyatdan ikkinchi jamiyatga islohotlarni larzalarsiz o‘tkazish asosiy masala hisoblanadi.

O‘tish davri har bir halq, millat uchun uchun o‘ziga xos uslubda ztiladi.

O‘zbekistonda o‘tish davri va uning o‘ziga xos tamoyillari Prezident I.A.Karimov tomonidan atroficha asoslab berilgan.

**Uchinchi savol.** Ijtimoiy rivojlanishning o‘zbek modeli insoniyatning rivojlanish borasidagi ilg‘or tajribasiga, milliy davlatchilik tajriba-larimizga va halqimiz mintalitetiga tayanadi.

Inqilobiy rivojlanish borasida halqlar odatda ikki yo‘ldan - inqilobiy va tadrijiy yo‘ldan borgan. O‘zbekiston Prezidenti I.Karimov ijtimoiy taraqqiyotning tarixi yo‘lidan borib, bu yo‘lni

shunday izohlaydi: “Soxta inqilobiy sakrashlarsiz, ... evolyutsion yo‘l bilan normal, madaniyatlari taraqqiyotga o‘tish - tanlab olingan yo‘lning asosiy mazmun va mohiyatidir. Bozor iqtisodi sari buyuk sakrashlar, inqilobiy qayta o‘zgarishlar yo‘li bilan emas, balki sobitqadamlik va izchillik bilan bosqichma - bosqich harakat qilish kerak” deb qayd etadi.

O‘zbek modelining asosiy tamoyillari quyidagilardir:

1. iqtisodning siyosatdan ustivorligi;
  2. davlat bosh islohotchi;
  3. qonunning ustivorligi;
- \* I. A. Karimov. “O‘zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura”. 1-jild. 40-41betlar.
5. bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich, tadrijiy yo‘l bilan o‘tish.

O‘zbek modelining hayotiyligi jahor jamoatchiligi tomonidan e’tirof qilindi. O‘zbekiston tajribasi qator mamlakatlar uchun namuna bo‘lib xizmat qilmoqda. Sababi, bu model davlatchilik asoslarining, milliy qadriyatlar-ning qayta jamlanishi, o‘zlikni anglash, umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligi, milliy mintalitetga xos xususiyatlarning tiklanishi hamda inson huquqlarining kafolatlanishi va boshqalarni o‘z ifodasini topgan. Kishilarda yangicha ma’naviy iqtisodiy tafakkur, tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirishda zamonaviy ilm - fan, texnika va texnologiya asoslarini egallash muhim ahamiyat kasb etadi.

Jamiyat va oila mohiyatan bir - biri bilan bog‘liq. Oilada jamiyatning tub mohiyati o‘z aksini topgan, oilani kichik jamiyat deyish mumkin. Oilani mustahkamlash jamiyat barqarorligi va qudratning muhim shartidir. Shu boisdan ham davlat oilani o‘z himoyasiga oladi.

Jamiyatdagi ma’naviy, ahloqiy mohiyatning sog‘lomligi ko‘p jihatdan oilaviy madaniyatga bog‘liq. Mustaqillik eng avvalo oilaviy qadriyatlarni tiklashga alohida e’tibor berdi. Hadisi sharifda ham ona va ayolning muqaddasligi to‘g‘risidagi g‘oyalar oilaviy munosabatlarni takomillash-tirishda muhim ahamiyatga ega. Sog‘lom barkamol avlod tarbiyasi ko‘p jihatdan ayolning ma’naviy salohiyati, bilimi, sog‘lomligi kabi yo‘nalishlarga bog‘liq. Respublikamizda “Oila” ilmiy - amaliy markazining tashkil etilganligi ham davlatimizning oilaviy munosabatlarga katta e’tibor berayotganligidan dalolatdir.

Davlat - jamiyatning boshqarish, tartibga solish, ijtimoiy baqarorlik-ni ta’minlashda qaratilgan alohida muassasadir.

Jamiyat ma’naviy salohiyatining yuksalib borishi bilan siyosiy boshqarish shakllari va usullari ham takomillashib boradi. Mustaqillik yillarda milliy davlatchilik an’analarining tiklanishi davlatning

tashkilotchilik, bosh islohotchilik faoliyati yangicha mazmun va mohiyat kasb etadi.

Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan taraqqiyotning o'zbek modeli konsepsiyasining amalga oshirilishida davlat hal qiluvchi o'rinni tutadi. Mamlakatimizning siyosiy, huquqiy hayotida amalga oshirilayotgan tub islohotlar

siyosiy boshqaruvni yanada takomillashtirishga yurtimizda huquqiy demokratik davlat barpo etishga, kuchli davlatdan kuchli jamiyatga o'tishga qaratilgandir.

Jamiyat hayotida turli jamoalar, tashkilot va uyushmalar ham faoliyat ko'rsatadi. Jumladan, siyosiy partiylar, siyosiy harakatlar, kasaba uyushmalari, kamolot yoshlar harakati, mahalla qo'mitalari kiradi. Mamlaka-timizda amalga oshirilayotgan barcha islohotlar inson salohiyatini yanada yuksaltirishga, yurtimizda fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgandir.


Demokratik jamiyat barpo etish - O'zbekiston taraqqiyotining bosh maqsadidir. Bu jamiyat kishilarning yuksak ahloqi - siyosiy va huquqiy madaniyatiga asoslanga demokratik taraqqiyoning yuqori bosqichidir.

Mamlakatimizda mahalla, hokimiyat organlarining tashkil etilishi, ular vakolatining kuchaytirilishi muhim ahamiyat kasb etmoqda.

### **Jamiyatning moddiy hayoti**

- Kishilarning yashashi uchun zarur bo'lgan iqtisodiy shart-sharoitlar
- Oziq-ovqat, kiyim kechak, tarur joy, kommunikasiya vositalari
- Moddiy ne'matlar ishlab chiqarish, taqsimlash, ayriboshlash va iste'mol qilish
- Ishlab chiqarish jarayonida kishilar o'rtaida amal qiladigan iqtisodiy munosabatlarni majmui
- Moddiy boyliklar, tabiiy zahiralar

## Jamiyatning ma'naviy hayoti



### Tayanch so'z va iboralar

Jamiyat, inson, shaxs, individ, ma'naviyat, madaniyat, ishlab chiqarish, mehnat, taraqqiyot, sivilizatsiya, mustaqillik, model, inqilobiy, tadrijiy, nazariya, barqarorlik, beqarorlik, oila, davlat, huquq, jamoa, siyosat, siyosiy partiyalar, demokratiya, barkamol avlod, mahalla, hokimiyat.

### Adabiyotlar

1. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda". - T., "O'zbekiston", 2000 yil.
2. Karmov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfsizlikka tahdid, barqarorlik shaktlari va taraqqiyot kafolatlari" - T., "O'zbekiston", 1997 yil.
3. Karimov I.A. "Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori" - T., "O'zbekiston", 1997 yil.
4. Karimov I.A. "O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li". O'zbekiston

Mustaqilligining 16 yilligiga bag‘ishlangan qo‘shma majlisda ma’ruzasi. “O‘zbekiston ovozi”, 2007 yil 31 avgust.

5. Karimov I.A. “Erkin va farovon hayotni yuksak ma’naviyatsiz qurib bo‘lmaydi”. - T., “O‘zbekiston”, 2006 yil 3-26 betlar.
6. Komil inson haqida to‘rt risola. T., 1997 yil.
7. Karimov S.K. “G‘oyaviy kurash: yo‘nalishlar, tamoyillar, tushunchalar” Samarqand - 2006 y.
8. Karimov S.K., Suyunov S.X. “Tarbiya tayanchi”. Samarqand, 2006 y.
9. Ibragimov M.I., Suyunov S.X. “Amir Temurning davlatni boshqarish siyosati” (Ma’ruzalar matni). Samarqand, 1997 y.
10. Shomuhamedov Sh. “Xazinalar jilvasi” - T., 1981 yil.
11. Suyunov S.X., To‘xliyev B.S. “O‘zbekiston mustaqilligining nazariy - falsafiy muamolari” (Ma’ruza matni). Samarqand - 1999 y.
12. “Falsafa” (Ma’ruza matni). - T., 2000 y. 229 - 246 betlar.
13. Falsafa asoslari. - T., “O‘zbekiston”, 2005 y. 272 - 281 bet

#### **Mavzu №10. Ma’naviyat va g‘oyalar fasafasi** Mavzuning

maqsadi:

Ushbu mavzuni yoritishda ma’naviyat tushunchasi va uning mazmuni, ma’naviyat ijtimoiy hodisa ekanligi, ma’naviyatning paydo bo‘lishi va mohiyati to‘g‘risidagi konsepsiylar, ma’naviyatning inson va jamiyat hayotidagi o‘rni, ma’naviy meros va hozirgi zamon masalalari hamda o‘zbek ma’naviyati tushunchasi, istiqlol davrida ma’naviy o‘zgarishning mohiyati, ma’naviyatning iqtisod, siyosat, san’at, huquq va boshqa sohalar bilan hamkorligi, mustaqilik davrida yosh avlodni milliy g‘oya ruhida tarbiyalashning o‘ziga xos xususiyatlari kabi masalalarni yoritib berishdan iborat .

#### **Mavzuning rejasi:**

1. Ma’naviyat tushunchasi, uning mohiyati.
2. Ma’naviyatning tarkibiy qismlari. Urf - odat an’ana va marosimlar.
  3. Ma’naviyatning milliy va umuminsoniy jihatlari, iqtisod va ma’naviyat birligi .

#### **Birinchi savol.** Ushbu savolda ma’naviyat tushunchasi, ya’ni ma’naviyat

ijtimoiy hodisa ekanligiga to‘xtalar ekanmiz, “Ma’naviyat tushunchasi” atam-asi rasmiy hujatlarda, ilmiy adabiyotlarda ilmiy tushuncha sifatida alohi-da tahlil etilmagan. Ayniqsa, Sobiq Ittifoq davrida asosan uni inkor qi-lish va unga past nazar bilan qarash mavjud edi. Falsafa fanida ham katego-riya

sifatida unga o‘rin ajratilmagan. Bunday holatning sababi esa ijtimoiy taraqqiyotda ma’naviyatning o‘rnini ilg‘ay bilmaslik yoki uni inkor qilishda edi. Marksizm falsafasida ma’naviyat tushunchasiga o‘rin ajratilmagan edi.

Mustaqillik natijasidagina iqtisodiy omillar bilan birgalikda ma’naviyat masalalariga ham alohida e’tibor berildi. Bu e’tibor faqat nazariya sohasida emas, amaliyatda ham namoyon bo‘ldi. “Halqning ma’naviy ruhini mustahkamlash va rivojlantirish, - deb yozgan edi Prezident Islom Karimov, - O‘zbekistonda davlat va jamiyatning eng muhim vazifasidir”<sup>1</sup>. Mamlakatimizda ma’naviyat masalalari bo‘yicha o‘quv rejalarini va dasturlar tuzildi. O‘rtalik Oliy o‘quv yurtlarida Ma’naviyat fani kiritildi. Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat markazi” tuzilib, barcha viloyat, shahar va tumanlarda uning bo‘limlari ochildi. 1999 yilda Respublika “Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi” tuzildi. 2006 yil 25 avgustda “Milliy g‘oya targ‘iboti va ma’naviy - ma’rifiy ishlarni takomillashtirish va ularning samaradorligini oshirish” nomli Prezidentimizning farmoni e’lon qilindi. Respublika Ma’naviyat va ma’rifat Kengashi strukturasida o‘zgarishlar qilindi.

Bu sohada tadqiqotlar olib borish boshlandi. Ma’naviyat sohasiga ta’riflariga e’tibor boshlandi. “Ma’naviyat” so‘zining negizida arabcha “ma’ni” so‘zi yotadi.

“Ma’naviyat” so‘zi qanchalik purma’no ekani uning ko‘p qirraligi to‘g‘risida

I. A.Karimov shunday yozadi: “Yer, oila, ota - ona, bolalar, qarindosh-urug‘lar, qo‘ni - qo‘shnilar, halq, vijdon, mustaqil davlatimizga sadoqat, insonlarga hurmat, ishonch, xotira, erkinlik - ma’naviyatning ana shunday ma’nosini keng” .

<sup>1</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T., “O‘zbekiston”, I-tom, 1996 y. 80 bet

<sup>2</sup> Karimov I.A. O‘zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura. T., “O‘zbekiston”, I-tom, 1996 y. 72 bet

Falsafiy adabiyotlarda keng qo‘llaniladigan tushunchalar ichida ma’naviyatga yaqin turadigani ong tushunchasidir. Ular o‘rtasida munosabatlar shunday yaqinki, ma’naviyatsiz ong yoki ongsiz ma’naviyat bo‘lishi to‘g‘risida gap ham yuritib bo‘lmaydi. Lekin, bundan “ma’naviyat” va “ong” aynan bir tushuncha, degan xulosa chiqmaydi.

Ong tushunchasining ko‘lami ham kengdir. Ijtimoiy ongning turli shakl-lari, nomidan ham ko‘rinib turganidek, shakl vazifasini bajarsa, ularning mazmuni ma’naviyatni tashkil qiladi. Bizningcha, ba’zi izohlar bilan ong va ma’naviyatning mazmuni, deb qabul qilish mumkin. Shu bilan birga, ma’naviyat ham o‘z tarkibidagi hodisalarga nisbatan shakl vazifasini bajarishi mumkin.

**Ikkinchchi savol.** Endigi vazifa ma’naviyatning tarkibini aniqlashdan iborat. Ma’naviyatning ijtimoiy hayotdagi o‘rni va ahamiyati ko‘p jihatdan uning tarkibiga bog‘liq. Ma’naviyat tarkibiga kiruvchi ong, tafakkur, san’at, ahloq din, e’tiqod kabi ko‘plab tushunchalar falsafa, ruhshunoslik,

etika, san'atshunoslik, estetika, adabiyotshunoslik kabi fanlarda tahlil qilingan.

Ma'naviyat ham o'z tarkibiga kiruvchi ko'plab unsurlarning o'zaro ta'siriga kirishi oqibatida shaklanadi. Ma'naviyat bilimlar negizida shakllanadi. Ma'no so'zning mag'zi bo'lgani kabi ilmning mag'zi bilimdir. Insonda yoki jamiyatda bilim qancha ko'p bo'lsa, ma'naviy yuksalish ham shunchalik mustahkam, poydevor yaratilgan bo'ladi. Bilim ma'naviyatning asosini tashkil qiladi.

Bilimlarning ta'siri shundaki, ular ma'naviyatni yuksaltirishga xizmat qilishi bilan birga, ma'naviyatga qarshi qaratilishi, ma'naviyatga putur yetkazishi ham mumkin. Masalan, insoniyatga juda katta ofat keltirgan orasida ham juda bilimli, fanlarni yaxshi egallaganlari talaygina edi. Lekin ular o'z bilimlaridan insonlar va ularning ma'naviyatini, hayotini yuksaklikka ko'tarish uchun emas, ularni urib, kamsitib, yo'q qilishga urindilar. Aytish mumkinki, ilm va bilim insoniy qadriyatlar va insoniy ahloq bilan uyg'unlashgandagina yuksak ma'naviyatga asos bo'ladi.

Yosh avlodga bilim berganda ta'lim jarayonini tarbiya bilan uyg'un olib borish yuksak m'naviyatni shakllantirishga bosh yo'nalishdir. Ma'naviyat tarkibiy qismlaridan biri ahloqdir. O'tash ma'noda inson bilimlarini, aql - zakovatini, kuch - quvvatini, butun faoliyatini yo'naltiruvchi kuchdir. Aslida, ahloq faqat hulqni emas, tafakkurni, aqlni va inson faoliyatini tartibga solibgina qolmay, muayyan tomonga, maqsadga yo'naltirib ham turadi. Kishining hulqi, faoliyati ma'lum ahloqiy me'yorlardan chetga chiqsa yoki ulardan quyiroq bo'lsa, bunday shaxs ma'naviyatsiz shaxs hisoblanadi.

Kishi hulqini faqat ahloq emas, urf - odatlar, an'analar kabi hodisalar ham boshqaradi. Ular esa ahloq tarkibiga kirmaydi. Bu hodisalar ahloq tarkibiga kirmasa ham ma'naviyat tarkibida sezilarli o'rin tutadi.

Urf - odat, rasm - rusum, an'ana va marosimlarning ma'naviyat bilan o'zaro ta'siri shundaki, oqilona jamiyatning taraqqiyot darajasiga mos keladigan an'ana va marosimlar ma'naviyatni boyitishga, rivojlantirishga xizmat qiladi. Masalan, ilm - fanga, hunar o'rganishga intilish, kattalarga hurmat singari ko'plab an'analar ma'naviyat rivojiga xizmat qiladi. Shu bilan birga oshiqcha isrofgarchilik, dabdaba bilan o'tkaziladigan marosimlar millat ma'naviyatiga putur yetkazish bilan birga iqtisodga ham salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Bir vaqtlar halqning ijtimoiy va ma'naviy darajasiga mos bo'lgan marosimlarning ba'zilari vaqt o'tishi bilan, iqtisodiy va ma'naviy taraqqiyot tufayli shu halq rivojiga to'siq bo'lib qolishi mumkin.

Ma'naviyat tarkibidagi muhim hodisalardan biri e'tiqoddir. E'tiqod muayyan g'oyani,

ta'limotga bo'lgan qat'iy ishonchni anglatadi. Demak, e'tiqod bo'lishi uchun avvalo o'sha g'oya, ta'limotning o'zi bo'lishi lozim. G'oya va ta'limotlarda odamlarning, ijtimoiy guruhlarning manfaatlari aks etadi.

Milliy va ijtimoiy g'oya vujudga kelishi uchun odamlar mavjud manfaatlarni anglab yetishlari kerak. Manfaatlarni anglash darajasi ham turlicha bo'lishi mumkin. Odamlar va ijtimoiy guruhlari o'z manfaatlarini chuqur anglab yetgach, bu manfaatlarni ro'yobga chiqarish yo'llari to'g'risida ham puxta tasavvur hosil qilganlaridan keyingina milliy va ijtimoiy g'oyani yaratish imkoniyati tug'iladi.

Ijtimoiy guruhlari mavjud manfaatlarni to'la anglamagan va ularni ro'yobga chiqarish yo'llari to'g'risida yetarli bilimga ega bo'limgan sharoitda ijtimoiy g'oya yaratilsa, u ko'pchilikning ongiga chuqur kirib bormaydi. Manfaatlarni anglash, ularni ro'yobga chiqarish yo'llari va usullari haqida yetarli bilimlar asosida vujudga kelgan ijtimoiy g'oya shu ijtimoiy guruhning har bir a'zosi ongiga qanchalik chuqur singib borsa, shunchalik mustahkam e'tiqod paydo bo'ladi. E'tiqodga tayanmagan va e'tiqodga aylanmagan g'oya quriq safsata bo'lib qoladi.

E'tiqod alohida bir fikr yoki xulosaga nisbatan emas, balki odatda fikrlar va xulosalar tizimi negizida paydo bo'lgan g'oya yoki ta'limotga nisbatan shakllanadi. Siyosiy, diniy, ahloqiy e'tiqodlar xuddi shu yo'sinda maydonga keladi. E'tiqod - ma'naviy ustunlaridan biridir. E'tiqodsiz ma'naviyat yuksaklikka ko'tarila olmaydi. Uni yuksaklikka qat'iy ishonch, mustahkam e'tiqodgina eltishi mumkin. Shuning uchun ham Amir Temur bobomiz o'z tuzuklarida: "Dilda e'tiqod butun bo'lsa, aslo naslimiz yo'qol-magay, tilimiz unutilmagay, e'tiqod susaysa til emas iymon ham unutilgay" deb qayd etganda u haq edi.

Shuning uchun ham e'tiqod muayyan g'oya va mafkuraga oddiy ishonish emas, balki u qat'iy ishonch natijasida vujudga keladi, kuchli ishonch, his - tuyg'ular ta'sirida voyaga yetadi. Insonning eng kuchli va yuksak tuyg'ularidan biri esa muhabbatdir. Elga, diyorga, halqqa muhabbat e'tiqod tarkibidagi eng muhim qismlardan hisoblanadi.

Butunlik sifatida ma'naviyatning eng asosiy xususiyatlaridan biri uning ochiq tizim ekanligidadir. Ma'naviyatni tashkil etuvchi unsurlarning har biri boyib va boshqa unsurlar bilan mutanosiblikda rivojlanib borgani sari ma'naviyat ham boyib, rivojlanib boradi.

Har bir halqning ma'naviyati boshqa halqlar ma'naviyatidan oziq olishi mumkin, amo uni zo'r lab kiritib bo'lmaydi.

**Uchinchi savol.** Ma'naviyatning milliy va umuminsoniy jihatlari bir - biri bilan uyg'unlikda mavjuddir. Bu uyg'unlik ma'naviyat tarkibiga kirgan unsurlarda milliy va umuminsoniy jihatlarning

uzviy bog‘liqligi bilan izohlanadi. Jumladan, ahloq, san’at, din singari ijtimoiy hodisalarga ham milliy, ham umuminsoniy jihatlar mavjud bo‘lib, ularning mutanosibligi ma’naviyatga milliylik va umuminsoniylik mutanosibligini belgilaydi.

Shuning uchun ham ma’naviyatdagi milliylik va umuinsoniylik nisbati uning tarkibidagi ahloq, san’at, mafkura singari hodisalarda shu jihatlar-ning qanday mutanosiblikda ekaniga bog‘liq.

O‘zbeklar ahloqidagi oriyat, diyonat, kattalarga hurmat, mehmondo‘stlik kabi sifatlarga ularning ruhiyatidagi samimiylig, insof - bag‘rikenglik, sharmu - hayolik jihatlari, milliy adabiyot va san’ati qo‘shilib, o‘zbek ma’naviyatining o‘ziga xos xususiyatlarini shakllantiradi.

Sho‘rolar hukmronligi davrida o‘zbek milliy ma’naviyatining hayotbaxsh sarchashmalarini halq tarixidan uzib qo‘yishga, sun’iy baynalmilallah-tirishga harakat qilindi. Markazning millat va halqlarni bo‘lib tashlash va hukmronlik qilish siyosati natijasida halqimiz ichida boqimandalik kayfiyatlar kuchaydi. Milliy istiqlol qo‘lga kiritilgandan keyingga bu salbiy sifatlardan qutulish va milliy ma’naviyatning o‘zagi bo‘lgan milliy g‘oya va milliy mafkura atrofida halqni jipslashtirish imkonи tug‘ildi.

Jamiyat taraqqiyotida ma’naviyatning o‘rni naqadar muhimligini shundan ham bilish mumkinki, bu taraqqiyot o‘zaro uzviy bog‘langan ikki jarayon, ya’ni moddiy ishlab chiqarish va ma’naviy boyliklar ishlab chiqarishning birligidan iborat.

Jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti va ma’naviy yuksalish o‘rtasidagi bog‘lanishini olim va faylasuflar turlicha izohlaganlar.

Iqtisodiyot va ma’naviyatning o‘zaro bir - biriga bog‘liqlik darjasи, ular o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirning har bir yo‘nalishidagi kuchi va davomiyligi turli davrlarda turlicha bo‘lgan.

Qadimgi Yunoniston va Rimda ma’naviyatning yuksak cho‘qqilarga ko‘taril- ganini hamma biladi, shu bilan birga shu davrda bu hudud iqtisodiyoti o‘sha davr jahon taraqqiyotining eng yuksak cho‘qqisiga ko‘tarilgan.

Movarounnahr tarixida ham ma’naviyat va iqtisodiy taraqqiyotning inqirozga uchraganini ko‘rish mumkin. Jumladan, melodiy IX - XII asrlarda bu o‘lkada ham ma’naviy, ham iqtisodiy sohada ulkan ko‘tarilish yuz bergen. Sharq Uyg‘onish davri dunyoviy va diniy ilmlar, adabiyot va san’atning mislsiz rivoji bilan harakterlanadi. Shu davrda buyuk olimlar Ahmad Farg‘oniy, Yusuf Xos Hojib, Abu Nasr Forobiy,

Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, al - Xorazmiy, Zamaxshariy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy va ko‘plab olimu - fuzalolarni kiritish mumkin. Lekin bu davrda iqtisodiy yuksalish haqida

kam yozgan. Iqtisodiy rivojlanish, umuman savdoning, xususan tashqi savdoning qay darajada rivojlanganligida o‘z aksini topgan. Tashqi savdo nihoyatda rivojlangan.

1150 yilda Vengriyaga borgan arab sayyohi Abu Hamid al - Xornatiy u yerdagi bozorlar va savdogarlar to‘g‘risida shunday yozgan edi: “Unkuriya deb ataluvchi bu mamlakat 78 ta shahardan iborat. Bu shaharlardan har biri ko‘plab qal‘a, qishloq, tog‘, o‘rmon va bog‘larga ega. Ularda minglab mag‘ribliklar yashaydi. Ularning son - sanog‘i yo‘q. Ularda minglab Xorazmliklar ham yashaydi. Ularning ham son - sanog‘i yo‘q. Xorazmliklar savdo bilan shug‘ulla-nadi va podshoga xizmat qiladi”.

Tarixda iqtisodiyot va ma’naviyatning o‘zaro bir - biri bilan bog‘liq-ligini faqat ma’naviyat bilan shug‘ullanuvchi mutaxassislar emas, iqtisodchi olimlarning ko‘pchiligi ham to‘g‘ri anglaganlar. Masalan, XX - asrning ko‘zga ko‘ringan iqtisodchilaridan biri Jon Meynord Keyns bu aloqadorlikni anglabgina qolmay, o‘zining dindagi, fandagi xizmatini asosiy ruhiyat qonuni kashf etishda, deb bilgandi.

Bu qonunga ko‘ra, daromadlarning o‘sishi, boylik orttirishi natijasida iste’molga bo‘lgan mayl pasayadi. Odamlarda hisob - kitob bilan iste’mol qilish, ehtiyyotkorlik, baxillik kabi xususiyat va mativlar paydo bo‘ladiki, ular endi talabning pasayishiga va u orqali ishlab chiqarish sur’atlarining sekinlashishiga olib keladi. Keyns jami sakkizta shunday mativni aniqlagan edi. Keynm aniqlagan mativlar va ularning ishlab chiqarishga ta’siri alohida babs talab qiladi. Lekin iqtisodchi sifatida jahonga mashhur bo‘lgan ruhiyatga aloqador masalalar bilan jiddiy shug‘ullanishi e’tiborga molikdir.

Ma’naviyat iqtisodiy jarayonlarni harakatga keltiruvchi, rivojlanti-ruvchi muhim omillardan hisoblansa ham uning o‘zi iqtisodiyot bilan uzviylikda yuqori cho‘qqilarga ko‘tarilishi mumkin. U iqtisodiy tushkunlik davrida ham rivojlnana olsa ham, uning haqiqiy yuksaklikka ko‘tarilishi iqtisodiy o‘sish, rivojlanish davrida yuz beradi.


Sharq Uyg‘onish davrida ham, G‘arb Uyg‘onish davrida ham ma’naviyat va iqtisodning birgalikda, uzviy bog‘liqlikda rivojlanganligini ko‘ramiz.

Bundan ko‘rinadiki, ma’naviyat iqtisodiyotdan uzoqlashar ekan, asta - sekin inqirozga uchragan. Shunday ekan iqtisod va ma’naviyatni bir - biridan ajratish mumkin emas.

Shunday ekan, XIX - XX asr adabiyotini mumtoz namunasi hisoblangan. Ba’zan, Edgar Po, Jek London singari yozuvchilar o‘z asarlarida yaratgan qahramonlarning asosiy qismining maqsadi boylik to‘plash va u uchun kurashni oldingi o‘ringa qo‘yadi.

Shu munosabat bilan ma’naviyat va iqtisodni bir - biri bilan bog‘liq, bir - birini tushunib

boradi, deb tushunish maqsad muvofiqdir.



### Tayanch so‘z va iboralar

Ma’naviyat, madaniyat, iqtisod, milliy, bilim, ahloq, urf - odat, rasm - rusum, an’ana, ijtimoiy guruh, ijtimoiy qatlam, san’at, fan, milliy, umuminsoniy, bog‘lanish, rivojlanish, e’tiqod, g‘oya, muhabbat.

### Adabiyotlar

1. Karimov I.A. “O‘zbekiston buyuk kelajak sari”. - T.: “O‘zbekiston”, 1998y.
2. Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI - asrga intilmoqda”. - T.: “O‘zbekiston”, 1999y.
3. Karimov I.A. “O‘zbekistonning 16 - yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li”. O‘zbekiston Mustaqilligining 16 yilligiga bag‘ishlangan qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi. 2007 yil 31 avgust.
4. Alisher Navoiy. “Majolis un - Nafoyis”. - T.: 1986y.
5. Avloniy. “Turkiy guliston yoxud ahloq”. - T.: “O‘qituvchi”, 1992y.
6. Komil inson haqida to‘rt risola. - T.: 1997y.
7. Mo‘minov I.A. “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli”. - T.: “Fan”, 1993y.
8. Karimov S.K. “G‘oyaviy kurash: yo‘nalishlar, tamoyillar, tushunchalar”. Samarqand -2006.
9. Suyunov S.X., Haydarov. “Markaziy Osiyo mutafakkirlarining falsafiy me’rosi” Ma’ruzalar

matni. Samarqand, 2000y.

10. Suyunov S.X. "Yoshlarni milliy istiqlol g'oyasi ruhida tarbiyalashning asosiy mezonlari". Samarqand - 2006y.
11. Jabborov A. "Insonparvarlik - eng go'zal hislat" "Muloqot" jurnali, 2004 yil may - iyun, №3. 15 - 16 betlar.
12. Falsafa asoslari. T.: "O'zbekiston", 2005, 291 - 300 betlar.
13. Jamolov U.J. "Hayot mazmuni - umr saboqlari". Toshkent, "Fan" nashriyoti, 2007 y., 13 - 78 betlar.

### **Mavzu №11. Qadriyatlar falsafasi. O'zbekistonda inson qadri va shaxs erkinliklari.**

#### **Mavzuning maqsadi:**

Mavzuni yoritishda qadriyatlar mavzusining mazmun - mohiyati, qadriyat-lar tarixi, sharqona qadrlash tamoyillari hamda o'tmishda qadrlash me'yor-lariga munosabat masalalari, qadriyat kategoriyasi, Aksiologiya - qadriyatlar to'g'risidagi fan, uning rivojlanish imkoniyatlari kabi masalalarni nazariya va amaliy dalillar asosida ochib berish.

Shu bilan birga O'zbekistonda milliy qadriyatlarni asrab - avaylash hamda hozirgi zamon qadriyatlari, ularning jamiyat hayotidagi o'rni, Yosh avlodni inson qadr - qimmatini hurmatlash va uning qadriga yetish haqida tarbiyalash kabi masalalarni yoritishga qaratilgan.

#### **Mavzuning rejasি:**

1. Qadriyatlar mavzusining tarixi va qadrlash tamoyilining o'ziga xos xususiyatlari;
2. Qadriyatlar kategoriyasi, uning asosiy shakllari;
3. Qadriyatlarning jamiyat va inson hayotidagi ahamiyati, inson qadri.

**Birinchi savol:** Qadriyatlar mavzusining tarixi masalasida qadriyatlар to'g'risidagi fan aksiologiya (aksio - qadriyat, logos - fan, ta'limot ma'no-sini bildiradi) falsafaning shu masalani o'rganadiga va u bilan shug'ullana-digan sohasi hisoblanadi. Istiqlol tufayli qadriyatlar to'g'risidagi qarash-larimiz shitob bilan o'zgardi. O'zbekistonda qadriyatlarga munosabat ko'paydi, uning turli tomonlari olimlarimiz tomonidan tahlil qilina boshlandi.

G'arb olimlari bu sohada Yevropa madaniy merosini o'rganish ong yo'lga qo'yildi. G'arbda

qadriyatlar bilan shug‘ullanadigan falsafiy soha-aksiologiya deb

ataladi. Bizda ham Suqrot va Aflatun, Aristotel va Xegellar katta e’tibor bergen bu mavzuning G‘arb falsafasida o‘z tarixiga ega ekanligidan dalolat beradi.

Qadriyatlar qarashlar Sharqda ham o‘z tarixiga ega. Nomlari siviliza-siyamiz tarixiga abadiy bitilgan Xorazmiy, Forobiy, al-Buxoriy, at-Termi-ziy, Beruniy, ibn Sino, Bedil, Behbudiy, Avloniy kabi mutafakkirlar qadriyatlar haqidagi qarashlar o‘z aksini topgan. Gap hozirgi mustaqillik davrida ushbu qarashlarni xolisona to‘g‘ri o‘rganishni talab etadi.

Ajdodlarimiz yaratgan qadrlash mezonlarining tarixi eng qadimgi naqlar, rivoyatlar, afsona, hikoyat, dostonlarda, jumladan Spitamen, Muqanna va Jaloliddin Manguberdi to‘g‘risidagi asarlarda, Alpomish, To‘maris va Shiroq to‘g‘risidagi afsona va dostonlarda vatanparvarlik, halq va yurt ozodligi uchun fidoyilik kabi ko‘plab umuminsoniy qadriyatlar tasvirlangan.

Ma’naviy merosning yorqin namunasi - “Avesto” Zardushtiylikning muqaddas kitobi bo‘lganligidan unda bu dinning qadriyatlar tizimi, qadrlash mezonlari, o‘sha davrdagi milliy g‘oyalar ifodalangan.

Qadriyatlar to‘g‘risidagi qarashlar rivojida VIII - XII asrlar katta ahamiyatga ega. Bu davrda arab istilosи amalga oshirilgan, Islom hukmoning dinga aylangan edi. E’tirof etish joizki, Qur’on va Hadislarda ta’riflab berilgan ilohiy qadriyat va qadrlash masalalari halqimiz tarixi va madaniyatiga ijobiy ta’sir ko‘rsatgan. Shu bilan birga, arab istilosи davrida ko‘pgina milliy qadriyatlarimizning yo‘qotib yuborilganligini ham qayd qilmoq zarur. Bu to‘g‘rida Beruniy “Qadimgi halqlarimizdan qolgan yodgorliklar” asarida afsus bilan yozib qoldirgan.

Sivilizatsiyamiz qadriyatları halqimizga xos qadrlash me’yorlari musulmon Sharqi va arab dunyosi madaniyatining rivojiga ham nihoyatda katta aks ta’sir ko‘rsatgan. Tarixda nomlari saqlangan allomalarimizdan Abu Hanifa, al - Buxoriy, at

- Termiziyy, Najmuddin Kubro, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband kabi o‘nlab ilohiyot ilmining zabardast allomalari jahon qadriyatlar tizimiga o‘zlarining munosib hissalarini qo‘shtigan. Ularning asarlarida gohida biz allaqachon esimizdan, tilimizdan va balki dilimizdan ham chiqarib yuborgan qadriyatlar va tushunchalarga duch kelamiz. Jadidlarning merosi halqimiz madaniyatiga yanada kattaroq ta’sir ko‘rsatishi mumkin edi. Afsuski, bolsheviklar boshlagan siyosiy jarayonlar bu avlodning boy merosini o‘z domiga tortdi, uning taqdiri ayanchli bo‘ldi, taqiqlab qo‘yildi. O‘tmish avlodlar ardoqlagan va buyuk ajdodlarimizdan meros qolgan sharqona qadrlash mezonlari taqiqlanganligi hozirgacha o‘z salbiy ta’sirini ko‘rsatib turibdi. Faqat mustaqillik yillaridagina bu

sohada ijobjiy siljishlar bo‘ldi.

Sobiq Ittifoqda qadriyat masalasida 60 - yilarda tadqiqotlar tomoni-dan ko‘tarilgan bo‘lsada, 90 - yillargacha falsafa darsliklarida alohida mavzu sifatida o‘z o‘rniga ega bo‘lmadi. Aksiologiya nomi bilan Sobiq Ittifoqda birorta ham darslik yoki o‘quv qo‘llanmasi chop etilmagan.

Qadriyatlar to‘g‘risida G‘arbda keng tarqalgan aksiologiya fani rivojlangan mamlakatlarda inson qadri va haq - huquqlariga doir ko‘pgina tamoyillarning amaliyoti uchun nazariy asoslardan biri bo‘lgan ilmiy sohalar qatoriga kirdi.

Mustaqillik yillarida qadriyatlarga insoniy munosabatda bo‘lib yondashish vujudga keldi. Bunday qarashlarning vujudga kelishi, qadriyatlar-ning ijtimoiy va ma’naviy yangilanishi jamiyat a’zolarining kamoloti hamda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati masalalariga davlat miqyosida yuksak e’tirof ko‘rsatilayotganligi mazkur soha rivojining bosh yo‘nalishidir. Qadriyatlar mustaqillikni mustahkamlashning ma’naviya omillaridan biri sifatida qadrlanishi borasidagi ijobjiy jarayonlar tadqiqotlarni ko‘paytirish, ularga nisbatan mas’uliyatni yanada oshirishni taqozo qilmoqda.

Mustaqillik asrlar davomida shakllangan o‘ziga xos sharqona va o‘zbekona qadrlash masalalari va me’yorlarini qayta tiklash hamda ma’naviy talablar darajasida takomillashtirishni kun tartibiga qo‘ydi.

Demak, mustaqillik natijasida qadriyatlarning tiklanishi qadriyatlar-ga bo‘lgan ehtiyojning ham oshib borishiga olib keldi.

**Ikkinci savol:** Ikkinci masalada qadriyatlar bu insoniy tushuncha ekanligini, shu bilan birga qadriyatlar tushunchasi turli xil ma’noda qo‘llanishini ko‘ramiz.

Istiqlol yillarida O‘zbekiston bu mavzuga umuminsoniy tamoyillar asosida yondashish shakllandi. Bunday qarashning vujudga kelishi qadriyatlar-ning ijtimoiy - ma’naviy yangilanishi, jamiyat a’zolarining kamoloti hamda yoshlar tarbiyasidagi ahamiyati masalalariga davlat miqyosida yuksak e’tirof ko‘rsatilayotganligi mazkur soha rivojining bosh yo‘nalishidir.

Qadriyat nima? - degan masalaga yondashadigan bo‘lsak, kundalik hayotda ko‘pchilik tomonidan qo‘llaniladigan “Qadriyat” iborasi odamlar uchun biror zarur ahamiyat kasb etadigan ob’ekt, narsa, hodisa va boshqalarga nisbatan ishlataladi. Ammo buyumning qadri hisobga olinmasa, masalaning aksiologik jihatni ochilmaydi. Qadriyat kategoriysi buyum yoki narsalarning iqtisodiy qimmatini ifodalaydigan tushunchadan farq qiladi.

Shu ma’noda qadriyat narsa va buyumlarning qimmatiga nisbatan qo‘llanilmasdan balki inson uchun biror ahamiyatga ega bo‘lgan voqelikning shakllari, holatlari, narsalar, voqealar, hodisalar,

jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab, tartiblar va boshqalarning qadrini, ijtimoiy ahamiyatini ifodalash uchun ishlataladigan falsafiy kategoriya. Bu kategoriya o‘zida qadriyat ob’ektining nafaqat qimmatini, balki ijtimoiy ahamiyatini, falsafiy - aksilogik mazmunini, jamiyat va inson uchun qadrini ham ifodalaydi.

Qadriyatlar muammosiga bag‘ishlangan (asosan rus tilidagi) ilmiy - falsafiy manbalarning ko‘pchiligidagi qadriyat (sennost) tushunchasini baho (otsenka) tushunchasi bilan qiyoslash, ularga bir xil daraja va ko‘lamdagi tushunchalar sifatida qarash hollari uchraydi. Bu ikki tushuncha qiyoslanayot-ganda, qadr tushunchasi e’tiborga olinmaydi. Balki, bunday holga rus tilidagi “otsenko” va “sena” so‘zlarining o‘xhash ma’noli (ko‘proq iqtisodiy) tushunchalar ekanligiga sabab bo‘lishi ham mumkin. rus tilida qadr iborasi ishlatilmaydi, uning ruscha tarjimasi yo‘q. Qadr tushunchasi o‘zbek tilida serqirra ma’no va mazmunga ega, u tilimizdagagi ba’zi ibora va so‘zlarda o‘ziga xos sharqona falsafiy mazmun borligidan dalolat beradi.

Qadriyatlarning qadrini bilish, uning ahamiyatini anglab olish va baholash bir - biri bilan uzviy bog‘liq jihatlarni tashkil etadi. Qadriyat-larning ahamiyati anglab olinmasa, qadri to‘g‘ri tushunilmasa, unga berib bo‘lmaydi.

Qadriyatshunoslikda qadriyat tushunchasi bilan bu tushuncha bog‘langan ob’ekt o‘rtasida farq bor deb qaraladi. Agar qadriyat berilgan, qadrni ifodalaydigan falsafiy tushuncha sifatida qaralmasa, unga ta’riflarning son - sanoqsiz bo‘lishi aniq. Negaki, dunyoda qadrlanadigan narsa va hodisalar nihoyatda ko‘p. Qadriyat tushunchasi esa ularning birortasi uchun to‘g‘ridan - to‘g‘ri ism, atama yoki bevosita nom bo‘la olmaydi, balki ularning qadrini anglatadigan tushuncha sifatida namoyon bo‘ladi.

Odamlar bitta jamiyatda, bir davrda va o‘xhash sharoitlarda yashayotgan- liklariga qaramasdan, u yoki bu narsaning qadri turlicha anglab olinadi.

Ijtimoiy jarayonlar ta’sirida kishilarning qadriyat to‘g‘risidagi tasavvufi, qarashlari ham turmush tarziga qarab o‘zgarib boradi.

Ana shunga ko‘ra, hammada ham qadrlash tuyg‘usi doimo bir xil bo‘lavermaydi. Ijobiy va salbiy qarashlar bir - biriga zid tushunchalar shakllanib boraveradi.

Shuni ta’kidlash joizki, qadriyatlar jamiyatning rivoji va kishilar hayotining turli davrlarida turlicha ahamiyat kasb etadi, tarixiy zaruriyatga mos ravishda goh u, goh bu qadriyat ijtimoiy taraqqiyotning eng oldingi pog‘onasiga chiqib oladi, boshqalarni xiralashtirganday bo‘lib tuyuladi. Natijada ijtimoiy rivojlanish va taraqqiyot qonunlariga mos ravishda, oldinga chiqib olgan qadriyatni barqaror qilishga intilish nisbatan kuchayadi. Masalan, yurtni yov bosganda - ozodlik, imperiya

hukmronligi nihoyasida - istiqlol, urush davrida - tinchlik, tutqinlikda - erkinlik, kasal va bemorlik onlarida - salomatlikning qadri oshib ketadi, ularga intilish kuchayadi.

Yoshlarda, ayniqsa talaba va o‘quvchilarda ma’naviy yetuk tuyg‘ularni shakllantirishda qadr - qimmatga yetish, yashashning qadrini bilish, aksiologik bog‘liqliklarning botiniy va zohiriy tomonlarini o‘rganish katta ahamiyatga ega.

**Uchinchi savol:** Qadriyatlar va ularning jamiyat va inson hayotida tutgan o‘rni masalasida shuni qayd etish lozimki, har qanday jamiyat ijtimoiy - tarixiy birliklar (urug‘, qabila, elat, halq, millat) ijtimoiy sub’ektlar va boshqalar o‘ziga xos qadriyatlar tizimiga ega bo‘ladi. Bu qadriyatlar tizimida asosiy bo‘lmagan qadriyatlar muayyan qatorni tashkil qiladi va turli holatlarda namoyon bo‘ladi. Jamiyat rivojining muayyan davri yoki biror davlatda ham ana shunday qadriyatlar tizimi mavjud bo‘ladiki, u o‘sha davr, jamiyat va davlat kishilari, ularning faoliyati uchun umumiylmez vazifa-sini o‘taydi. Har bir ijtimoiy - tarixiy birlik, sinf va partiyalar ham ana shunday qadriyatlar tizimi asosida faoliyat ko‘rsatadilar, ulardan foydala-nadilar yoki ularga erishishning turli usullarini qo‘llaydilar.

Shuning uchun, u yoki bu qadriyatlarning mohiyati va ahamiyatini unutmasligimiz kerak.

Bir qarashda qadriyatlarning shakllari son - sanoqsiz va nihoyatda tartibsizga o‘xshab ko‘rinadi. Aslida esa bashariyat, olam, tabiyat va jamiyatda uyg‘unlik mavjud. Qadriyat shakllari ham ularga mos ravishda ana shunday uyg‘unlikda qonuniy bog‘lanishda, umumiylaloqadorlikdadir. Bunday holatda ularning klassifikatsiyasida tabiat va jamiyatagi narsa, voqeа, hodisa, jarayonlar muayyan qo‘llanma, qadriyat shakllari esa ular bilan bog‘liq holda namoyon bo‘ladi.

Makon va zamonda ushbu qadriyat ob’ektlari borliqning biror shakli, jihat, voqelikning biror qismi, olamdagagi narsalar va atrof muhitning eng muhim tomonlari sifatida namoyon bo‘ladi. Ushbu ma’noda qadriyatlarning umumbashariy va mintaqaviy hamda biro kichik hudud yoki joyga bog‘liq bo‘lgan shakllarini ko‘rsatish mumkin. Bunda umumiylilik, xususiylik va alohida-likning dialektikasi zamonaviy atamalar, “global”, “zonal”, “lokal” qadriyat ob’ektlarining o‘zaro munosabati tarzida zohir bo‘ladi.

Jamiyatning yashashi, odamlarning hayot kechirishi uchun yuqoridagi qadriyatlar bilan birga jamiyatdagi umumijtimoiy va umuminsoniy qadriyat-lar ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ularning jamiyat, uning tuzilishi, ijti-moiy borliqlar va ijtimoiy ong shakllariga aloqador turmushlarni ko‘rsatish mumkin. Masalan, jamiyatning tuzilishiga xos: milliy, sinfiy, irqi yoki boshqalar yoki ijtimoiy ongning shakllariga bog‘liq: siyosiy, huquqiy, ahloqiy, diniy hamda jamiyatning asosiy

sulolasiga bog‘liq: iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ma’naviy ijtimoiy qadriyat shakllari orasidagi farqlar aslo mutlaq emas, balki nisbiydir. Ular orasida o‘tib bo‘lmash chagara yo‘q.

Bugungi kunga kelib, “Qadriyatlar” iborasi nihoyatda mashhur bo‘lib ketdi. Uni juda keng ma’noda ishlatish, ayniqsa madaniy - ma’naviy hodisalar, urf - odatlar, an’analar va boshqalarga “Qadriyat” deb atashga ko‘pchilik o‘rganib qolgan. Zero, qadriyat tushunchasining ommalashib, mashhur bo‘lib ketganligi bilan birga, lekin uni yanadakengroq ma’noda yoki zarur bo‘lman hollarda ham ishlatish bu tushunchaning mazmunini xiralashtirishda uning mohiyatini ifodalaydigan sifat chegarasini sarobga aylantirib qo‘yishi, qadrini tushunishi mumkin.

Ana shu sababdan ham mamlakatimiz taraqqiyoti hozirgi davrning yuksak ifodalari bo‘lgan istiqlol, buyuk kelajak, vatanparvarlik, insonparvarlik, demokratiya, qonunning ustivorligi kabi serqirra qadriyatlarni nihoyatda qadrlashimiz lozim.

Inson bolasining shaxsga aylanishi, o‘z qadrini va o‘zgalar qadrini anglash jarayoni uzoq yillar davom etadi.

Umuman, uchinchi ming yillikda butun dunyoda qadrlash falsafasining umuminsoniy mezonlarini amaliyotda qo‘llashga ehtiyoj kuchaydi. Ming afsuslar bo‘lsinki, inson zoti sayyoramizda yashagan ilk davrdan boshlab qadr - qimmatini ustivor bilganda, Yer yuzasining zamnaviy manzarasi butunlay boshqacha tusalgan kishilikni ekologik bo‘hronlar, ulush xavfi va ma’naviy tanazzul kabi umumbashariy muammolar kutib turmagan bo‘lmashdi.

Bugungi kunga, ya’ni XX asr boshlariga kelib insoniyat, tabiat va odam-zod naslining uyg‘unligini saqlab qolish uchun qadr va qadriyat nihoyatda zarur ekanligi anglab yetilmoqda. Hozirgi kunda BMT tomonidan “Inson huquq-larining o‘n yilligi” deya e’lon qilinganligi ham juda katta ahamiyatga ega.


Hozirgi O‘zbekistonda inson huquqlarini tiklash uchun qadr - qimmatini joyiga qo‘yish imkoniyati yaratiladi. Insoniyat butun umri shaxsiy qadriyatlarni takomillashtirishi, o‘z qadrini kamolotga yetkazish, o‘zgalar, jamoat, zamon va unda sodir bo‘layotgan o‘zgarishlar qadrini anglashga intilish jarayonidan iboratdir. O‘z shaxsi va boshqalar qadrini anglab yetish uchun insonning kamoloti davomida shakllangan ma’naviy qiyofasi va dunyosi ezgulikka xizmat qilishi, yuksak ijtimoiy sifatlarga ega bo‘lishi, uning o‘zi esa hayotning mohiyati va maqsadini to‘g‘ri anglatadigan darajada tarbiyalangan bo‘lishi lozim. Ushbu ma’noda, Suqrotning “O‘z - o‘zingni anglash” shiori g‘oyat katta ahamiyat kasb etadi.

Shaxsning qadri u yashayotgan zamon, undagi jarayonlar, ijtimoiy, tarixiy shart

- sharoitlar bilan dialektik aloqadorlikda namoyon bo‘ladi. Mehnat va davr talablari shaxs qadrini shakllantirib, sayqallab boradi, uning o‘zi esa o‘z qadrining shaxsiy talablari, ehtiyojlari va maqsadlari bilan naqadar aloqadorligini chuqurroq anglab olish tomon boradi. Qadriyatlar yoshlarga hayot mazmunini chuqurroq tushunish, anglab yetish, jamiyat qonun - qoidalaridan to‘g‘ri foydalanish, o‘zlarining hatti - harakatlarini ana shu ma’naviy mezonlar talabiga moslashtirish imkonini beradi. Hozirgi kunda talaba va o‘quvchilarga qadrlash va qadrsizlanish jarayonlarining mohiyatini anglatish, mustaqillikka, ozodlikka xos qadriyatlarning ahaliyatini to‘g‘ri tushuntirishga erishish g‘oyat katta ahaliyatga ega.

Talaba yoshlarni barkamol avlod vakillari sifatida tarbiyalash va shakllantirishda qadr va qadrlash tuyg‘usi, qadriyatlar kategoriyasi, ularning mohiyati, mazmuni, namoyon bo‘lish shakllari to‘g‘risidagi bilimlarning majmuasi bo‘lgan zamonaviy aksilogiya, ya’ni qadriyatshunoslikning asoslarini o‘rgatish katta ahaliyatga ega. Shu sababdan ham umuminsoniyatning qadrlash me’yorlari borasida to‘plangan yutuqlarni umumlashtirgan bilim sohalari imkoniyatdan foydalanish ta’lim - tarbiya samaradorligini oshirish, ularni milliy g‘oya ruhida tarbiyalashning asosiy mezonlaridan biridir.

### Qadriyatlarning shakllarining namoyon bo‘lish xususiyatlari



### Tayanch so‘z va iboralar

Qadriyat, kategoriya, aksilogiya, qadr, umuminsoniy qadriyat, mustaqil-lik, qadr - qimmat, jarayon, tizim, tamoyil, inson va uning qadri, mehnat, o‘z - o‘zini anglash, mazmun, hayot mazmuni, hayot qadri, qadrsizlik, insonparvar, vatanparvar, sevinch, sog‘inch.

### Adabiyotlar

1. Karimov I.A. “Ma’naviy yuksalish yo‘lida”. T., “O‘zbekiston”, 1998 y.

2. Karimov I.A. "Donishmand halqimning mustahkam irodasiga ishonaman". "Fidokor" gazetasi. 2004 yil 8 iyun.
3. Karimov I.A. "Erkin farovon hayotni yuksak ma'naviyatsiz qurib bo'lmaydi". Toshkent, "O'zbekiston". 2006 y., 3 - 77 betlar.
4. Karimov I.A. "O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li". O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi ma'ruzasi. 2007 y., 31 avgust.
5. Erkayev A. "Ma'naviyat - millat nishoni". - T.: "Ma'naviyat", 1999 y.
6. Suyunov S.X. "Yoshlarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashning asosiy mezonlari". Samarqand. 2006 y.
7. Karimov V., Umarov A., Qurbonov M. "Milliy istiqlol g'oyasini halqimiz ongiga singdirish omillari va vositalari" Toshkent. 2002 y., 7 - 27 betlar.
8. Jabborov A. "Insonparvarlik - eng go'zal hislat" "Muloqot", №3, 2004y., 15 - 16 betlar.
9. "Falsafa". Ma'ruzalar matni. Toshkent - 2004 y., 267 - 278 betlar.
10. "Falsafa asoslari" Toshkent. "O'zbekiston", 2005 y., 318 - 328 betlar.
11. "Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar" (Qisqa izohli tajribaviy lug'at). Toshkent., "Yangi asr avlodii" 2002 y.
12. Ochilov N. "Xotira - boqiyidir, qadr - muqaddas" "Fidokor gazetasi", 2007 y., 10 may.

**Mavzu №12.Fan falsafasi. Jamiyatning ilmiy mohiyatini yuksaltirish.**

Mavzuning maqsadi:

Ushbu mavzuda fanning taraqqiyot bosqichlari, uning turli sivilizatsiya davrlardagi taraqqiyoti, inson ilmiy bilishining darajalari, Antik dunyoda yaratilgan fan bilan falsafa o'rtasidagi munosabatlar, hozirgi zamon fan taraqqiyoti va uning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni, shu bilan birga hozirgi zamon fanining o'ziga xos xususiyatlari, mustaqillik va fan taraqqiyoti uchun katta imkoniyatlarning paydo bo'lishi, barkamol inson shaxsini tarbiyalashda ilm - fanning betakror ahamiyati kabi masalalarni nazariy jihatdan yoritib berishga qaratilgan.

**Mavzuning rejasи:**

1. Fanning turli sivilizatsiya davrlardagi taraqqiyoti. Yevropa sentrizm va Osiyo sentrizm.
2. Hozirgi zamon jahon fani taraqqiyotining falsafiy talqini.

### 3. Fan - texnika inqilobi va jamiyat hayotida fan rolining ortib borishi.

***Birinchi savol:*** Fanning turli sivilizatsiya va davrlardagi taraqqiyoti masalasida gapirishganda eng avvalo fanning ilmiy tushuncha va uslublari hamda o‘z metodologiyasiga ega bo‘lgan, olamni bilish va o‘zgartirishning maxsus usuli, ilmiy bilimlar tizimidir. Shu bilan birga ijtimoiy ong shakllaridan biridir.

Fanning quyidagi xususiyatlariga alohida e’tibor berish talab etiladi. 1. Fan inson faoliyatining alohida o‘ziga xos turi; 2. Alohida ijtimoiy institut sifatida fan ilmiy bilimlar yig‘indisi; 3. Insoniyatning ma’naviy salohiyati, olam, tabiat, jamiyat va inson to‘g‘risidagi tasavvur va qarashlarni shakllantiradi. Olamni o‘zlashtirish va o‘zgartirish vositasi hisoblanadi.

Fan o‘z oldiga ilmiy bilimlar yaratishni maqsad qilib qo‘yadi. Ilmiy faoliyat moddiy ne’matlar ishlab chiqarish faoliyatidan keskin farq qiladi. Kishilar mehnat faoliyati, siyosat, san’at, din va hokazo sohalardagi faoliyat-lari jarayonida ham bilim orttiradi. Lekin ilmiy bilimlar izchilligi, tizimliligi va haqiqiyligi bilan ajralib turadi.

Olamni ilmiy bilish olamga yangicha munosabat, yangicha qarashni taqozo qiladi. U olamni diniy, badiiy, ahloqiy, siyosiy bilishdan keskin farq qiladi. Voqelikka ilmiy munosabatda bo‘lish har qanday aqidaparastlikdan farq qiladi. Ilmiy bilish avval boshdanoq falsafiy dunyoqarash bilan uзви bog‘liq ravishda vujudga keladi. Falsafa ilm - fan xulosalariga tayanib, olamning yangicha manzarasini yaratish imkoniyatiga ega bo‘ladi.

Ilmiy bilish empirik (tajribaga asoslanuvchi) va nazariy shakllarga bo‘linadi. Empirik bilim asosan tajriba va eksperimentlar jarayonida olinadigan va haqiqiyligi tajribada sinab ko‘rilgan bilimlardir.

Bilishning nazariy darajadagi ilmiy qarashlar, bilimlar qat’iy tizimga solinadi. Ilmiy tushunchalar qat’iy mezon asosida o‘rganiladigan fanning ko‘pqirrali tomonlari chuqurroq va to‘laroq bilishga yordam beradi.

Ilmiy bilimlar hosil qilish usullariga qarab fanlar eksperimental va fundamental fanlarga ajratiladi. Shuningdek, ular o‘rganish ob’ektiga qarab, tabiiy, ijtimoiy - gumanitar va texnik fanlarga bo‘linadi. Tadqiqot predmetini o‘rganish jarayonida fanning yangi soha va tarmoqlari vujudga keladi. Masalan, Tabiatshunoslik fanlarining botanika, zoologiya, kimyo, metamatika, fizika kabi sohalari, ijtimoiy - gumanitar fanlarning tarix, qadimshunoslik (arxeologiya), etnografiya, sotsiologiya, siyosatshunoslik, falsafa, etika, estetika, pedagogika, psixologiya, madaniyatshunoslik kabi sohalari

vujudga keldi. Ularning har biri yana qator tarmoqlardan iboratdir. Masalan, tarix fanining qadimgi dunyo tarixi, o'rta asrlar tarixi, yangi zamon tarixi va boshqalar.

Insoniyatning keyingi ikki yuz yillik tarixi davomida tabiatni o'zlashtirish, inson mohiyatini bilish, jamiyatni takomillashtirish borasida erishilgan yutuqlar fan taraqqiyoti bilan bevosita bog'liqdir. Inson tabiiy va ijtimoiy muhitni yaxshiroq moslashish, tabiatning stixiyali kuchlariga qarshi kurashish ijtimoiy hodisalarни bilishda fanga murojaat qiladi. Umuman fanning ilmiy bilimlar sifatida vujudga kelishi inson ehtiyojlari bilan bog'liq.

Fanning vujudga kelishi to'g'risida turlicha qarashlar mavjud: Yevropatsentrizm va Osiyosentrizm. Fanning vujudga kelishi va rivojlani-shida G'arb va Sharq mamlakatlari qo'shgan hissalarni bir yoqlama ta'sirini inkor etish ijtimoiy - falsafiy tafakkur rivojida Yevropatsentrizm va Osiyosentrizm oqimlarini vujudga keltirdi.

Qadimga Sharq jahon sivilizatsiyasining beshigi bo'lgani, dastlabki ilmiy bilimlar Sharq mamlakatlarida vujudga kelganligini jahon olimlari tan olgan.

Qadimgi Sharq mamlakatlarida (Hindiston, Xitoy, Misr, Xorazm, So'g'diyona, Shosh, Afrosiyob) astronomiya, matematika, falsafaga oid ilmiy bilimlarning vujudga kelishini hayotiy ehtiyojlar keltirib chiqardi.

Markaziy Osiyodan kelib chiqqan mutafakkirlarning olam, odam va tabiatga bo'lgan falsafiy qarashlari "Avesto" da hikmat, maqol va borliq haqida o'z ifodasini topdi.

Qadimgi Yunonistonda ilmning turli sohalari rivojlandi. Qadimgi yunonlarga xos izlanuvchanlik, hurfikrlilik turli falsafiy oqim va maktablarning shakllanishiga olib keldi.

Antik dunyo yaratgan fan va falsafa o'rtasidagi hamkorlik, bir - biriga ko'rsatgan barakali ta'sir Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilmiy - falsafiy faoliyatida yangi bosqichga ko'tarildi. Ularning ilmiy qarashlari hozirgi zamon fanining taraqqiyotida muhim ahamiyatga ega bo'lgan.

IX - XII asrlarda arab xalifalari Xorun ar - Rashid, uning o'g'li Ma'mun va Xorazmshox Ma'munning homiyligida o'sha davrning o'ziga xos fanlar akademiyalari vujudga keldi. Xususan, IX asr o'rtalarida Bog'dodda "Bayt al - hikma" (Donishmandlar uyi), Xorazmda Ma'mun akademiyasi vujudga keldi. Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan Muso Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Forobiy, Beruniy, ibn Sino kabi allomalar matematika, astronomiya, meditsina, jamiyatshunoslik va siyosatga oid fanlarni rivojlantirishdilar.

Sharqda olimlar qadimgi yunon olimlarining ilg'or an'analarini davom ettirgan, ilmiy bilishning yangi usularini taklif etgan. Sharq ilmiy tafakkuri barkamol insonni shakllantirish, ijtimoiy

munosabatlarni yanada takomillashtirish tabiat sirlarini bilish qa undan oqilona foydalanishga qaratilgan edi.

Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ilg‘or ilmiy qarashlari va asarlari Yevropada ilm - fan rivojida katta ahamiyatga ega bo‘lgan. Yevropaliklar Albaran (al Beruniy), Avitsenna (ibn Sino), Alfraganus (al Farg‘oniy), Ulug‘bek va boshqalarning ilmiy merosini chuqur o‘rgangan, ularning an’ana-larini davom ettirgan. Buyuk italyan mutafakkiri Dante Alegeri “Ilohiy komediy” (XVI asr) asarida Markaziy Osiyodan yetishib chiqqan mutafakkir-larni jahonning buyuk allomalari siftida ulug‘laydi.

Muso Xorazmiy matematikaning yangi sohasi bo‘lgan algebraga asos soldi. Ibn Sino o‘zining “Tib qonunlari” asari bilan tabobatni ilmiy asosda rivojlantirdi va uning asarlari Yevropada ko‘p asrlar mobaynida asosiy qo‘llanma vazifasini bajargan. Ulug‘bekning “Zichi jadidi Ko‘ragoni” asari fanga qo‘shgan muhim hissa bo‘ldi.

Mayjud manbalarda ko‘rsatilishicha Yevropada fanning alohida faoliyat shakli sifatida rivojlanishi XVI - XVIII asrlarga to‘g‘ri keladi. Bu davrda Iogann Keplar, Galileo Galiley, Jordano Bruno. Isaak Nyutonning asarlari vujudga keldi. Buyuk ingliz mutafakkiri Frencis Bekon, fransuz olimi Rene Dekart ilmiy bilish usullarini ishlab chiqdi. “Bilim kuchdir” degan shiorni o‘rtaga tashladilar.

Yevropada ilm - fan rivoji jadallahdi. Olamga dunyoviy nuqtai - nazardan qarash imkoniyati yaratildi.

Shunday ekan, Sharq va G‘arbda fan taraqqiyotiga qo‘shilgan hissasini kamsitish yoki bo‘rttirib ko‘rsatish mumkin emas.

XIX asrning o‘rtalarida tabiatshunoslik fanlarida buyuk kashfiyotlar (evolyutsion nazariya, hujayra nazariyasi, energiyaning saqlanishi va o‘zgarishi qonuni) falsafiy dunyoqarashning o‘zgarishiga, jamiyat to‘g‘risidagi ilmiy nazariyalarning vujudga kelishiga turtki bo‘ldi.

XIX asr oxiriga kelib fanning muhim sohalarida erishilgan yutuqlar fan taraqqiyotida yangi davr boshlanishidan dalolat berdi. Fizika sohasida optika, termodinamika, elektr va magnetizmning o‘rganilishi, kimyo sohasida kimyoviy birikmalar xossalarning o‘rganilishi, Mendeleev elementlar davri tizimining yaratilishi, matematikada analitik geometriya va matematik analiz kabilarda yaqqol ko‘rindi. Bu davrga kelib sotsiologiya mustaqil fan sifatida rivojlanishi ijtimoiy ideyalarni oqilona hal etish va jamiyat istiqbolini belgilash imkoniyatini berdi.

Yevropa olimlarining tabiatshunoslik fanlari sohasida erishgan yutuqlari yangi falsafiy

ta’limotlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ldi. Xususan I. Nyuton tomonidan fizika sohasida qiligan kashfiyotlar tabiat va jamiyatning mexanistik manzarisini yaratdi. Ch. Darvinning ilmiy kashfiyot-lari esa, butun olam evolyutsiyasi, olamning yaxlit birligi, organik va anorga-nik tabiat hamda jamiyatning o‘zaro bog‘liqligi to‘g‘risidagi falsafiy qarash-larning shakllanishiga olib keldi. O‘z vaqtida ham tabiatshunos, ham faylasuf bo‘lgan R.Dekart, F.Bekon tomonidan ilmiy bilim metodlarining, fanning buyuk o‘zgartuvchilik va yaratuvchilik qudratining falsafiy asoslanishi keyingi davrlarda fan va falsafa metodologiyasi uchun mustahkam zamin yaratdi.

XIX asr oxiri - XX asr boshlarida jadidchilik harakatining asoschilari Behbudiy, Abdulla Avloniy, Fitrat, Abdulla Qodiriy va boshqalar ulkan ilm - fan va ma’rifatni keng rivojlantirish g‘oyasini ilgari surdilar. Ular jahonning ilg‘or fan va texnika yutuqlaridan o‘lka aholisini bahramand etish-ga harakat qildilar. Biroq keyingi ijtimoiy silsilalar oqibatida jadidchi-likning ma’rifatparvarlik harakatlarini rivojlantirishga imkon bermadi.

Mustaqillik tufayli halqimizning ko‘p asrlik tarixiga ega bo‘lgan ma’naviy - intellektual merosini o‘rganish, jahon ilm - fani va texnikasi yutuqlaridan bahramand bo‘lish, dunyoning mashhur ilm dargohlarida o‘qish - o‘rganish imkoniyati vujudga keldi.

Respublikamiz Prezidenti I.A.Karimov “Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevoridir”, “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida”, “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” kabi asarlarida ilm - fanni rivojlantirish islohot-lar muvaffaqiyatining garovi, moddiy farovonlik asosiy ekanligi har tomonlama asoslab berildi. O‘zbekiston jahonda taraqqiy etgan mamlakatlar qatoridan munosib o‘rin egallash, taraqqiy etish, shubhasiz uning ilm - fan sohasiga va uni qanday takomillashtirishga bevosita bog‘liqdir.

Mamlakatimizda 1997 yilda “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va Ta’lim to‘g‘risida” gi qonun mamlakatimiz ilmiy salohiyatini yuksaltirishda asosiy omil bo‘lib xizmat qiladi.

**Ikkinci savol:** Hozirgi zamon jahon fani taraqqiyotining falsafiy talqini masalasida shuni qayd qilish lozimki, XX asr boshlariga kelib, uning har tomonlamarivojlanishi fanning ijtimoiy ong tizimidagi o‘rni va ahamiyatiniyangicha tushunishni taqozo etadi. Hozirgi zamin faniga xos quyidagi xususiyalarni ko‘rsatish mumkin.

1. Fan o‘zining o‘rganish sohalarini kengaytirib, mikroolam muammo-larini o‘rganish bilan shug‘ullana boshladi; Mikro va makroolamni o‘rganish uchun fan an‘anaviy usullardan tashqari yangi maxsus usullardan, yangi asboblardan foydalana boshladi. Matematik modellashtirish usuli va boshqalar.

2. Ilmiy bilishning sub'ektiv sohalariga alohida e'tibor berila boshladi;
3. Fan taraqqiyoti milliy doiradan chiqib tobora jahonshumul ahamiyat kasb eta boshladi;
4. Fanning insonparvarlik ahamiyati tobora ko'proq ro'yobga chiqa boshladi;
5. Fanning rivojlanishi, texnika taraqqiyoti jamiyat va olimlar oldiga tobora global muammolarni qo'ymoqda;
6. Fan taraqqiyoti fan yangiliklarini yashirmsandan, oshkora hamkorlikda ishlab chiqarishga joriy etish zaruriyatini tug'dirmoqda;
7. Tabiiy va ijtimoiy fanlarning o'zaro bog'liqligi hamda ijtimoiy fanlarning ayniqsa, falsafaning metodologik fan sifatida zaruriyat oshib bormoqda;
8. Hozirgi zamon fani umumbashariy va umuminsoniy muammolar bilan shug'ullanish zaruriyatini tobora ortib bormoqda;
9. Fan insoniyat hayotidagi qator muammolarni hal etibgina qolmay, uning hayotiga jiddiy tahlil soladigan muammolarni ham keltirib chiqarmoqda. Bunday xavfli muammolarni bartaraf etish ham olimlar oldida turgan asosiy muammolardan biridir.

Hozirgi zamon qirg'in qurollar ishlab chiqarishni kamaytirish ham olimlar oldida turgan asosiy muammolardan biridir.

**Uchinchi savol:** Fan - texnika inqilobi va jamiyat hayotidagi fan o'rnining ortib borishi masalasida shuni qayd etish lozimki, "XX asr - fan asri" deb atalgan bo'lsa, "XXI asr - texnologiya asri" deb atala boshlamoqda. Sababi, fan - texnika inqilobi bir tomondan jamiyatda moddiy boyliklarni rivojlan-tirish, insonning oziq - ovqatga, kiyim - kechakka bo'lgan ehtiyojini to'laroq qondirish bilan birga jamiyat oldiga ham bir qator masalalarni ko'ndalang qilib qo'ymoqda. Jumladan, fan - texnika taraqqiyoti intellektual salohiyatni zudlik bilan rivojlantirish muammosni qo'ymoqda, sababi hozirgi kunda faqatgina hozirgi zamon fan - texnika taraqqiyotining mohiyatini, ahamiyatini chuqr bilgan, hozirgizamon fan taraqqiyotining chuqr egallagan kishigina fan - texnika taraqqiyotining rivojlanishiga o'z hissasini qo'shishi, unga ijobiy ta'sir etishi mumkin. Shuning uchun ham mustaqil mamlakatimiz oldida bilimdon va hozirgi zamon fan - texnika inqilobining ahamiyati, mohiyatini chuqr biladigan malakali kadrlar tayyorlashga alohida e'tibor qaratish lozim.

Mamlakatimiz mustaqilligini mustahkamlash bozor iqtisodiyotida htish sohasini jadallashtirish uchun intellektual salohiyatni yanada mustahkam-lashga e'tibor berila boshladi. Prezident I.A.Karimov "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida" nomli asari va boshqa maqola hamda nutqlarida mamlakatimizda ilm - fanning rivojlanishiga alohida e'tiborni qaratdi.

Ayniqsa, jahon ilm - fani rivojiga katta hissa qo'shgan ulug' ajdodlarimizning ilmiy merosini chuqur o'rghanish va ularning an'analarini rivojlantirish maqsadida Xorazmda Ma'mun akademiyasining qaytadan tiklanishi va uning nishonlashini hayotimizda ulkan voqeadir. Shuningdek, ilmiy - tadqiqot muassasalarining tarkibiy tuzilishiga muhim o'zgarishlar qilindi. Zamon talablariga javob beradigan yangi Oliy o'quv yurtlari, Ilmiy - tadqiqot institutlari, Oliy Attestatsiya Komissiyasi tashkil etildi. Talabalarni Oliy o'quv yurtlariga qabul qilishning ilg'or usullari, yangi pedagogik texnologiyalar joriy etildi.

O'zbekistonda ilm -fan kishilarning malakasini, bilimini oshirishga ko'maklashadigan jamg'armalar tashkil qilindi. Fan rivojining huquqiy asoslari yaratildi, ilm - fan xodimlarini ijtimoiy himoyalashga e'tibor kuchaytirildi.

Fan taraqqiyotida an'anaviylik va yangilanish jarayoni dialektikasini bilish, bu jarayonni O'zbekiston sharoitida yanada rivojlantirish davr talabidir.

Fandagi an'anaviylik, bir tomondan uni tarixiy ildizlardan uzilib qolishdan saqlasa, ikkinchi tomondan mamlakat taraqqiyoti yo'lida paydo bo'lgan muammolarni an'anaviy usullar bilan hal etish uning hayotdan ajralib qolishiga olib keladi. Fan taraqqiyotida an'anaviylik va yangilikni (novatorlik) uzviy bog'lash muhim muammolardan biridir.

O'zbekiston faniga kirib kelgan muhim yangiliklar uning tarkibiy tuzilishidagi o'zgarishlardan tashqari, yana quyidagilar namoyon bo'ladi:

1. Fanning kompyuterlashtirilishida;
2. Jahonning dolzarb umumbashariy muammolarini hal etishda o'zbek olimlarining faol ishtirok etayotganliklarida;
3. Ilmiy tadqiqotlarda eng zamonaviy texnika, asbob - uskunalaridan va ilg'or metodlardan foydalanayotganida;
4. Olimlarning jahon tillarini o'rghanishda rag'batlantirilishida;
5. Jahonning taraqqiy etgan mamlakatlari Oliy o'quv yurtlari hamkor-ligida mutaxassis kadrlar tayyorlash yo'lga qo'yilganligida;
6. Ilmiy - tarbiya tizimining tubdan isloh qilinganligida;
7. Eng muhim global muammolarga bag'ishlab Halqaro ilmiy - amaliy anjumanlar, simpoziumlar o'tkazilayotganligida;

O'zbekistonda demokratik jarayonlarni yanada chuqurlashtirish, iqtiso-diy, siyosiy, madaniy va ma'rifiy vazifalarni hal etishda fanning asosiy vazifalariga Prezident I.A.Karimovning asarlarida

bat afsil asoslab berilgan.

Fanning rivoji o‘z oldiga qo‘ygan muammolarni hal etishda ilmiy metodlardan, fan yutuqlaridan oqilona foydalanishni taqozo etadi.

XX asr fan - texnika inqilobi insonning moddiy va ma’naviy hayotida tub o‘zgarishlarni vujudga keltirdi. Insonning borliq va tabiat taqdiri uchun javobgarlik hisssini yanada oshirdi. Fan inson hayotining barcha sohalariga kirib bormoqda, inson va jamiyat borligining muhim tarkibiy qismiga bevosita ilshab chiqaruvchi kuchga aylandi.

Keyingi yuz yil davomida ilmiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchi olimlar soni beqiyos darajada o‘sdi. Agar XX asr boshlarida butun yer yuzidagi olimlar yuz ming atrofida bo‘lgan bo‘lsa, hozirgi kunga kelib ularning soni olti milliondan oshib ketdi.

Fan - texnika sohasidagi inqilobiy o‘zgarishlarni olimlar sonining o‘sib borishidagina emas, balki ilmiy kashfiyotlar salmog‘i va sifatini muttasil ortayotganida ham ko‘rish mumkin. Butun insoniyat tarixida qilingan ilmiy kashfiyotlarni yuz foiz deb oladigan bo‘lsak, uning to‘qson foizi XX asrga to‘g‘ri keladi. Ilmiy informatsiyalar har o‘n - o‘n besh yilda ikki marta ortib bormoqda.

Hozirgi kunda O‘zbekiston fanini rivojlantirish, ulug‘ ajdodlarimiz-ning ilmiy an‘analarini davom ettirish, hozirgi zamon fan - texnika yutuqlarini puxta egallash mamlakatimizning ilg‘or ma.mla.ka.tlar qatoridan munosib o‘rin egallashi uchun mustahkam zamin yaratadi.

### **Yevropada fanning alohida faoliyat shakli sifatida rivojlanishiga buyuk hissa qo‘shgan olimlar**

(1401- Nikolay Kuzanskiy

1464 yillarda yashagan)

(1473- Nikolay Kopernik

1543 yillarda yashagan)

(1548- Jordano Bruno

1600 yillarda yashagan)

(1561- Fransis Bekon

1626 yillarda yashagan)

(1596- Rene Dekart

1950 yillarda yashagan)

**Markaziy Osiyoda ilk o‘rta asrlar va Temuriylar davrida fan  
taraqqiyotiga munosib hissa qo‘shgan  
mutafakkirlar**

Hoja Ahmad Yassaviy

(1166 yilda vafot etgan)

Najmiddin Kubro

(1154-1226 yillarda yashagan)

Bahovuddin Naqshband

(1318-1389 yillarda yashagan)

Muhammad al-Xorazmiy

(782-850 yillarda yashagan)

Ahmad al-Farg‘oniy

(797-865 yillarda yashagan)

Abu Nasr Forobiy

(873-950 yillarda yashagan)

Abu Rayhon Beruniy

(973-1048 yillarda yashagan)

Abu Ali ibn Sino

(980-1037 yillarda yashagan)

Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bek (1394-1449 yillarda yashagan)

Abdurahmon Jomiy

(1414-1492 yillarda yashagan)

Alisher Navoiy

(1441-1501 yillarda yashagan)

Husayn Voiz Koshifiy

(1440-1505 yillarda yashagan)

Zahiriddin Muhamma Bobur

(1483-1530 yillarda yashagan)

**Tayanch so‘z va iboralar**

Fan, bilish, ilmiy bilish, kuzatish, eksperimental falsafa, Markaziy Osiyo dini, fan madaniyati, fan iqtisodiyoti, fanda an’ana va yangilanish, fan qadriyatlari, bilish bosqichlari, empirik bilish, nazariy bilish, fundamental fanlar, ijtimoiy fanlar, Fan-texnika inqilobi, tabiiy fanlar, texnika fanlari, ilmiy salohiyat, metod, metodologiya, XXI asrda fan.

## **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari”. - T., “O‘zbekiston”, 1997 y.
2. Karimov I. A. “Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poyde-voridir” - T., “O‘zbekiston”, 1997 y.
3. Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” - T., “O‘zbekiston”, 2000 y.
4. Mo‘minov I.M. “O‘zbekistondagi tabiiy - ilmiy va ijtimoiy - falsafiy tafakkur tarixidan lavhalar” - T., “Fan”, 1998 y.
5. Nosirov R.N. “O‘rta Osiyo halqlari ijtimoiy - falsafiy tarixi bo‘yicha maxsus kurs” - T., 1992 y.
6. “Falsafa”. Ma’ruzalar matni. Toshkent 2000 y., 279 - 288 betlar.
7. “Falsafa asoslari”. - Toshkent., “O‘zbekiston”, 2005 y., 328 - 337 betlar.
8. Suyunov S.X., To‘xliyev B.S. “O‘zbekiston mustaqilligining nazariy - falsafiy muammolari”. Ma’ruzalar matni. Samarqand - 1998 yil.
9. Karimov S.K. Suyunov S.X. “Tarbiya tayanchi” Samarqand 2006 yil.
- 10/ “O‘zbekiston ijtimoiy - falsafiy fikrlar tarixidan” - Toshkeng., “O‘zbekiston”, 1995 y.
11. Shomuhamedov Sh. “Xazinalar jilvasi”. Toshkent, 1983 y.
12. Shermuhammedov. “Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot”. - T., “Fan”, 2005 y.

### **Mavzu №13. Global muammolar falsafasi.**

Mavzuning maqsadi:

Ushbu mavzuda globallashuv insoniyat taraqqiyoti va jamiyat hayotining jahon miqyosida integratsiyalashning natijasida sodir bo‘layotgan jarayon ekanligi, jahon taraqqiyotining yaqin va uzoq kelajagini ilmiy bashorat qilish imkoniyatlari, ilmiy gipoteza va tahlillar, ularning ahamiyati, ijtimoiy taraqqiyotning o‘ziga xos xususiyatlari hamda halqaro integratsiya jarayonlari, umumbashariy muammolar va ularning asosiy yo‘nalishlari hamda namoyon bo‘lish xususiyatlari kabi masalalarni, shu bilan birga Respublikamiz tabiatini va uni asrab qolish muammolari, O‘zbekistonda inson

salomatligiga berilayotgan e'tibor kabi masalalarni har tomonlama nazariy asoslashga qaratilgan.

### **Mavzuning rejasi:**

1. Globallashuv, uning belgi va xususiyatlari;
2. Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi davrida umumbashariy muammolar,  
Axborotlashgan jamiyat;
3. O'zbekistonda tabiat, jamiyat va insonni asrash yo'llari.

***Birinchi savol:*** Globallashuv, uning belgi va xususiyatlari masalasida shuni qayd etish lozimki, globallashuv insoniyat taraqqiyoti va jamiyat hayotining jahon miqyosida integratsiyalashishi natijasida sodir bo'layotgan jarayonlarning olamshumul ahamiyat kasb etishidir.

Globallashuvning hozirgi kunda uch manbaining mavjud ekanligi, jumladan

- kommunikatsiya vositalaridagi tub o'zgarishlar;
- investitsiyalardagi yangi jarayon;
- dunyodagi yangi qarashning vujudga kelishidir.

Hozirgi kunda globallashuv protsessiga to'g'ri yondashish taraqqiyotni tezlashtiradi, tinch - totuvligini ta'minlaydi, jamiyatda ijtimoiy barqa-rorlikni, siyosiy mavqega egalikni ta'minlaydi hamda qo'shni davlatlarga nisbatan muloqot vositasi hisoblanadi.

Globalizatsiyaning takomillashib borishi, birinchi navbatda ijtimoiy - iqtisodiy jarayonlarni tezlashtiradi, davlatlar o'rtasidagi aloqalarni mukammallashtiradi, natijada halqaro fuqarolik jamiyati shakllana boradi.

Globalizatsiyaning iqtisodiy omillari katta ahamiyatga ega. U ijtimoiy hayot va davlatning barcha moddiy va ma'naviy sohalarini qamrab oladi. Globalizatsiyaning asosiy omili halqaro mehnat taqsimotini kuchaytiradi, natijada transport va aloqalarning narxi muntazam pasayib boradi.

Ayniqsa, axborot vositalari sohasidagi inqilobni vujudga keltiradi.

Globallashuvning bugunga kelib katta ahamiyat kasb etishga bir qancha sabablar

mavjud: texnologiyaning tez rivojlanishi natijasida kommunikatsiya va axborot almashuvining osonlashishi kommunizm g‘oyasini yo‘q bo‘lishi haqidagi siyosiy jarayonlar, transportning taraqqiy etishi natijasida mamlakatlararo yuk tashish hajmining ortishi va turizmnинг rivojlanishi. Bu o‘z navbatida, kompaniyalarga rivojlanish imkoniyatini yaratadi, qo‘srimcha bozorlar ochishga olib keladi. Madaniyat va qadriyatlar integratsiyasi natijasida iste’mol turlari kengaytirdi, yangi xom ashyo manbalarini olib berdi, integratsiya jarayonini kengaytirdi.

Globallashuv jarayoni ijtimoiy hayotning barcha sohalariga ta’sir qilib, alohida mamlakatlarni jahon hamjamiatiga bog‘laydi. Natijada yangi bozorlar (kapital, valyuta bozori, sug‘urta bozori va hokazo), yangi vositalar paydo bo‘ladi (turli axborot tizimlari, Internet, uyuli aloqa). Bular esa, o‘z navbatida yangi nazorat vositalarini talab etadi. Bugungi kunda iqtisodiy hamkorlik, intellektual mulk, internetdan foydalanish sohalarida yangi halqaro me’yoriy hujjatlar ishlab chiqarib, mamlakatlarning ichki qonunlari ham ularga moslashtirib borilmoqda.

Globallashuvning quyidagi asosiy belgilarini ko‘rsatish mumkin: halqaro savdoning kengayishi va erkinlashishi, halqaro kapital aylanmasi va uning yo‘lidagi to‘siqlarning bartaraf etilishi, elektron kommunikatsiya inqilobi natijasida moliyaviy munosabatlarda sodir bo‘lgan chuqur o‘zgarishlar, transmilliy korporatsiyalar faoliyatining kengayishi, halqaro moliyaviy va iqtisodiy institutlarning tashkil etilishi.

Jahon miqyosidagi bunday umumiy taraqqiyot birinchidan - odamlar dunyoqarashi o‘zgarishi, kommunikatsiyalar yuksalishi, halqaro munosabatlar rivoji odamzod hayotiga ta’sirni ko‘rsatdi, ikkinchidan - davlatlar va halqlar o‘rtasida birlashishga intilishni kuchaytirgan ayni vaqtda milliy xususiyatlar, an’ana va ma’naviy merosni saqlab qolish orqali mustaqil siyosiy tamoyillarni ishlab chiqish zarurligini ko‘rsatdi.

Turli davlatlararo va hukumatga dahli bo‘lmagan halqaro tashkilotlar-ning faoliyatini qaytadan isloh qilishni taqozo etadi.

Bugungi ahvol halqaro tashkilotlardan eng yirik muammolarga ahamiyat berishni talab etadi.

Shu bilan birga “globalizatsiya” jahon taraqqiyotiga ko‘rsatayotgan ijobiy ta’sir

bilan bir qatorda chuqur tasavvurlarni ham o‘z ichiga oladi, bu tafovutlarni e’tiborga olmasa, ular insoniyat taraqqiyotiga salbiy ta’sir ko‘rsatishi ham mumkin.

Birinchidan, bu ba’zi mamlakatlarning texnologik yutuqlar sohasida mutlaq ilg‘orlikni qo‘lga kiritayotganligi asnosida sayyoramiz zahiralari ham, iqtisodiy faoliyat ham jahon miqyosida transnatsional korporatsiyalar tomonidan boshqarilishi tizimi shakllanayotgani va tobora mustahkamlanib borayotganligidadir.

Ikkinchidan, hozirgi davrda globalizatsiya dunyoda ijtimoiy tenglikka erishishni yengillashtirmaydi, aksincha, buni qiyinlashtiradi, degan qarashlar ham mavjud. Ularning fikricha, badavlat mamlakatlar aholisi daromad-larning past va o‘rtta darajali daromadli mamlakatlar aholisinikiga nisbatan ilgarilab, o‘sishga barqaror mayillik saqlanib kelmoqda. Agar o‘tgan asr boshida (1913 yil) dunyo aholisining eng boy mamlakatlarda istiqomat qiladigan beshdan bir qismiga tegishli boylik orasidagi nisbat 11:1 ni tashkil qilgan bo‘lsa, 1960 yilda ushbu farq 30:1 nisbatgacha, 1990 yilga kelib esa 60:1 nisbatgacha kattalashdi va hamon jadal ortib bormoqda. 1997 yilja u 74:1 nisbatni tashkil qildi.

Buning asosiy sabablaridan biri rivojlanayotgan mamlakatlarda avvalo xom ashyo tovarlariga asoslanib qolgan ishlab chiqarish va eksport targ‘iboti shakllanganligidadir.

Narx va daromadlarga ko‘ra, ularga bo‘lgan talabning past darajasidagi moslanuvchanligi, ularning ishlab chiqarilishini eksportidan tushadigan daromadning past sur’atlar bilan o‘sishi va boshqa sabablardan iborat.

Uchinchidan, global iqtisodiy jarayonlarning bardosh bera olmay, uzoq vaqtlar mobaynida jahon silsilasining quyi qavatidan chiqib keta olmayotgan mamlakatlar ijtimoiy va fuqaro nizolarining xavfi ostida qolmoqdalar.

Ba’zi Afrika mamlakatlarida mahalliy va fuqarolar o‘rtasidaga urushlar, davlat to‘ntarishlari, bir qator Osiyo va Lotin Amerikasi davlatlari, Yugoslaviya, Kavkazorti mamlakatlari va boshqalarda xavfli holatni keltirib chiqarmoqda.

To‘rtinchidan, jahondagi ijtimoiy va iqtisodiy notekislik qashshoq mamlakatlardan badavlat mamlakatlar tomon aholining ko‘chishi oqimini tug‘dirmoqda. Malakali kadrlarning siljishi va boshqalar.

Beshinchidan, mafiya tuzilmalarining va boshqa tuzilmalarning, ya’ni misli ko‘rilmagan daromad keltiruvchi “mol” - qurol yarog‘ va giyohvand moddalardan tortib, inson tana organlarigacha jalb qilinayotgan transnational jinoiy ishlarning sodir etilishiga olib kelmoqda.

Xulosa qilib aytganda, globalizatsiyani chetlab o‘tish mumkin emas, u jamiyat taraqqiyotidagi tarixiy jarayondir. Lekin globalizatsiyaning jamiyatdagi muayyan unsurlar va tuzilmalarga yo‘l qo‘ymaslik XXI asr halqlari va davlatlari oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

Global muammolarning kelib chiqishi va hal etilishi zaruriyati insoniyat jamiyati yangi sivilizatsiyaviy sifat o‘zgarishlarni taqozo etadi.

**Ikkinci savol:** Ijtimoiy taraqqiyotning hozirgi davrda umumbashariy muammolar va axborotlashgan jamiyat.

Hozirgi vaqtida insoniyatga xavf solib turgan umumbashariy muammolar deganda, butun dunyo, barcha davlatlar va halqlarning ishtirokisiz yechish mumkin bo‘lmagan muammolarga aytildi. Jumladan, bular quyidagilar:

1. termoyadro urushi xavfining oldini olish va qurollanishni bartaraf etish;
2. jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotining o‘sishi uchun shart - sharoitlar yaratish;
3. iqtisodiy qoloqlikni tugatish, yer yuzida qashshoqlik va ochlikka barham berish;
4. tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish;
5. insoniyatning baxt - saodat yo‘lida fan - texnika yutuqlaridan oqilona foydalanish, bu sohada halqaro hamkorlikni vujudga keltirish;
6. inson organizmi va uning sog‘ - salomatligini tiklash borasida kompleks ilmiy - tadqiqot ishlari olib borish.

Shuni qayd etish joizki, insoniyatning kelajagi to‘g‘risida tarixda turli - tuman bashoratlar mavjud. Masalan, “Avesto” da insonning kelajagi haqida bashorat qilib, Zardusht o‘limidan 3000 yil o‘tgandan keyin erkin farovonlik zamoni keladi. Axura Mazda qudrati, Axrimon yovuzligi ustidan to‘la g‘alaba qozonadi, deya ishonch bildirilgan edi.

Ikkinci xil bashoratlar o‘rta asrlarda shuhrat qozongan G‘arb futurologiyasi

mazmuniga ega. G'arb futurologiyasi namoyondalaridan fon Karmon, Ye.Shervin, G.Kant va boshqalar insoniyatning kelguvchi istiqbolini, asosan, yadro halokati va boshqa umubashariy muammolar bilan bog'lab, psimistik manzarani chizib ko'rsatadi.

Insoniyatning kelguvchi istiqboli haqida ilmiy bashoratlar orasida 1968 yilda A.Pechchen tomonidan asos solingan "Rim klubi" a'zolari bo'lgan J.Forrester, D.Medouz, Ya Tinbergan, A.King va boshqalar insonning kelajagi haqida falsafaning qonun va kategoriyalariga asoslanib ilmiy xulosalar beradi.

1955 yilda 9 iyul kuni B.Rassel tomonidan o'tkazilgan pris - konferen-siyada "Rassel - Eynshteyn manifesti" yer yuzida insonning kelajagi haqida mashhur chaqiriq e'lon qilindi. U tinchlik va quolsizlanishga qaratilgan chaqiliq edi.

Rassel - Eynshteyn manifestining chop etilganiga 45 yil o'tdi. Bu davr mobaynida yadro qurollarini ishlab chiqish ko'lami bir necha bor ko'paydi. Ikkinci johon urushidan keyin o'tgan yarim asr mobaynida quollanishga 16 trl. dollar sarflandi. Hozirgi kunda harbiy sohalarda har yili 1 trl dollar miqdorda mablag' sarflanmoqda. Har kuni qurol - yaroqqa ajratiladigan mablag' 3,4 - 3,5 mlrd dollarni tashkil etdi.

Bunday yo'nalishlar insoniyat kelajagi uchun nihoyatda xavfli vaziyatdir. Davrimizning eng dolzarb masalalaridan biri jahon iqtisodiyotining sur'atini belgilaydigan energiyani iste'mol qilish ko'lami muttasil kegayib borayotganlidadir. Agar energiyaga ehtiyoj shu tariqa ko'payib borilsa, yaqin yillar ichida yiliga 20 mlrd. tonna yoqilg'i ialab qilinadi. Bu ko'rsatkich 2025 yilda 35 - 40 mlrd, XXI asrning oxiriga borib 80 - 85 mlrd tonnani tashkil etishi taxmin qilinmoqda.

Bu holatdan chiqib ketishning yo'li bitta yoqilg'ining organik moddalar (neft, ko'mir, gaz va h.k.) dan olinadigan energiya salmog'ini kamaytirib, noorganik yoqilg'i manbalar (GESlar, AESlar, shamol elektrostansiyalar, quyosh energiyasidan foydalanish, vodorod, geliy va h.k.) dan olinadigan energiya miqdorini muttasil oshirish borish, Quyosh energiyasi, GES va shamol elektrostansiyalar 2005 yilda bu ehtiyojning 60 % ini qondirishi mumkin.

Butun jahonda ishlab chiqarilayotgan energyaning qariyb 34% i rivoj-langan mamlakatlarga to'g'ri keladi.

Atom elektrostansiyalarining chiqindilarini bartaraf etishning ekologik xavfsizlik masalalariga hozirgi davrda muammoli masalalardan biridir. Ayniqsa, 1986 yil 26 aprel kuni Chernobil AES IV - blokining ishdan chiqishi natijasida katta miqdordagi radiatsiyaning havoga ko‘tarilishi mazkur rejaning yashashga mutlaqo yaroqsiz bo‘lib qolishiga sabab bo‘ldi.

Insoniyat oldida jahon iqtisodiyotining o‘sishi energetikaga bo‘lgan ehtiyojni qondirish, shu yo‘nalishda ekologiyaga e’tibor berish hamjamiyat oldida turgan asosiy muammolardan biridir.

Xom ashyo resurslaridan foydalanish va ekologik muammoni hal etish eng muhim muammolardan bo‘lib, XX asrning boshidan to hozirgi kungacha ishla chiqarilgan ko‘mirning 76% i, tabiiy gazning 80 % i, keyingi 25 yilga to‘g‘ri kelar ekan. Tahlillarga qaraganda, 90 yillarda ishlab chiqarilgan xom ashyo miqdori 60 - 70 yillardagiga qaraganda 1,5 - 2 barobar ko‘paygan. Shuning uchun xom ashyo bazasidan tejab - tergab foydalanish hozirgi davrning dolzarb muammolaridan biridir.

Juda ko‘p rivojlangan mamlakatlarda ichimlik suvining tanqisligidan qiyinchiliklar yuzaga chiqmoqda. Ana shu mamlakatlardan 42 - 45% km hajmida sanoatdan chiqqan iflos oqova suvlar suv havzalari, ko‘l, dengiz, okean suvlarini zxining zaharli tarkibi bilan bulg‘amoqda. XXI asr boshlariga kelib, toza ichimlik suvlariga bo‘lgan ehtiyoj dunyo miqyosida XX asrning 90 yillariga nisbatan yana 23 - 25 baravar oshdi.

Har yili okeanlarga 12 - 15 mln. Tonnaga yaqin neft va neft mahsulotlari to‘kilmoqda. O‘rmonlar va ekin yerlar kamaymoqda. Dunyoda har yili 0,8 % tropik o‘rmonlar yo‘qolib bormoqda, 200 ming km territoriyadagi tropik o‘rmonlar kesilib qayta tiklanmay qolmoqda.

Hozirgi paytda yiliga 8,3 mln hektar yoki minutiga 16 hektar o‘rmon yo‘qotilmoqda. Inson yashash uchun zarur bo‘lgan mo‘tadil muhitining buzilishiga olib kelmoqda.

Dunyoda oziq - ovqat muammoasi ham dolzarbligicha qolmoqda. Dunyo halqlarining 2/3 qismi doimo oziq - ovqat tanqisligi hukm surayotgan mamlakat halqlari

hissasiga to‘g‘ri keladi.

Keyingi vaqtida hosildorlikni ko‘paytirish ustida juda ko‘p ishlar qilinib, o‘tgan asrning 80 yillari oxirlariga kelib dunyo miqyosida yetishti-rilgan mahsulot o‘sishining 90 % hosildorlikni ko‘tarish hisobiga to‘g‘ri keladi. Bunday holat ham yerlarning strukturasiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

Rivojlangan va kam taraqqiy etgan mamlakatlar o‘rtasidagi tafovutni yo‘qotish ham davrimizning eng chigal masalalaridan biridir.

Rivojlangan mamlakatlarda yuqori texnologiya, ilmiy - texnika taraqqiyoti natijasida mamlakatlarning industriyasi rivojlanishiga halq ommasining yashash tarzi ham yuqori saviyaga ko‘tarildi. Bu yerda ilmiy texnika yutuqlari natijasida yuqori foyda ola boshladi (bunga AQSH, Yaponiya, Germaniya va boshqalar).

Bu mamlakatlarda milliy daromad jon boshiga ishlab chiqarish keskin ko‘paydi. Ikkinchidan mamlakat aholisining tug‘ilishini chegaralash, ularga sarflanadigan mablag‘ni, yuqori texnologiyani egallashga zarur bo‘lgan mutaxassislar yetkazish uchun sarflash ko‘zda tutildi. Uchinchidan, ilmiy - tadqiqot, oliv o‘quv yurtlari va maorifga taraqqiyotni ta’minlovchi asosiy manba sifatida qarab birinchi darajali ahamiyat berildi.

Bu sohada butun jahon miqyosida fan va ta’limga 3 - 4 % yalpi milliy mahsulotning miqdorida mablag‘ ajratilgan bir paytda, O‘zbekistonda bu ko‘rsatkich 8,3 % miqdorida ekanligi kelajakka katta umid bilan qarashga imkon tug‘dirdi.

XX asrning so‘nggi o‘n yilligida ba’zi mamlakatlar o‘rtasidagi iqtisodiy ko‘rsatkich orasidagi tafovut kuchayib borayotganligini kuzatish umukin.

Agar XX asrning 60 yillarida Hindistonda ishlab chiqarilgan yalpi ijtimoiy mahsulot jon boshiga 50 - 70 dollarni tashkil etgan bo‘lsa, Afg‘onistonda 60- 70 dollar, Turkiyada 243 dollar, Yaponiyada 1400 dollar, AQSH da 3600 - 3800 dollar bo‘lgan. 1994 yilgi ma’lumotlarga muvofiq yalpi milliy mahsulot jon boshiga Hindistonda 370 dollar, Afg‘onistonda 80 dollar, Turkiyada 3900 dollar, Bangladeshda 125 dollar, Germaniyada 22 ming dollar, Italiyada 14,8 ming dollar, AQSH da 26 ming dollar, Janubiy Koreyada 8,7 ming dollar, Yaponiyada 37000 dollar bo‘lgan.

Bu ko'rsatkich ayrim davlatlarning kambag'allashib borishi, ayrim davlatlarning nihoyatda boyib ketishidan dalolat beradi. Bunday holat demografik siyosatning yuzaga kelishiga olib keladi.

Darhaqiqat, bundan 6 - 8 ming yillar oldin yer yuzida 5 million atrofida odamlar yashagan. Eramizning boshlanishida 230 mln, 1 - ming yil-likning oxiri, 2 - ming yillikning boshlarida 305 mln, 1500 yilda 440 mln, 1800 yilda 952 mln, 1900 yilda 1 656 millionni tashkil etgan. Hozirgi kunda yer yuzi aholisi 6 milliarddan oshdi. Bu ko'rsatkich juda yuqori bo'lib, ba'zi kam taraqqiy etgan mamlakatlarda ba'zi muammolarni keltirib chiqarmoqda.

Aholining keskin ko'payishi kuchaydi. Masalan, 1800 yilda Fransiya aholisi 27 mln kishi bo'lgan bo'lsa, 1999 yilga kelib 56,7 mln, Filippinda 1,5 mln kishi miqdorda bo'lgan bo'lsa, shu davrga kelib 65 mln ko'paydi. Xitoy va Hindistonda yanada ko'paydi. Xullas, bu masala bir mamlakat doirasidan chiqib, jahon muammosiga aylandi. Bu bilan bog'liq muammolarni hal qilish uchun ham butun jahonda mushtarak faoliyat olib borish zarur.

**Uchinchi savol:** O'zbekistonda tabiat, jamiyat va insonni asrash yo'llariga kelganimizda Prezident I.A.Karimov tomonidan "O'zbekiston - kelajagi buyuk davlat", "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari", "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" kabi qator asarlarida mamlakatimizning kelajagi to'g'risida falsafiy mushohada qilib bergan. Bu asarlarda O'zbekistonning mintaqamiz-dagi o'ziga xos o'rni, ulkan tabiat resurslari, demografik omil va inson salohiyatini inobatga olib, boy ma'naviy merosimiz, tarixiy tajriba, milliy qadriyatlarimizga asoslanib mamlakatimiz yaqin yillarda rivoj-langan mamlakatlar ichida munosib o'rin egallashini ko'rsatadi.

Islom Karimov ta'kidlagani kabi: "Jahon sivilizatsiyasi xazinasiga ulkan hissa qo'shgan boy tariximiz, buyuk madaniyatimiz, ko'p avlodlar hayoti davomida vujudga kelgan beqiyos tabiiy va aqliy imkoniyatlarimiz, halqimiz-ning yuksak madaniyati va ahloqiy qadriyatlarimiz, bag'rikengligi va jahon hamjamiyatda o'ziga munosib o'rin egallashga bo'lgan istagi buning garovidir"

Mamlakatimizda Sobiq Ittifoqlan meros qolgan eng global muammo - bu Orol

fojiasidir. Bu haqda jahon miqyosida ko‘p marta tashabbus bilan chiqilgan. Shu bilan birga mamlakatimiz aholisi ham muttasil o‘sni bormoqda.

O‘zbekiston o‘z aholisi o‘sishi bilan bog‘liq masalalarini muvaffaqiyatli hal qilishga kirishdi. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida aholini ijtimoiy himoya qilish tamoyili, bundan tashqari Prezidentimiz tomonidan 2007 yilni “Ijtimoiy himoya yili” deb atalishi va bu yilda aholini ijtimoiy himoya qilishda amalga oshirilayotgan ishlar buning yaqqol misolidir. Bu yo‘nalishlar aholi o‘rtasida tengsizlikning oldini olishga xizmat qiladi.

Keyingi yillarda Respublika hukumati inson salomatligini muhofaza qilish, tug‘ilgan har bir chaqaloq oldida ota - onaning, qolaversa jamiyatning javobgarligini oshirish borasida bir qator ishlarni amalga oshirib, 2 yoshgacha va 16 yoshgacha bolali ayollarga moddiy yordam berish hamda mahallalarda kam ta’minlangan, moddiy yordamga o‘ta muhtoj fuqarolarga moddiy yordam berishning yo‘lga qo‘yilishi, shu bilan birga “Sog‘lom avlod” jamg‘armasining tuzilishi, “Sog‘lom avlod uchun” ordenining ta’sis etilishi, 2006 yilning “Sihat - salomatlik yili”, 2007 yilni “Ijtimoiy himoya yili” deb atalishi ham fikrlarimizning dalilidir.

Bugungi kunda yosh avlodni o‘tmish, qadriyatlar asosida Vatanparvar, iymon - e’tiqodli qilib tarbiyalash bugungi kunning asosiy vazifasidir.

## **Hozirgi kunda insoniyatga xavf solib turgan umumbashariy muammolarga quyidagilar kiradi**

- Termoyadro urushi xavfining oldini olish va qurollanishni bartaraf etish
- Jahon iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotining o'sishi uchun qulay shart – sharoit yaratish
- Iqtisodiy qoloqlikni tugatish, yer yuzida qashshoqlik va ochlikka barham berish
- Tabiiy boyliklardan oqilona foydalanish
- Ekologik muammoni dunyo miqyosida hamkorlikda hal etish
- Dunyo boyliklaridan oqilona foydalanish; azon qatlaming yo'qolish xavfining oldini olish va h.k.

### **Tayanch so'z va iboralar.**

Global muammolar, milliy, mahalliy muammolar, energiya, yoqilg'i resurslar muammosi, xom - ashyo resurslari, ekologik muammo, jonli tabiatni asrash muammosi, oziq - ovqat muammosi, kam taraqqiy etgan mamlakatlar muammosi, demografik muammo, inson qatri muammosi.

### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari" - T., "O'zbekiston", 1997 y.
2. Karimov I.A. "O'zbekiston XXI asrga intilmoqda" - T., "O'zbekiston", 2000 y.
3. Karimov I.A. "Donishmand halqimning mustahkam irodasiga ishonaman". "Fidokor" gazetasi. 2004 yil 8 iyun.
4. Karimov I.A. "O'zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo'li". O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 16 yilligiga bag'ishlangan qo'shma majlisidagi

ma’ruzasi. 2007 y., 31 avgust.

5. Sharipov M. “Qadriyatlar - tarixiy ong va milliy iftixor ko‘zgusi” J. Ijtimoiy fikr - inson huquqlari. №1, 2006 yil, 155 - 159 betlar.
6. G‘aybullayeva X. “Milliy istiqlol g‘oyasi, yangicha mazmun va talqin”. J. Ijtimoiy fikr - inson huquqlari. №2, 2006 yil, 116 - 124 betlar.
7. Falsafa. Ma’ruzalar matni. Toshkent - 2000 y., 289 - 302 betlar.
8. Falsafa asoslari. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2005 y., 357 - 365 betlar.
9. Madiyeva Sh. “Sharq allomalari asarlarida demokratik g‘oyalarning aks etishi”. J. Ijtimoiy fikr - inson huquqlari. №2, 2006 yil, 116 - 124 betlar.
10. Muhitdinov N. “Kremlda o‘tgan yillarim”. Toshkent. “O‘zbekiston”, 1995y.
11. Karimov B. “Tabiat va o‘zlikni asrash falsafasi”. “Muloqot” jurnali, №6 son, 2004 yil.
12. Karimov S.K. “G‘oyaviy kurash: yo‘nalishlar, tamoyillar, tushunchalar”. Samarqand - 2006 yil.
13. Suyunos S.X. “Yoshlarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalashning asosiy mezonlari”. Samarqand - 2006 yil.
- 14/ ‘Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar’. Toshkent - 2005 yil.

#### **Mavzu №14. Jahon sivilizatsiyasi va mustaqil rivojlanish falsafasi.**

Mavzuning maqsadi:

Ushbu mavzuda jahon sivilizatsiyasi nima? U Sharq va G‘arb sivilizatsiya-lari hamda mintaqaviy va hududiy sivilizatsiyalarning yaxlit, bir butun ijtimoiy tizimi bo‘lgan umuminsoniyat, sayyoramizdagi jamiyat tushunili-shini, jahon sivilizatsiyasining hozirgi davri, rivojlangan mamlakatlar taraqqiyoti hamda O‘zbekiston mustaqilligi va jahon sivilizatsiyasiga qo‘shilish yo‘li, uning yo‘nalishlari, O‘zbekistonning o‘ziga xos rivojlanish yo‘li va taraqqiyotning O‘zbek modeli to‘g‘risida I.A. Karimov nazariyasi kabi masalalarni nazariy va amaliy misollar asosida yoritib berishga qaratilgan.

## **Mavzuning rejasি**

- Jahon sivilizatsiyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari.
- O ‘zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo‘shilishining falsafiy yo‘nalishlari.
- Iqtisodiy islohotlar va sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlari.

***Birinchi savol:*** Jahon sivilizatsiyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari masalasida shuni qayd etish lozimki, insoniyat taraqqiyotining bugungi holati zamonaviy sivilizatsiyaning asosiy tamoyillari bilan uzviy bog‘liq. O‘zbekistonning umuminsoniy sivilizatsiya bilan uyg‘unlashuvi ham ko‘p jihatdan ana shunga bog‘liq.

Hozirgi vaqtida insoniyat o‘z rivojining yangi bosqichiga ko‘tarilib, o‘zida moddiy ishlab chiqarish yutuqlarini, insoniyat tomonidan orttirilgan tajribalarini, jahon miqyosida paydo bo‘lgan muammolarni oqilona hal etish yo‘llari mujassamlashtirildi.

Jahon sivilizatsiyasi deganda, Sharq va G‘arb sivilizatsiyalari, mintaqaviy va hududiy sivilizatsiyalarning yaxlit, bir butun ijtimoiy tizimi bo‘lgan umuminsoniyat, sayyoramizdagi jamiyat tushuniladi. Bu tushuncha zaminimizda yashayotgan barcha odamlarning umumiyligi makoni bo‘lgan Yer yuzidagi hayot tarixda mavjud bo‘lgan davlat, jamiyat, halq va millatlarning umumguzarlik qilishi bilan bog‘liq bo‘lgan jarayonlar majmuini o‘zida aks ettiradi.

Bugungi tahlikali dunyoda insoniyatning eson - omon yashab qolishi va kelajagi jahon sivilizatsiyasining asosiy maqsad va yo‘nalishlariga aylanib qoldi. Respublikamizda bu sohada amalga oshirilayotgan ishlar butun dunyo hamjamiyati faoliyati bilan hamohang kechmoqda.

Ayrimlik, o‘ziga xoslik va umumiylilik o‘rtasidagi munosabatni teran anglash hozirgi zamon jahon sivilizatsiyasining shakllanish va rivojlanish xususiyatlarini falsafiy idrok etishga imkon beradi.

Yer yuzidagi har bir mamlakat jahon sivilizatsiyasi deb ataladigan yaxlit tizimning turli tarkiblari bo‘lib, ularning o‘zaro ta’siri, hamkorligi sivilizatsiyaning takomillashuvi, barqaror yashashga imkon berdi.

To‘g‘ri, bu tizim tarkibida Amerika, Rossiya, Xitoy, Yaponiya kabi salmoqli tarkiblar ham bor. Ular ko‘p jihatdan jahon tizimi taraqqiyotiga ta’sir ko‘rsatadi, muayyan jarayonlarning yo‘nalishlarini belgilaydi. Ammo bu tizimda har bir davlatning, kichkinagina Vatikandan tortib Fransiyagacha har bir davlatning o‘z o‘rni, o‘z ta’sir kuchiga ega. Ularning har biri kichik kattaligidan qat’iy nazar Birlashgan Millatlar Tashkilotining teng ovozga ega. Demak, har bir mamlakat jahon sivilizatsiyasiga teng huquqli a’zo va muhim element sifatida kirib boradi.

Jahon hamjamiyati o‘zida umumiylikni har bir mustaqil mamlakat esa ayrimlik va o‘ziga xoslikni ifodalaydi. Shu jumladan, O‘zbekiston alohidalikni ifodalaydi. O‘zbekiston mustaqillikka erishganiga ko‘p bo‘lmasada, jahon hamjamiatida o‘z o‘rniga ega. U Markaziy Osiyoda taraqqiyot yo‘lini to‘g‘ri belgilaydi.

Har bir mamlakat, millat o‘z xususiyatlarini saqlagan holda mustaqil rivojlanadi, jahon hamjamiatiga qo‘silia boradi. Bunday qo‘silish rang - barang bo‘lib, u ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ma’naviy, huquqiy davlatlararo munosabatlarni qamrab oladi.

Jahon hamjamiatiga qo‘silish tabiiy - qonuniyatli jarayon bo‘lib, har bir mamlakat har tomonlama taraqqiy etishi, yer osti va yer usti boyliklaridan oqilona foydalanish, yer yuzida umumiylar xavfsizlik, tinchlik, farovonlikni ta’minlashga, ilm - fanni rivojlantirishga, ekologik muvozanatni ta’minlashga imkon beradi.

Jahon hamjamiatiga qo‘silish natijasida nafaqat iqtisodiy sohada, balki, halqlar ma’naviyati, siyosati va dunyoqarashida ham muhim ijobiy o‘zgarishlar ro‘y beradi. Bunday jarayonga tushgan halqlar o‘rtasida bir - biriga ishonch, o‘zaro hurmat, o‘rtada chiqqan ixtiloflarni o‘zaro kesishuv, konsensus asosida hal qilish imkoniyati vujudga keladi. Bunda bir - birini hurmatlash, milliylik va umuminsoniylikning uyg‘unligi jahon sivilizatsiyasida yaqqol namoyon bo‘ladi va dunyo hamjamiatining harakat dasturiga aylanadi.

O‘zbekiston ko‘p asrlik milliy davlatchiligi, madaniyati, ilm - fani, san’ati, falsafasi, o‘ziga xos va betakror hayot falsafasi bilan jahon sivilizatsiyasiga munosib hissa qo‘sidi. O‘zbek halqi jahon madaniyatiga o‘zining o‘lmas asarlari orqali katta hissa qo‘sigan allomalarni bergen. Biroq, mustamlakachilik yillarida ro‘y bergen quyidagi jarayonlar halqimizning jahon sivilizatsiyasiga qo‘silishiga imkon bermagan:

- milliy davlatchiliga ega bo‘lmaganligi;
- milliy madaniyatning tabiiy rivojlanish imkoniyati cheklanganligi;
- dunyodan uzib qo‘yilganligi;
- tarixi va ona tili, ma’naviy merosidan begonalashganligi;
- milliy qadriyatlar, an’ana va urf - odatlarining yo‘qolib borganligi.

Mustaqillik tufayligina O‘zbekiston o‘z taraqqiyot yo‘lini o‘zi tanlash imkoniyatiga ega bo‘ldi. Mustaqillikning dastlabki yillaridayoq jahon sivilizatsiyasiga qo‘shilish yo‘lini tanladi.

Har bir halq mustaqil bo‘lgandagina o‘zining iqtisodiy, madaniy, milliy davlatchilik siyosatini amalga oshiradi. O‘z imkoniyatlariga tayanib, jahon hamjamiyatiga kirib borar ekan, bu jarayon milliy falsafada ham o‘z ifodasini topadi.

Mustaqil bo‘lmagan halqning falsafasida mustamlakachilikning g‘oyalari doimo ustivor bo‘ladi. Faqat mustaqillikdagina ijtimoiy ongning hamma sohalarida, milliylikning to‘la to‘kis namoyon bo‘lishi uchun zamin yaratiladi.

Jahon sivilizatsiyasiga qo‘shilish har bir mustaqil rivojlanayotgan davlatning taraqqiyotida o‘z kuchi va imkoniyatlariga, ilg‘or an’analariga, qadriyatlariga, milliy davlatchiliga, intellektual salohiyatiga, tabiiy boyliklariga tayanishni inkor etmaydi.

Mustaqillik farovon, baxtli hayotni bizga kimdir yaratib bermasligini, balki o‘z aql zakovatimiz, kuch - qudratimiz bilan yaratishimizni taqozo etadi.

Taraqqiyotga sivilizatsiyali yondashish o‘ziga xos xususiyatlarga ega. O‘zbekiston va jahon tarixini o‘rganishga bunday qarash hozirgi zamon falsafasida muhim yo‘nalishlardan biri sifatida qaror topmoqda. Jahon tarixiga sivilizatsiyali yondashuv insoniyat taraqqiyoti zo‘rliksiz, inqilobiy sakrashlarsiz jamiyat taraqqiyoti ilgarilab borganda juda katta foyda ko‘rishini ko‘rsatadi.

O‘zbekiston jahon sivilizatsiyasiga qo‘shilishning falsafiy yo‘nalishla-riga kelganda I.A.Karimovning “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li”, “O‘zbekistonning siyosiy - ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy yo‘nalishlari”, “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida”, “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida” kabi asarlarida O‘zbekistonning istiqlol va taraqqiyo yo‘lidagi o‘ziga xosligi har tomonlama asoslab berilgan.

O‘zbekistonning mustaqilligi ob’ektiv zaruriy jarayon, ajdodlarimiz-ning azaliy orzusi, o‘zbek halqining buyuk tarixi yutug‘idir.

O‘zbekiston Konstitutsiyasining qabul qilinishi, milliy mustaqillik, ramzları bo‘lgan davlat bayrog‘i, gerbi, davlat madhiyasining qabul qilinishi milliy davlatchilik demokratiyaning shakllanganligi, barcha boyliklarga egalik huquqining tiklanganligi, milliy armiya, xavfsizlik tizimining shakllanganligi, milliy qadriyatlarni tiklash imkoniyati yaratilganligi mustaqillikning sharofatidir.

O‘zbekiston mustaqilligini mustahkamlash, jamiyat hayotini tub isloh etishning asosiy tamoyillari Prezident I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqildi. Bu jarayonning umuminsoniy jihatlari va jahon sivilizatsiyasiga xos tamoyillarining amalga oshishi muayyan muddatni talab qiladi. Bu muddatda amalga oshiriladigan barcha ishlar o‘tish davri zaruriyatidan kelib chiqadi.

Mustabid tuzum davrida jahon sivilizatsiyasida ajratib qo‘yilgan, O‘zbekiston bu borada ikki yo‘lda faoliyat yurgizishga majbur bo‘lmoqda. Birinchidan, Mustaqillikni mustahkamlash, milliy qadriyatlarni tiklash asosida o‘ziga xos yo‘ldan borish, ikkinchidan esa bu jarayonda umuminsoniy qadriyatlarning ustivorligini ta’minlash, jahon sivilizatsiyasi yutuqlaridan keng foydalanish, demokratik jamiyat qurish vazifalarini amalga oshirmoqda.

I. A.Karimov tomonidan asoslab berilgan o‘ziga xos taraqqiyot yo‘li quyidagi tamoyilarni nazarda tutadi:

1. Iqtisodiyotning siyosatdan ustivorligi;
2. Davlatning bosh islohotchi ekanligi
3. Qonun ustivorligi;
4. Kuchli ijtimoiy siyosat;
5. Bozor munosabatlariga bosqichma - bosqich o‘tish.

O‘zbekistonning tadrijiy taraqqiyot yo‘li ayrim davlatlarning bozor munosabatlariga “shaxs terapiya” si usuli bilan o‘tishdan keskin farq qiladi. O‘zbekiston o‘tmish qadriyatlarga asoslanib bozor iqtisodiyotiga bosqichma - bosqich yo‘lini tanladi va shu yo‘lda 16 yil mobaynida ulkan muvaffaqiyatlarga erishdi.

**Uchinchi savol:** Iqtisodiy islohotlar va sivilizatsiyalashgan bozor muno- sabatlari

masalasida O‘zbekiston uzoq yillar davomida shakllangan iqtisodiy strukturada tub o‘zgarishlarni zudlik bilan qisqa vaqt ichida amalga oshirishning salbiy oqibatlari oldini olish va puxta o‘ylangan strategik rejalarни amalga oshirishga alohida e’tibor berildi. Islohotlarning amalga oshirilishi milliy manfaatlar uchun xizmat qilishi zarurligi e’tiborga olindi. Islohotlar amalga oshirilishiga qadar respublika aholisining aksariyat qismi iqtisodiy jihatdan nochor ahvolda bo‘lib, mulkning davlat tasarrufidan chiqarilishi va xususiyashtirilishi jarayonida aholining ikki toifaga ajralishi, haddan tashqari boyib va qashshoqlashib ketishiga turli noroziliklarning kelib chiqmasliklariningoldini olish lozim edi.

Ana shularni nazarga olib Prezident I.A.Karimov o‘tish davrida aholini ijtimoiy himoyalash strategiyasini ishlab chiqdi.

Bozor munosabatlarini amalga oshirish bir necha bosqichdan iborat qilib belgilanadi. Har bir bosqichda ma’lum iqtisodiy tadbirlar amalga oshiriladi. Bular quyidagilar:

- Mulkni xususiyashtirish;
- Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish;
- Mulkning xilma - xil shakllarini vujudga keltirish;
- Agrar islohotlarni amalga oshirish;
- Milliy valyutani amalga oshirish;
- Yangi iqtisodiy infrastrukturaning yaratilishi;
- Rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikda qo‘shma korxonalar barpo etish;
- Innovatsiya siyosatini amalga oshirish;
- Xorijiy investitsiya, texnika va texnologiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalgan etish va boshqalar.

Xullas, chinakam sivilizatsiyalashgan bozor munosabatlari faqat yuksak ma’naviyat, yuksak ahloqiylik va vatanparvarlik negizlarida barpo etilishi mumkin.

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish O‘zbekistonning jahon hamjamiyatiga kirishiga imkon beradigan qulay shart - sharoitlar quyidagilar:

- Mamlakatning nihoyatda ko‘p boyliklarga ega ekanligi;

- Sanoat uchun zarur bo‘lgan xom ashyo zahiralariga ega ekanligi;
- O‘zbekistonning tabiiy - jo‘g‘rofiy qulay o‘rnii;
- Mamlakatda ijtimoiy siyosiy barqarorlikni o‘rnatalishi.

Ana shu imkoniyatlar O‘zbekistonning iqtisodiy sohada jahon siviliza-siyasiga qo‘shilib borishi uchuch keng istiqbollar yaratadi.

O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar negizida kishilarning mehnatga, mulkka, mehnat mahsuliga bo‘lgan munosabatlarini o‘zgartirish g‘oyasi yotadi. Uzoq yillar mobaynida ishlab chiqarish vosialariga bo‘lga ijtimoiy mulkchilik

- kishilar mehnat faoliyatining asosiy barcha ijtimoiy illatlarning bosh sababchisi edi. Shaxsiy manfaatlarni inkor etish, jamoa, jamiyat uchungina faol mehnat qilish, iqtisodiyotni mafkuraviy maqsadlarga bo‘ysundirish, mehnat raqobati bo‘lmasligi, insoniyat mehnatdan, jamiyadan beganolashuviga olib keldi. Bu esa jamiyat inqirozini tezlashtirdi.

O‘zbekiston sharoitida bozor munosabatlarini shakllantirishda mehnatga, mulkka va insonning o‘z - o‘ziga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirishning nazariy - falsafiy asoslarini ishlash zarurati vujudga keldi va bu I.A. Karimov asarlarida o‘z ifodasini topdi. Bu asarlarda mehnat va mehnatga munosabat sohalari hamda xususiy mulkning o‘rni masalalari har tomonlama nazariy va amaliy tomondan asoslab berildi.

Bozor munosabatlari sharoitida mahsulot sifati va samaradorligini yaxshilashning muhimi qonunlaridan biri raqobatli muhitni yaratish, kishilarda mulkka egalik hissini shakllantirish, shaxsiy manfaatdorlik va uni davlat manfaati bilan uyg‘unlikda olib borish muhim ahamiyatga ega sifatida joriy etila boshlaydi.

Mehnatni tashkil etish jarayonida kishilarning kasbiy malakasi, ko‘nikma hosil qilish, mehnat madaniyati, mehnatni tashkil etishda ijodiy yondashish kishilarning mehnat va mulkka bo‘lgan munosabatini ko‘rsatuvchi mezonga aylanadi.

Mulk insonning aqliy va jismoniy mehnat faoliyatida yaratilgan va uning barqaror yashashi uchun kafolot beradigan moddiy va intellektual boylikdir.

Mulk avloddan avlodga meros bo‘lib o‘tishi ham mumkin. mulk mulkdorning tasarrufida bo‘lgan barcha tirikchilik va ishlab chiqarish vositalaridandir. Mulkning shaxsiy, xususiy, jamoa, davlat mulki singari shakllari mavjud.

Bozor munosabatlariga o'tish davrida davlat xususiy mulkni qo'llab - quvvatlaydi, mulkning turli shakllarini rivojlantirishda xususiy mulk dahlsizligini huquqiy kafolotlash, tadbirkorlik va ishbilarmonlikni rivojlantirish uchun imtiyozli kreditlar yo'lga qo'yadi. Bu esa ularning mulkdor bo'lishi, o'rta mulkdor sinfining shakllanishi uchun keng imkoniyat yaratadi.

Mehnat jarayonida yaratilgan har qanday mahsulot o'z qiymatiga ega bo'ladi. Qiymat mahsulotda o'z ifodasini topadigan, xodimning aqliy va jismoniy kuchi, qobiliyati, bilimi, sarflangan vaqt, xom ashyo, yoqilg'i, energiya, yo'l harajatlari uchun mablag' va hokazolardir.

Foyda bozor munosabatlari sharoitidaamal qiladigan muhim qonuniyat-lardan biridir. Xususiy mulkning rivojlanishida foyda hal qiluvchi o'rin tutadi. Hozirgi vaqtida mehnat, mulk, foyda tushunchalarini falsafiy - iqtisodiy jihatdan teran idrok etish, yoshlar dunyoqarashida yangicha iqtisodiy tafakkurni shakllantirish ularning jahon sivilizatsiyasi andozasi talablari darajasida fikr yuritishi va faoliyat ko'rsatishi uchun zamin yaratadi.

O'zbekistondagi demokratik jarayonlar jahon sivilizatsiyasi bilan uyg'unlashishning yanya bir imkoniyatidir.

O'zbekiston qonunchiligini halqaro huquq talablariga muvofiqlash-tirish, nufuzli halqaro tashkilotlarga a'zo bo'lish, hokimiyatni qonun chiqaruvchi, ijro etuvchi, sud hokimiyatlariga bo'lish, mamlakat Prezidentini muqobililik asosida saylash, fikrlar xilma - xilligi va ko'p partiyaviylik tizimining qaror topishi, demokratik qadriyatlarni hayotga tadbiq etish, O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo'shilib borayotganidan dalolat beradi. I.A. Karimov o'z asarlarida ma'naviyat, jamiyat taraqiyotida muhim omil ekanligi to'g'risidagi g'oya yangicha falsafiy tafakkurning metodologik asosi, jahon taraqqiyoti tajribalariga tayanishning yorqin namunasidir.

Milliy g'oya va milliy mafkura o'zida mamlakatlarning jahon sivilizatsiyasiga qo'shilish nazariyasi yo'llarini yaqqol aks ettiradi.

O'zbekistonning jahon sivilizatsiyasiga qo'shilish tajribasi, uning milliy g'oyasi va mafkurasi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun olamshumul ahamiyat kasb etadi.

Jahon sivilizatsiyasiga qo'shilish talablarida Vatan tuyg'usi, ma'rifat-parvarlik,

milliy g‘urur, burch, mas’uliyat hissini tarbiyalashga yordam beradi.

### **Bozor munosabatlariiga o‘tishning o‘ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat**

- Mulkni xususiylashtirish
- Mulkni davlat tasarrufidan chiqarish
- Mulkni xilma – xil shakllarini vujudga keltirish
- Agrar islohotlarni amalga oshirish
- Milliy valyutani muomalaga kiritish
- Yangi iqtisodiy infrastrukturaning yaratilishi
- Rivojlangan mamlakatlar bilan hamkorlikdagi qo‘shma korxonalar barpo etish
- Xorijiy investitsiya, texnika va texnologiyalarni mamlakat iqtisodiyotiga jalb etish va boshqalar

#### **Tayanch so‘z va iboralar.**

Insoniyat taraqqiyoti, sivilizatsiya, sivilizatsiyalashgan jamiyat, jahon sivilizatsiyasi, jahon hamjamiyati, sivilizatsiyali rivojlanish, taraqqiy etgan mamlakatlar, iqtisodiy rivojlanish, mulk, mehnat, mulkka munosabat, foyda, jahon hamjamiyati.

#### **Adabiyotlar**

1. Karimov I.A. “O‘zbekiston iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirish yo‘lida” T., “O‘zbekiston”, 1995 y.
2. Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va tarqqiyot kafolatlari” - T., “O‘zbekiston”, 1997 y.
3. Karimov I. A. “Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poyde-voridir” - T., “O‘zbekiston”, 1997 y.
4. Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” - T., “O‘zbekiston”, 2000 y.
5. Karimov I.A. “Donishmand halqimning mustahkam irodasiga ishonaman”.

“Fidokor” gazetasi. 2004 yil 8 iyun.

6. Karimov I.A. “Erkin farovon hayotni yuksak ma’naviyatsiz qurib bo‘lmaydi”. Toshkent, “O‘zbekiston”. 2006 y., 3 - 26 betlar.
7. “Ogoh bo‘laylik”. T., “Akademiya” nashriyoti, 1999 y.
8. Falsafa. Ma’ruzalar matni. Toshkent - 2000 y., 303 - 312 betlar.
9. Falsafa asoslari. Toshkent. “O‘zbekiston”, 2005 y., 343 - 356 betlar
10. Mo‘minov I.M. “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli”. T., “Fan” nashriyoti, 1993 y.
11. Shermuhammedov. “Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot”. T., “Fan” nashriyoti, 2005 y.
12. Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushunchalar, tamoyillar va atamalar (lug‘at). Toshkent, “Yangi asr avlodi”, 2002 y.
- 13/ ‘Ma’naviyat va ma’rifat” mavzusidagi maxsus kurs bo‘yicha ma’ruzalar to‘plami. Toshkent, 2007 y., 29 - 46 betlar.

#### **FOYDALANILGAN ADABIY OTLAR RO‘YXATI**

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: “O‘zbekiston”, 1992 y.
2. Karimov I.A. “O‘zbekiston milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura”. Toshkent, “O‘zbekiston”, 1996 y.
3. Karimov I.A. “Bizdan ozod va obod Vatan qolsin” T., O‘zbekiston. 2. j. 1996 yil.
4. Karimov I.A. “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir” T.: “O‘zbekiston”, 3-j, 1996 y.
5. Karimov I.A. “Bunyodkorlik yo‘lida”. T.: “O‘zbekiston”, 4-j, 1996 y.
6. Karimov I.A. “Yangicha fikrlash va ishlash - davr talabi” T.: “O‘zbekiston”, 5- j, 1997 y.
7. Karimov I.A. “Xavfsizlik va barqaror taraqqiyot yo‘lida” - T.: “O‘zbekiston”, 6- j, 1998 y.
8. Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI asr bo‘sag‘asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolotlari”. T., O‘zbekiston, 1997y.
9. Karimov I.A. “O‘zbekiston buyuk kelajak sari”. - T.: “O‘zbekiston”, 1998y.

- 10.Karimov I.A. “O‘zbekiston XXI asrga intilmoqda” - T., “O‘zbekiston”, 1999 y.
- 11.Karimov I.A. “Ma’naviy yuksalish yo‘lida” - T., “O‘zbekiston”, 1998 y.
- 12.Karimov I.A. “O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li”T.: “O‘zbekiston”, 1992 y.
- 13.Karimov I.A. “Olloh qalbimizda, yuragimizda”, T., “O‘zbekiston”, 1999y.
- 14.Karimov I.A. Ozod va obod vatan, erkin va farovon hayot pirovard maqsadimiz. T. O‘zbekiston. 2000 y.
- 15.Karimov I.A. “Ilmu fan mamlakat taraqqiyotiga xizmat qilsin”. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi umumiylig“ ilishidagi so‘zlagan nutqidan. 1994 yil 7 iyul. “Ma’naviy yuksalish yo‘lida” kitobi. T.: “O‘zbekiston”, 1998 y., 150 - 164 betlar.
- 16.Karimov I.A. Yuksak malakali mutaxassislar taraqqiyot omili. “Ma’naviy yuksalish yo‘lida” kitobi. T.: “O‘zbekiston”, 1988 y., 204 - 217 betlar.
- 17.Karimov I.A. “To‘rtinchchi hokimiyat demokratlashtirish yo‘lida”. “Ma’naviy yuksalish yo‘lida” kitobi. T.: “O‘zbekiston”, 1998 y., 324 - 326 betlar.
- 18.Karimov I.A. “Tarixiy xotirasiz kelajak yo‘q” “Ma’naviy yuksalish yo‘lida” kitobidan, 1998 y. 429 - 443 betlar.
- 19.Karimov I.A. “Milliy istiqlol mafkurasi - halq e’tiqodi - buyuk kelajakka ishonchdir”. T.: “O‘zbekiston”, 2000 y.
- 20.Karimov I.A. “Imperiya davrida bizni ikkinchi darajali odamlar deb hisoblar edi”. T., O‘zbekiston, 2005 yil.
- 21.Karimov I.A. “Bizning bosh maqsadimiz jamiyatni demokratlashtirish va yangilash, mamlakatni modernizatsiyalash va Isloh etishdir”. Qonunchilik palatasi va Senatning qo‘shma majlisidagi ma’ruzasi. “O‘zbekiston ovozi” gazetasi, 2006 yil 24 yanvar.
- 22.Karimov I.A. “Mavjud salohiyat va imkoniyatlardan oqilona foydalanish muvaffaqiyat garovi” (Halq Deputatlari Toshkent viloyati kengashining navbatdan tashqari sessiyasida so‘zlagan nutqidan). “O‘zbekiston ovozi”, 2005 yil 8 noyabr.
- 23.Karimov I.A. “Xavfsizlikni mustahkamlash va taraqqiyot omili” “O‘zbekiston ovozi”, 2005 yil 7 iyul.
- 24.Karimov I.A. “Erkin va farovon hayotni yuksak ma’naviyatsiz qurib bo‘lmaydi”. -

T., “O‘zbekiston”, 2006 yil.

- 25.Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligining 15 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagи nutqi. “O‘zbekiston ovozi” gazetasi, 2006 yil 1 sentyabr.
- 26.Karimov I.A. “Tayanch - osoyishta hayotni qadrlash va mustahkamlash, mamlakatimizni har tomonlama ravnaq toptirish barchamizning asosiy vazifalarimizdir”. “O‘zbekiston ovozi”, 2006 y., 14 oktyabr.
- 27.Karimov I.A. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilingan-ligining 15 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimidagi ma’ruzasi. “Halq so‘zi” gazetasi, 2007 yil 8-dekabr.
- 28.Karimov I.A “Inson manfaatlari ustivorligini ta’minlash - barcha islohot va o‘zgarishlarning bosh maqsadidir” 2007 yilda mamlakatni ijtimoiy - iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2008 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustivor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan Vazirlar Mahkamasi majlisidagi ma’ruzasi. “Halq so‘zi” gazetasi, 2008 yil, 9 yanvar.
- 29.Xerman Vamberi. Buxoro yoxud Movarounnahr tarixi. Toshkent, 1990 yil.
- 30.Hamidjon Homidiy. “Ko‘hna sharq durdonalari”. “Sharq” nashriyoti. T., 1999 y.
- 31.Abdulhamid Cho‘lpon. “Go‘zal Turkiston”. T.: “Ma’naviyat”, 1997 y., 13 - 20 betlar.
- 32.O‘zbekiston Respublikasi “Vijdon erkinligi va diniy tashkilotlar tushunchasi” qonuni. T.: “Adolat”, 1998 yil.
- 33.Avloniy A. “Turkiy guliston yoxud ahloq”. T., “O‘qituvchi”, 1992 y.
- 34.Al-Buxoriy. Hadis I - IV tomlari.
- 35.Azamat Ziyo. O‘zbek davlatchiligi tarixi. T.: “Sharq” nashriyoti, 2000 yil, 151 - 200 betlar.
- 36.Alisher Navoiy. “Majolis un - Nafoysis”. - T.: 1986y.
- 37.Bahouddin Balogardon. T.: “Yozuvchi”, 1993 yil.
- 38.Barkamol avlod orzusi. T.: “Sharq”, 1998 yil.
- 39.Abu Rayhon Beruniy Tanlangan asarlar. “Qadimgi halqlardan qolgan yodgorliklar” 1-jild, T., O‘zbekiston, “Fan”, 1958 y.
- 40.Vatan saodati. T.: “Sharq”, 1998 yil.

- 41.Jumabayev I. “O‘zbekistonda falsafa va ahloqiy fikrlar taraqqiyoti” tarixidan. T.: “O‘qituvchi”
- 42.Inson huquqlari. O‘quv qo‘llanmasi. T.: “O‘zbekiston”, 1997 y.
- 43.Isroil Mirzayev. “Haqiqat va sarob” Zarafshon, Samarqand, 2001 y.
- 44.Kaykovus. “Qobusnoma”. T.: “O‘zbekiston”, 1986 y.
- 45.Komil inson haqida to‘rt risola. T.: 1997 y.
- 46.Mo‘minov I.M. “Amir Temurning O‘rta Osiyo tarixida tutgan o‘rni va roli”. T.: “Fan”, 1993 y.
- 47.Mo‘minov I.M. “O‘zbekiston ijtimoiy - falsafiy tafakkur tarixidan”. T.: “Fan”, 1994 y.
- 48.Mahmudov T. “Mustaqillik va ma’naviyat”. Toshkent. 2001 y.
- 49.Qudratxo‘jayev Sh., Qirg‘izboyev A. “Terrorizm - taraqqiyot kushandası” T.: 2002 y., 3 - 33 betlar.
- 50.Xudayberdiyev I. “Milliy ong va psixologiya munosabatlari”. “Mustaqil”, J., 2004 yil 3sentyabr, 9 - 11 betlar.
- 51.Haydarov A. “Siyosat madaniyat va uning jamiyatdagi o‘rni” “Mustaqil”, J., 4 sentyabr 2004 yil, 2 - 4 betlar.
- 52.Xonazarov K. “Mustaqillik va diplomatik falsafasi”. “Muloqot” jurnali, 2004 yil, 5 sentyabr, 7 - 9 betlar.
- 53.Eshonqulov. “Fikrlash - mavjudlik alomati”. “Muloqot” jurnali. 2004 y. № 5, 11 - 12 betlar.
- 54.Mamajonov A. “Tarix saboqlari va komil insonni tarbiyalash” “Muloqot” jurnali, 2004 yil, 5 sentyabr, 27 - 29 betlar.
- 55.Mamatqulova S. “Qadriyat va ishonchning ijtimoiylashuvi” “Muloqot” jurnali. 2005 y. № 5, 8 - 10 betlar.
- 56.Qurbanov X. “Barkamol avlod tarbiyasi” “Muloqot” jurnali. 2005 y. № 3, 13 - 15 betlar.
- 57.Normurodov K. “Ruhshunoslik va inson kitobi”. “Muloqot” jurnali. 2005 y. № 3, 27 - 28 betlar.
- 58.Karimova E. “Bag‘rikenglik insoniyat kelajagi”. “Muloqot” jurnali. 2005 y. №

- 3,                   36 - 38 betlar.
- 59.Zayniddin X. “Navro‘z qadimiy bitiklar talqini”. “Muloqot” jurnali. 2004 y. № 2,                   22 - 24 betlar.
- 60/ ‘Falsafa’. (O‘quv qo‘llanma). Yusupovning umumiy tahriri ostida T., “Sharq”, 1999 y.
- 61.Falsafa (ma’ruzalar matni). - T., 2000 y., Falsafa asoslari. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2005 y.
- 62.Suyunov S.X., Mamatqulova N.N. “Mantiq, ahloqshunoslik va nafosat- shunoslik” fanlari bo‘yicha. Uslubiy qo‘llanma. Samarqand, 2006 yil.
- 63.Karimov S.K., Suyunov S.X. “Tarbiya tayanchi” Samarqand, 2006 y.
- 64.Muhitdinova S. “Qurollangan terrorchilarni “tinch aholi” deb bo‘lmaydi”. “Ma’rifat” gazetasi, 2005 yil 28 may.
- 65.Shermuhammedov S. “Falsafa va ijtimoiy taraqqiyot”. Toshkent. 2005 y.
- 66.Rahmonov R. “Mustaqillik va milliy ongning o‘sishi”. “Muloqot” jurnali. 2005 y. № 3, 10 - 13 betlar.
- 67.Norboyev T. “Fuqarolik jamiyatı - huquqlar kafolati” “Muloqot” jurnali, 2006 yil № 2, 4-6 betlar.
- 68.Jo‘rayev N. “Forobiy falsafasi - jamiyat-jarayon” “Muloqot” jurnali, 2006 yil № 1-2 son, 17-22 betlar.
- 69.Suyunov S.X. “Milliy g‘oya va mafkura”. “Samarqand gazetasi, 2007 yil 6 yanvar.
- 70.Nomozova Z. “oilaga tegishlilik hissi yoxud ish, ota - ona va farzand” “Ma’rifat” gazetasi, 2007 yil 31 yanvar.
- 71.Ismoilov B. “Muomala madaniyati”. “Ma’rifat” gazetasi, 2007 yil 31 yanvar.
- 72.“Ma’naviyat va ma’rifat” mavzusidagi maxsus kurs bo‘yicha ma’ruzalar to‘plami. Toshkent. 2007 yil.
- 73.“O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining majlisi to‘g‘risida axborot”. “Turkiston” gazetasi, 2008 yil 9 yanvar.

## MUNDARIJA

1. Kirish .....	3
-----------------	---

2. Falsafaning predmeti va asosiy mavzulari. Falsafiy dunyoqarash .....	5
3. Markaziy Osiyo falsafasi, uning jahon madaniyatidagi o‘rni .....	11
4. O‘rta asr va yangi davr g‘arb falsafasi .....	18
5. Olam va odam falsafiy talqini .....	28
6. Borliq falsafasi.....	37
7. Tabiat falsafasi.....	45
8. Falsafiy qonunlar .....	53
9. Ong va ruhiyat .....	66
10. Inson va jamiyati falsafasi .....	76
11. Ma’naviyat va g‘oyalar fasafasi.....	89
12. Qadriyatlar falsafasi. O‘zbekistonda inson qadri va shaxs erkinliklari.....	98
13. Fan falsafasi. Jamiyatning <u>ilmiy</u> mohiyatini yuksaltirish .....	107
14. Global muammolar falsafasi .....	118
15. Jahon sivilizatsiyasi va mustaqil rivojlanish falsafasi .....	130
16. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati.....	140
17. Mundarija.....	106

137

138

139